



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

**“Dinshunoslik”  
fanidan**

**MA'RUZALAR MATNI**

## SO'Z BOSHI

Ushbu ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyurtmasiga binoan Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti «Dinshunoslik» kafedrasida tuzildi. Dastur vazirlik tomonidan tasdiqlangan va nashr etilgan.

«Dinshunoslik» kursining hajmi - 40 soat, shundan 28 soati ma'ruza, 12 soati seminar mashg'ulotlardan iborat bo'lib, 1 semestrda muljallangan. Dinshunoslik kursi Akademik litsey talabalariga 3- semestrda o'qitiladi.

Biz kafedra ushbu o'quv dasturi asosida quyidagi ishchi dasturni ishlab chiqdik. «Dinshunoslik» fanining talablari, akademik litseytalablaridan kelib chiqib 1-semestrda 20 soat namunaviy o'quv reja asosan va ishchi o'quv reja asosida mavzularni nazariy va amaliy qismlarga bo'lib me'yor asosida tuzdik.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga muvofiq O'rta maxsus ta'lim (akademik litsey) umumiy O'rta ta'lim asosida faoliyat ko'rsatadigan uch yillik o'quv muassasalaridir. Ushbu «Dinshunoslik» fani o'quv dasturi akademik litseylar o'quv dasturi sifatida e'tirof etiladi.

Dasturni tuzishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi 5 - sonli, 1998 yil 13 maydagi "O'zbekiston Respublikasida O'rta maxsus, kasb - hunar ta'limini tashkil etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 204 - sonli va 2000 yil 16 oktyabrdagi «O'rta maxsus, kasb - hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 400 - sonli qarorlari asos qilib olindi.

Ushbu o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining o'quv metodik kengashida mu'okama qilingan va namunaviy o'quv dasturi sifatida tavsiya etilgan.

# 1 – MAVZU. DINSHUNOSLIK FANIGA KIRISH.

## R E J A :

1. **Kursning predmeti.**
2. **Kursning maqsad va vazifalari.**
3. **Dinning funksiyalari.**
4. **Kursning amaliy ahamiyati.**

**Kursning predmeti.** «Dinshunoslik» dinning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini, uning ijtimoiy, gnesologiq psixologik ildizlarini, turli xil dinlar ta'limotining vujudga kelishi va shakllanishini o'rgatuvchi fandır, ta'limot va o'kuv predmetidir, u dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bulishidan urug'-qabila, milliy va jahon dinlari paydo bo'lgan barcha ijtimoiy xodisalarni, ma'naviy omillarni – mafkura va aqidalar, urf-odat va marosimlar, masjid va diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o'rganish, tahlil kilishni ko'zda tutadi.

Din muammolariga xos dastlabki g'oyalar Markaziy Osiyoda – deizm, panteizm va boshqalar, bu o'lkada yashagan, ijod qilgan ulug' allomalar Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning «Ikki haqiqat» ta'limotida olg'a surilgan edi. XVII asrda Boburning nabirasi Shox Akbar, so'ngra XVII asrda fransuz faylasuflarining dinga, diniy tashkilotlarga munosabatlari XIX asrda ilmiy dinshunoslik doirasida yangi oqim, yunalish va nazariyalar yuzaga kelishiga katta turtki bo'lgan.

Ammo o'sha davr dinshunosligi dinga o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon etar ekan, bu qarashlari diniy tashkilotlar manfaatlari bilan bog'lanmagan, mafkuraviy jihatdan betaraf qilib kursatmoqchi bo'lgan. Amalda esa ilohiyotga ko'prok yondashgan.

Olimlarning dinshunoslik izlanishlari muhim xulosalar chiqarishga olib kelgan. Birinchidan, har qanday din ijtimoiy hodisa fenomen hisoblanib, diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir; ikkinchidan, diniy tasavvur va e'tiqodlar jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy sharoitlari ta'sirida turli-tuman shakl kasb etgan; uchinchidan, ibtidoiy diniy tasavvurlardan tortib jahon dinlarigacha bulgan dinlar evolyusiyasini e'tirof etish dinshunoslik haqida to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, «Dinlar tarixi»ni o'rganuvchi «Dinshunoslik» predmetini quyidagicha ta'riflash mumkin: Dinshunoslik kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan barcha din shakllarining ma'naviy, ijtimoiy, gnesologik va psixologik ildizlarini, ularning ta'limoti va marosimchiligi, ijtimoiy hayotdagi mavqei va ijtimoiy funksiyalarini ilmiy jihatdan o'rganuvchi fandır.

**KURSNING MAKSAD VA VAZIFALARI.** Dinshunoslik kursini o'kitishdan 1-maqsad talabalarni din va diniy ta'limotlarning diniy talqinidan tashqari ilmiy tushuncha, ta'limot, nazariya, falsafiy xulosalar bilan qurollantirishdan iborat. Buning uchun hozirgi zamon fani yutuqlari asosida dinning kelib chiqishi, evolyusiyasi, hozirgi xolati, insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni haqida ilmiy-nazariy ta'limotlar bilan qurollantirish ko'zda tutiladi.

2-maqsad O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda USH asrdan boshlab islom yagona hukmron dinga aylanganligi, halqimiz turmush tarziga chuqur kirib borganligini hisobga olib, uning shaxs, oila, jamiyat hayotida tutgan o'rni, madaniyat va ma'naviyat, san'at va adabiyotni boyitishga qo'shgan xissasi xususida talabalarni ilmiy-falsafiy bilimlar asosida fikr yuritishga o'rgatilishidan iborat.

3-maqsad talabalarda ibtidoiy dinlardan tortib to jahon dinlarigacha bo'lgan dinlarning shakllari, ta'limotlari, yo'nalish va oqimlari mazhab va sektalari haqida umumiy ilmiy tasavvur hosil kilish orqali o'zlari mustaqil falsafiy xulosalar chiqara olish malakasini hosil qilishdan iborat.

Yuqoridagi maqsadlarga erishishda I.A.Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi yangi taxrirdagi Qonun, Jinoyat, Fuqaroliq Oila, Yoshlar kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturul amal bo'lib xizmat kiladi.

«Dinshunoslik» kursining vazifalari quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, Oliy o'quv yurti talabalariga shu soxada chuqur bilim berish orqali kurs doirasiga kirgan masalalarni taxlil etishda ilmiylik va ob'yektivlik uslubini qo'llanib, ularga diniy qarashlar taraqqiyotiga, inson kamolotiga xizmat kiladigan jihatlarni ajratib olish, mustaqil fikr yuritish orqali ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan dunyoviy iymon va e'tiqodni shakllantirish.

Ikkinchiidan, ibtidoiy din shakllaridan tortib to urug', qabila va milliy dinlargacha, ularda jahon dinlarining paydo bo'lishi va rivojlanishining ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini tarixiy dalillar asosida har tomonlama ilmiy taxlil kilish va umumlashtirish.

Uchinchiidan, kursni o'rganish jarayonida dinning ta'rifi, tavsifi, diniy va ilmiy kategoriya (asosiy tushunchalar), dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati taraqqiyotidagi turli bosqichlarda tutgan o'rni; jamiyatni, shaxsni ma'naviy kamol toptirishda milliy va diniy qadriyatlarining ahamiyati; Islomning Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston xalqlari madaniyati va ma'naviyatiga ta'siri kabi masalalarni falsafiy taxlil qilish.

Turtinchiidan, talabalarga islom manbalari – Qur'oni Karim, Hadis, shariat haqida umumiy ilmiy tushunchalar berish, uni rivojlantirishga ulkan xissa qo'shgan vatandosh bobokalonlarimiz hayoti va ijodi bilan tanishtirish; hadislarning tarbiyaviy ahamiyatini keng yoritish; tasavvuf ta'limotini takomillashtirishda xamyurtlarimiz ijodini bayon etish.

Beshinchiidan, hozirgi davrda mustaqil mamlakatimizda vijdon erkinligining to'lik kafolatlanganligini isbotlab berish, islomdagi real qadriyatlarni tiklash yulida qilinayotgan sa'y-xarakatlarni tavsiflash, nixoyat, milliy va diniy qadriyatlarining sog'lom avlodni, jumladan talabalarni kamol toptirishga bag'ishlash ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

**DINNING FUNKSIYALARI.** Umuman din, xususan islom dini 5 asosiy funksiyani boshqaradi. Bular qatoriga kompensatorlik integrativ, regulativ, kommunikativ va legitimlovchilik funksiyalar kiradi.

Dinning yuqorida qayd qilingan besh funksiyasining qisqacha ta'rifi va tavsiflari quyidagilardan iborat:

**BIRINCHIDAN,** har qanday o'z dinidagilar uchun to'ldiruvchi, ovutuvchi (kompensatorlik) vazifasini bajaradi. Masalan, insonda diniy ehtiyoj hosil bo'lishini olib karaylik. U o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyoj, maqsadlarga yetishishi qkiyin, ilojsiz bo'lib ko'ringanda banday ma'naviy ehtiyoj vujudga kelgan. Chunki inson hayotida quvonchli yoki tashvishli onlarda, orzular ro'yobga chiqishi ilojsiz bo'lgan paytda insoniyatning dinga ehtiyoji jamiyat bo'lib yashash talablarida boshlangan; din bu o'rinda ma'naviy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan.

**IKKINCHIDAN,** dinlar o'z ta'limot tizimini vujudga keltirib, unga e'tiqod qiluvchi shaxs jamoani shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Buni dinlarning birlashtiruvchilik (integrativlik) funksiyasi deyiladi. Bunda din muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotning o'z ta'siri doirasida bo'lishini ko'zda tutadi. Masalan, islom o'tmishda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti, ahloqiy munosabatlari, hattoki adabiyot va san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bular orqali elat va xalqlarda turli xil birlashtiruvchi munosabatlar qaror topadi.

**UCHINCHIDAN,** din dindorlar hayotini tartibga solish, nazorat qilish (regulyativlik) funksiyasini ham bajaradi. Har qanday dinlarning muayyan urf-odat, marosim va bayramlari bo'lib, ularni o'z vaqtida, diniy ta'lim va talab asosida bajarilishi shart qilib qo'yiladi.

**TURTINCHIDAN,** din dindorlarning birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqasini ta'minlovchi xususiyat – aloqa bog'lashlik vazifasiga ham egadir. Bunda konkret bir dinga e'tiqod qiluvchi kishi shu dindagi boshqa kishilar bilan bog'lik bo'lishi, urf-odat va ibodatlarini jamoa bo'lib ado etish ko'zda tutiladi. Cherkov, masjid va diniy

tashkilotlar dinning bu funksiyasini amalga oshirishga ko'maklashadi, ayni paytda, bu holatni nazorat kiladi.

Har qanday dinning muayyan tarixiy sharoitda bajaradigan funksiyalari yig'indisi uning ijtimoiy rolini belgilaydi. Dinning ijtimoiy hayotga ta'siri hamma vaqt ham bir hil bulgan emas. U vaqtga, sharoitga qarab sezilarli darajada o'zgarib boradi.

Din tirixida dinshunoslar dinning paydo bulishini turlicha izohlab kelganlar. Uning paydo bo'lish sabablari qadimgi dunyo dinshunoslarini qiziqtirgan, binobarin, unga javob topishga harakat qilishgan. Xitoy, Hindiston va xususan, qadimgi grek faylasuflari borliq to'risidagi fikr yuritganlarida din, uning kelib chiqishi va mohiyati to'g'risida ham ayrim g'oyalarini olg'a surganlar.



Dinning paydo bulishi va rivojlanishini ilmiy asoslarda o'rganish quyidagi: a) ob'yektivlik; b) muayyan tarixiy sharoitni hisobga olish; v) ilmiylik; g) qiyosiylik; d) umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqlik; ye) din mavjudligini, umuman gnoseologiq ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik sabablarni hisobga olishni taqozo etadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqotchini jamiyatga xos bulgan asosiy hodisalar xususiyatlarini, ularning paydo bulishi, o'zgarishi va rivojlanishini aniqlashga undaydi va anglashga yordam beradi. Tarixiy, ijtimoiy usul deb atalmish bunday yondashuv tarixiy etnografik tadqiqotlarni olib borishda va ularning natijalaridan talabalarni xabardor qilishda ayniqsa yaxshi samara beradi. U yosh avlodda, jumladan talabalarda diniy e'tiqod va an'analarning saqlanishi va takrorlanishiga sabab bo'ladigan ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq etishda to'g'ri yo'nalishni belgilab olish imkonini beradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganideq ijtimoiy-psixologik hodisalarning xususiyatlarini hisobga olmay turib dinni tushunish, izohlash, tavsiflash mumkin emas. Din ma'naviy, aniqrog'i, g'oyaviy-madaniy omil bo'libgina qolmay, ayni vaqtda, ko'pgina jihatlardan ijtimoiy-ruhiy hodisa hamdir.

Din ijtimoiy birliklar va guruhlar mafkurasi va psixologiyasining tarkibiy qismi, bayram, urf-odat va marosimlarning manbai bo'lib, jamoa va guruhlar fikrini shakllantiradi, shaxs va ijtimoiy guruhlarning dasturlarini, qadriyat yo'nalishlarini belgilaydi. Shu bilan birga, dinning paydo bo'lishi va evolyusiyasi, muayyan jamiyatdagi shart-sharoitni va uning dastlabki shakllari – totemizm, fetishizm, animizm, sehergarliq zardushtiyliklarni o'rganish turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda dinning paydo bulish, mavjud bo'lib turish sabablari va ildizlarini o'rganishni ham taqozo etadi.

**KURSNING AMALIY AHAMIYATI.** «Dinshunoslik» kursining amaliy ahamiyati, oliy maktab talabalarining shu sohadagi bilim doiralarini kengaytirish, ularni qiziqtirgan masalalar yuzasidan erkin fikr yuritish hamda ilmiy va diniy ta'limotlarni hozirgi fanlar va talablar nuqtai nazaridan turib o'rganishdan iborat.

«Dinshunoslik» o'zining o'rganish va ilmiy tekshirish ob'yektiga ega. U dinning paydo bo'lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi va yashashi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyusiyasini ilmiy jihatdan o'rganadi. «Dinshunoslik» kursining vazifasi dinni falsafiy, tabiiy-ilmiy, tarixiy va psixologik nuqtai nazarlardan har tomonlama tahlil qilishdan va bu tahlil bergan dalillarni umumlashtirishdan iborat. «Dinshunoslik asoslari» predmeti tabiiy-ilmiy, insonshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Uning etika, estetika, tarix etnografiya, arxeologiya, psixologiya, hurfikrlilik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan mustahkam bog'liqligi dinshunoslik nazariyasini boyitadi.

«Dinshunoslik» kursining O'zbekiston xalqlari tarixi bilan uzviy bog'liqligini alohida ta'kidlash zarur. Zero, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi umuman din, xususan islom tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, fan va madaniyat tarixiy taraqqiyotida keyingi ming yillikda islom ta'limotining ta'siri kuchli bo'lgan. O'zbekiston xalqlari tarixi predmeti qadimgi zamonlardan hozirgi davrgacha jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanish bosqichlarini o'rgansa, bu jarayonning barcha jihatlarida mavjud dinlarning aralashuvi, yohud kuchli ta'siri bulgan. Xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida islomning kirib kelishi va hukmron mafkuraga aylanishi bu xalqlar tarixida katta iz qoldirgan.

Oliy maktab talabalari uchun yangi o'quv predmeti sifatida o'qitilayotgan Madaniyat tarixi va nazariyasi bilan dinshunoslik asoslari kursi o'zaro uzviy bog'liqdir, chunki madaniyat tarixi bilan din tarixi bir-biridan ajralmagan, aksincha o'zaro ta'sir o'tkazib kelayotgan jarayondir. Bu tarixiy taraqqiyot hodisalarning ob'yektivligini, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish har ikkala o'quv predmeti uchun ham ahamiyatlidir. Bir-birini to'ldiruvchi O'zbekiston xalqlari tarixi bilan «Dinshunoslik» o'quv predmetlari yoshlarni bu sohadagi zarur bilimlar bilan qurollantiradi.

«Dinshunoslik» kursi o'qitishning yana bir amaliy ahamiyati shundaki, mustaqillik tufayli mamlakatimizda boshlangan ijobiy o'zgarishlar din tarixiga, u bilan bog'liq bo'lgan madaniy merosga xolisona ob'yektiv munosabatni o'rnatish imkoniyatini yaratdi. Jumladan, yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tug'risida»gi qonunning qabul qilinishi hozirgi sharoitda demokratik va insonparvar jamiyat qurayotgan O'zbekiston xalqlari hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, o'z natijasini ko'rsatmog'da.

Dinga, diniy tashkilotlarga va dindorlarga nisbatan to'g'ri munosabatning qayta tiklanishi haqiqiy vijdon erkinligini amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Oxirgi mustaqillikning o'tgan yillarida urushdan keyingi davrga nisbatan bu sohada kup ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, qonun doirasida diniy tashkilotlar va jamoalar uchun to'liq erkinlik yangi diniy jamoalarni, jumladan masjid va madrasalarni ruyxatdan o'tkazish, diniy ibodatlarni bemalol ado etish, diniy adabiyotlar nashr etish, diniy arboblarni va

talkilotlar faoliyatiga munosabatda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Diniy tashkilotlarning jamoat tashkilotlari, tinchlik va xayriya ishlarida faol qatnashishdan iborat huquq kafolatlandi va ro'yobga chig'arildi.

Madaniy va ma'naviy marosimlarni, diniy qadriyatlarimizni tiklash. Ilm toliblariga o'rgatishga g'aratilgan chora-tadbirlarni xalg'imiz keng quvvatladi. Mustaqilligimiz sharofati bilan ilm-fan, din sohasida katta iz qoldirgan olimu-fozillar, ulamolardan iborat vatandoshlarimiz Ismoil Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Hakim Termiziy, Axmad Farg'oniy, Navoiy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy va boshqalarning utkazilgan va bulajak yubileylarini tantanali nishonlash va meroslarini o'rganishga keng yo'l ochildi.

«Dinshunoslik» kursining falsafa, tarix etika, psixologiya fanlari bilan bogliqligidan tahqari bu kurs din sosiologiyasi bilan ham bog'liq bo'lib, uning natijalari muqim amaliy ahamiyatga ega.

Din va sosiologiyada muayyan aholi o'rtasida dinga, uning qadriyatlariga hamda ijtimoiy rolini aniqlash maqsadida sosiologik tadqiqotlar o'tkaziladi. Bu tadbir sosiologik tadqiqot metodikasi, so'rov varaqalari ishlab chiqilgandan so'ng ishga solinadi. Olingan natijalar muayyan hududda diniy vaziyatni, diniy ong darajasini, ijtimoiy hayotdagi rolini aniqlashda yordam beradi.

Bulardan tashqari «Dinshunoslik» din antropologiyasi, din fenomenologiyasi, din aksiologiyasi kabi fan tarmoqlari yutqlaridan ham foydalanishning muayyan amaliy ahamiyati mavjuddir.

### **Mustaqil ta'lim uchun adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.-T.: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istig'lol va taraqqiyot yo'li.-T.:O'zbekiston, 1992.
3. Jo'rayev U., Saidjonov I. Dunyo dinlari tarixiyu O'quv qullanmasi.-T.: 1998.
4. H.Yo'ldoshxo'jayev, B.Rahimjonov, M.Komilov. «Dinshunoslik».-T.:2001.
5. Mustaqillik izohli lug'ati.-T.: «Fan» 1998 (tegishli maqolalar).

## 2-MAVZU. DIN, DINNING TARIXIY SHAKLLARI VA MOHIYATI.

### R e j a :

1. Din va diniy jamoa tushunchalari.
2. Ibtidoiy dinlarning shakllari.
3. O'rta Osiyo xalqlari tarixida din.

**DIN VA DINIY JAMOA TUSHUNCHALARI.** «Din» tushunchasi ifoda etgan ijtimoiy hodisa ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayon ifodasidir. Undan o'tmishdagi g'oyat og'ir va hozirgi murakkab sharoitlarda har xil ijtimoiy-siyosiy harakatlar turli maqsadlar yo'lida foydalanishga intilganlar.

**DIN** tushunchasi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, ishonch, inonmoq ma'nosini bildiradi. Bizning fikrimizcha, din real voqelikdagi, ijtimoiy hayotdagi narsa va hodisalarni tabiatdan, jamiyatdan tashqarida mavjud deb hisoblaydigan, ularni o'ziga xos tarzda aks ettiradigan ma'naviy e'tiqod va amalning bir turidir. **E'TIQOD** so'zi ham arab tilidan kirib kelgan bo'lib, chuqur, mustahkam ishonch ma'nosini anglatadi. Demaq diniy e'tiqod deganda mustahkam, chuqur ishonch, maslaq ishonish tushuniladi. Ilooiyot, ya'ni diniy ta'limot nuqtai nazardan «din», «diniy e'tiqod» tushunchalari jamiyat, inson, uning ongi hayotning ma'nosi, maqsadi va taqdiri uni bevosita qurshab olgan moddiy olamdan tashqarida bo'lgan, uni go'yo yaratgan, ayni zamonda insonlarga birdan-bir «tugri», «haqiqiy», «odil» hayot yullarini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy kuchga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslaq karashlar, ta'limotlar majmuidan iboratdir.

Islomgacha «din» so'zining o'rniga «tangri yo'li», «unga ishonch» iboralari qo'llanilgan bo'lsa kerak. Turkiy elatlarning islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlariga binoan «tangri» butun olamni, insonni yaratgan, «yuksaklik», «eng baland», «bahaybat» degan ma'nolarni ham anglatgan.

Ilmiy bilimlarga asoslangan dunyoviy ishonchli, haqiqiy ta'limot olamning mavjudlik sabablari masalasida diniy qarashlar bilan kelishmasa-da, ammo insonni, uning ijtimoiy faoliyati, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini o'rganishda minglab yillar mobaynida uning bag'rida qo'lga kiritilgan bilim, tajriba, ularning hozirgi kundagi ijobiy ahamiyatini aslo rad qilmaydi. qolaversa, din bag'rida shakllangan ma'naviy, jumladan axloqiy qadriyatlarning vujudga kelish sabablari, ularning kishilarga ijobiy ta'sirchanlik masalalari ilmiy jihatdan o'rganish va bu ma'naviy-ahloqiy qadriyatlardan foydalanish ko'proq ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ma'lumki, diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mavjudligi ham ijtimoiy borliq bilan belgilanadi. Kishilarning ijtimoiy, ma'naviy hayoti moddiy asosga (bazisga) bog'liq. Ijtimoiy xayot jamiyat bilan tabiat orasidagi birlikning muayyan ko'rinishi bo'lgan hukmron ishlab chiqarish usulining taraqqiyot darajasiga asoslanadi. Demaq ijtimoiy borliq, bir tomondan, jamiyat bilan tabiat orasidagi birlikni, ikkinchi jihatdan, jamiyat a'zolari orasidagi o'zaro munosabatni qamrab oladi. Diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida ana shu munosabatning muayyan shakllarining in'ikosidir.

Dindor o'z tasavvurida o'zining toat-ibodatga oid harakatlari orqali ilohiy kuch bilan bevosita aloqa bog'lanish o'rnatadi. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'lganligi uchun ular dinning elementlari (qismlari) deb ataladi. Bu tarkibiy qismlar bir-birlari bilan uzviy bog'liqdir; dinning mavjudligi bu tarkibiy qismlarning hammasini taqozo qiladi. Dinning tarkibiy qismlari orasida diniy ong, diniy tasavvurlar yetakchi o'rin egallaydi. Binobarin, diniy marosimlar, diniy psixologiya, diniy birlashmalar esa diniy tasavvurlarni mustahkamlaydi va uzoq davrlarda yashashi uchun xizmat qiladi.

Diniy ong bir-biri bilan bog'liq, o'zaro muayyan darajada ijobiy mustaqil bo'lgan diniy mafkura va diniy psixikadan iborat. Diniy mafkuraning vujudga kelishi va shakllanishi sinfiy jamiyatda ro'y bergan aqliy meo'natning jismoniy mehnatdan ajralishi va buning natijasida vujudga kelgan dastlabki qohinlar, keyinchalik ruhoniylar faoliyatlari bilan bog'liq. Ular o'z g'oyaviy faoliyatlarida diniy mafkurani yaratadilar va buni asoslash, targ'ib qilish bilan shug'ullanadilar.

Diniy psixologiya – ruhiy holat bo'lib diniy mafkuradan ancha oldin vujudga kelgan. U oddiy dindorlarning his-tuyg'ulari bilan boghliq odatlari, kayfiyatlaridan tashkil topadi. Diniy mafkura diniy psixik

holatni g'oyalar bilan mustahkamlasa, bunisi diniy mafkurani his-tuyg'ular, odatlar vositasida chuqurlashtiradi. Hozirgi davrda oddiy dindorlarning xatti-harakatlaridagi islomga xos bo'lmagan ibtidoiy dinlarning qoldiqlari bunga misol bo'la oladi. Bularga pol ochirish, kinna soldirish, issiq-sovuq qildirish, va h.k.lar kiradi.

Dinning ta'rifi, uning tarkibiy qismlari, diniy ong darajalarini bilishning ilmiy, amaliy ahamiyati shundaki, u kishilar hayotidagi diniy va diniy bulmagan xarakatlarni bir-biridan farqlash, ularga alohida-alohida yondashish imkonini beradi.

Jamiyat moddiy hayot sharoitlarining ta'siri ostida vujudga kelgan din tarixiy va ijtimoiy shodisadir. U ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida, ma'lum bir sabablarga binoan vujudga kelgan.

Diniy munosabatlar, birinchidan, har bir diniy jamoa, uyushma, tashkilotlar orasidagi, ikkinchidan, diniy tashkilotlar o'rtasidagi va uchinchidan, tashqi munosabatlar doirasidagi aloqalarga bo'linadi. Bu aloqalarning ob'yekti va sub'yekti diniy jamoalardir, ular diniy e'tiqodga asoslangan kishilar birligining muayyan shakli va diniy uyushmaning boshlang'ich elementidir. Bu birlikning asosiy belgilari quyidagicha:

1) diniy e'tiqod. Maqsad va vazifalar birligi; 2) diniy marosimlar va undan tashqaridagi faoliyatlarning birligi; 3) etnik birlik tuyo'usi; 4) jamoa a'zolari orasidagi uzaro taqsimlangan mavqei va vazifalarning birligi.

Diniy jamoalarning to'zilishi an'analar va urf-odatlar, huquq yoki umumiy dasturlar, qoida, fatvolar bilan belgilanadi. Bular maxsus mezonlar asosida rasmiy va norasmiy guruhlarga:- «Jamoat kengashi», «ruhoniylar», «qavmlar» va «va'xonlar»ga, diniy va xujaliq moliya ishlari bilan shug'ullanuvchi guruhlarga bo'linadi.

O'rta Osiyo xalqlari mslomgacha e'tiqod qilgan zardushtiylikda diniy qarash va tasavvurlar dunyoviy ishlarga faol munosabatda bo'lishga chaqirilgan. Xususan, bu dinda chorva mollarini boqish, dehqonchilik bilan shug'ullanish dindorlikning asosiy belgisi, vazifasi darajasiga kutarilgan. Taqvodorlikning asosiy belgisi chorvaga, oilaga ega bulish va don ekishdir. Dan ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi. Bunga ixlos kuyish 10 ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik g'ilishga teng deb hisoblangan. Bu zardushtiylikning muhim ijobiy tomoni edi.

Bu dinda mehnat juda ulug'langanyu u faqatgina moddiy ne'matlar manbai bulmay, balki birinchi navbatda, ahloqiy sog'lom va ezgulik manbai bo'lgani uchun ham yuksak qadrlangan. Bu vaziyat muayyan shaklda boshqa dinlarda ham bor. Chunonchi, hadislarda bayon qilingan ota-ona va farzandlar, boshqa millat vakillari bilan bog'liq fikrlar, qarashlar ham bunga yorqin misol bo'la oladi.

**IBTIDOYIY DINLARNING SHAKLLARI.** Ibtidoiy odamlar hozirgi davrdagi singari to'la shakllangan diniy sistemaga ega bulmagan. Ularda boshlang'ich diniy tasavvurlargina bulgan, xolos. Dinning ana shunday ibtidoiy shakllari urug'chilik tuzumi shakllanayotgan davrda paydo bulgan.

Ibtidoiy odamlarning diniy e'tiqodlari totemizm, animizm, fetishizm, shomonliq magiya(sehrgarlik) shakllarida tarqalgan; ularning elementlarim hozirgi zamon dinlarida ham uchraydi.

**T O T Y E M I Z M** - hindlar tilidagi «O totem»(uning urug'i) degan so'zdan kelib chiqqan. Totemizm ibtidoiy g'oyat sodda diniy e'tiqodning bir turi bo'lib, qadimgi zamondagi urug'-qabila a'zolarining muayyan bir hayvon, o'simlik bilan g'ayri-tabiiy aloqasi, yaqinligi, qon qarindoshligi bo'lgan deb, bu hayvon va o'simliklarni muqaddaslashtirishdan iboratdir. Totemizmning muayyan kishilar guruhining tabiat, binobarin, tashqi muhit bilan bog'liqligini ifodalovchi dastlabki shakllaridan edi. Har bir qabila yoki urug' o'z sharoitini hamda imkoniyatlarini ko'zda tutib, ba'zi hayvonlarni ovlar va ular haqida yetarli ma'lumotlarga ega edi. Bunday hayvonlarni yaqindan bilish ularning urug' bilan yaqinligi yoki qon-qarindoshligi bo'lsa keraq degan tasavvurni keltirib chiqargan. Natijada ba'zi hayvonlar, keyinchalik esa o'simlikning ba'zi navlari ham muayyan urug' a'zolarining ajdodi – totemidir, degan tasavvur shakllanishiga olib kelgan. Shu boisdan keyinchalik urug' a'zolari totemning «yordamiga» ko'z tikkanlar, uni muqaddaslashtirib, o'z homiylari deb hisoblaganlar, sehr yo'li bilan unga ta'sir qilishga uringanlar. Totemga sajda qilingan, u himoya qilingan, e'zozlangan, uni otib o'ldirish, iste'mol qilish man etilgan. Faqat ayrim hollarda, ya'ni tantanali kunlarda totem hisoblangan hayvon yoki o'simlikni maxsus rasm-rusumga rioya qilingan holda iste'mol kilish mumkin bulgan. Urug' a'zolarida shundagina totemning kuch-quvvati kishilarga o'tadi va u kelgusida ham urug'ning homiysi bo'lib qoladi degan tasavvur bulgan.

Totemizm e'tiqodlari tub avstriyaliklarda keng saqlanganligini ularning nomlaridan payqash mumkin. Ular urug'larni konkret hayvonlar (kenguru, oq ho'kiz, qora ho'kiz kabi ayrim o'simliklar) nomi bilan ataganlar.



Totemizning elementlarini hozirgi dinlarda ham ko'rish mumkin. Masalan, hinduizm dinida fil, sigir, maymun, ilon kabilar muqaddas hayvonlar hisoblangan. O'zbeklarda qaldirg'och, musicha, laylaq ko'k qarg'ani muqaddas qushlar deb e'zozlash ham totemizmning ko'rinishlaridan biridir. Markaziy Osiyo xalqlarida, shu jumladan o'zbeklarda muchalga qarab vaqt xisobini chiqarish totem e'tiqodi bilan bog'liqdir. Masalan, ota-bobolarimizda odamlarning yoshini ya'ni tug'ilgan kundan boshlab qancha yashaganligini muchal orqali, muayyan hayvon nomlari bilan atalgan yil hisobidan keltirib chiqarish odati bo'lgan.

Muchal mo'g'ul, xitoy va butun turkiy xalqlarda keng talqalgan yil hisobi bo'lib, unda yil oylari 12 hayvon nomi bilan ataladi: sichqon (mush), mol (gav), yo'lbars (palang), quyon (xargusht), baliq (naxang), ilon (mor), ot (asp), qo'y (go'sfand), maymun (hamduna), tovuq (murg'), to'ng'iz (xo'k) shular jumlasiga kiritilgan.

**ANIMIZM** - (lotincha – animus – jon, ruh demakdir). qadimgi zamon dinlaridan biri, kishi ruhining mavjudligiga ishonishdan iborat. Animizm tabiatdagi buyumlarni ilohiylashtiradi, har bir jismda ruh bor, tanadan tashqarida ham jon bor, deb hisoblanadi.

Animistik tasavvurlar barcha xalqlar tarixidagi dinlarda jon va ruh haqidagi tushunchalarning shakllanishida ma'lum rol o'ynab kelgan. Animizm har bir kishida uning hayoti va ongining manbai bo'lgan jon bor, deb talqin qilgan. Dastlabki animistik tasavvur jonni soya yoki nafas bilan aynan, deb bilar edi. Masalan, Shimoliy Amerika xalqlarida soya bilan jon, qadimgi arablarda jon bilan qon, Grenlandiyada esa nafas olish bilan jon bitta nom bilan ataladi. Animizm odamda olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, predmet va hodisalar xususiyatlarini chuqur o'rganish, jon va ruhlarning tirik odamlar singari qobiliyatga ega degan fikrlar paydo bo'lishi munosabati bilan tarkib topgan. Shu davrda jonning o'lmasligi haqidagi tasavvur paydo bo'lgan. Chunki qadimgi odamlar o'z tanalarining to'zilishi to'g'risida to'liq bir tushunchaga ega bo'lmay, hattoki uyqu va tush ko'rishining sabablarini ham izohlay olmaganlar. Shundan sung ibtidoiy odamlar inson tanasini boshqaradigan qandaydir alohida bir kuch bo'lib, odam o'lgandan so'ng u kuch, ya'ni jon tanadan chiqib ketadi degan tasavvur hosil bulgan. Shuning uchun ular o'zlari bilan bir qatorda hayvon, o'simlik hatto mehnat qurollari, keyinchalik suv, o'rmon, momaqaldiroq va boshqalarda ham jon bor, degan tasavvurlarni keltirib chiqarganlar. Buni fanda gilozoizi deb ataydilar.

Jon va ruhlarga ishonish barcha dinlarga xosdir. Dindorlarning fikricha, jon barcha kishilarda bo'lib, xudo eng oliy ruh xisoblanadi. Farishta, shayton kabilar haqidagi tasavvurlar o'z mohiyatiga ko'ra murakkablashtirilgan animizmdir. Odam o'lgandan so'ng tanadan chiqib ketadigan jon bor, degan tasavvur chuqurlasha borgan. Demaq odam o'lganda jon chiqib ketib, yashay berar ekan, uning o'zi abadiy yashaydi degan tushuncha paydo bo'lgan. Abadiy ruh to'g'risidagi tasavvur ana shu yo'sinda shakllangan. Ruhlarga ishonish arvohlarga ishonishni keltirib chiqargan.

O'zbeklarda arvohlar hahidagi tasavvurlar, ularni eslab payshanba oqshomi arafasida chiroq eqish, qabrstonlarga borib Qur'on suralaridan o'qish animizmga bo'lgan e'tiqodning shaklidir.

**F Y E T I S H I Z M** - (fetish – fransuz tilidagi «fetiko» - yasalgan tumor, but, sanam degan so'zlardan olingan) moddiy buyumlarda g'ayritabiiy xususiyatlar borligiga ishonib, jonsiz narsalarga sig'inishdir. Ibtidoiy odam ongida har xil moddiy buyumlar – tog', qoya tosh, daraxt, keyinchalik turli hayvonlarning suyagi, pati, tumor, sanam va hokazolarda g'ayritabiiy kuchlar bor, degan tasavvur paydo bulgan. O'zlari vujudga keltirgan bunday kuchlarga o'zlari sig'ina boshlaganlar. Ibtidoiy din shakllaridan biri bo'lgan fetishizm barcha halqlarda diniy tasavvurlar shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Fetishizm politeistik (kup xudolik), hatto monoteistik (yakka xudolik) dinlarida hozirgacha saqlanib kelmoqda. Masalan, xristianlarda krestga (butga) sig'inish, islomda esa turli o'simlik turlarini – sedana, ko'ztikan, qalampirmunchoq, achchiq qalampir, isiriq, chilonjiyda, daraxtlardan – yong'oq, chinor, archa va boshqalar muqaddaslashtirilib, boshqa buyumlarga, shu jumladan odamlarga ta'siri yoki yordami bo'lishi mumkin degan tasavvur paydo bo'lgan. Bunday xususiyatni tog'-toshlarga, turli buyumlarga ham xos degan g'ayritabiiy fikrlar shakllangan.

Fetishizm diniy ibodatning ajralmas qismidir. Hozirgi vaqtda ba'zi soddadil, mutaassiblarning turli tumor, ko'zmunchoq va hokazolarni taqib yurishlari, daraxtlarga latta-puttalarni osishi, is chiqarishi shunday jismlarni ilohiylashtirish, ularning mo'jizaviy kuchiga ishonish fetishizmning diniy e'tiqoddagi eng xarakterli ko'rinishi va qoldig'idir.

**S H O M O N I Z M** - ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilishi davrida paydo bo'lgan animistik e'tiqod va ibodatning keng doirasiga kiradigan qadimgi diniy e'tiqodlardan biri. Uning o'ziga xos xususiyati – kishilar orasida turli ruhlarni munosabatda bo'la oladigan shomonlar qobiliyatiga ishonishdir. Shomonlarga, shuningdek kelajakni oldin aytib berish, kasalni davolash, o'lganlarni oxiratga uzatish, tabiatga xoxlagan

o'zgarishlar qilish kabi xususiyatlar taqaladi. O'tmishda shomonlarning ruh bilan aloqasi shomon do'mbirasi yoki mo"jizaviy musiqa ijrosida turli rasm-rusmlarni bajarish jarayonida jazavasi tutib, holdan toygancha bajarilgan. Shomonizm o'tmish dinlar sarqiti sifatida ba'zi hollarda uchrab turadi.

**M A G I YA** (sehrgarlik) - insonga, hayvonga yoki tabiat hodisalariga g'ayritabiiy yo'l bilan ta'sir ko'rsatish maqsadida bajariladigan xatti-harakatdir.

Sehrgarlik xarakatining shakllari turlicha bo'lib, ular turmushning xar hil sohalarida qullanilgan. Muhabbat magiyasi, davolash magiyasi, ishlab chiharish magiyasi, dushmani yengish magiyasi kabi sehrgarlik ibodat va harakatlar ibtidoiy odamlar hayotida alohida o'rin egallagan, ya'ni ular tirikchilikka kerak bo'lgan narsalarni topishdan oldin shu buyum yoki xodisaga bog'liq bo'lgan magik xarakatlarni bajarganlar.

Ibtidoiy jamoa ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining darajasi pastligi, kishilar hayotining urug' va qabila munosabatlari tor doirasi bilan cheklanganligi, tabiat kuchlari oldidagi ojizlik dinning ilk shakllarida o'z in'ikosini topgan. Bu ojizlik ibtidoiy odamning sodda, yuzaki tasavvurlariga asoslangan soxta, sehrgarlik usullarini qullanishga majbur etgan. Ojizlik qadimgi odamlarning har doim mu'jizaga ishonish bilan xayoldagina maqsadga erishishiga madad bergan.

Ibtidoiy dinlardagi xayoliy in'ikos mahsuli bo'lgan tog', suv, bo'ron, quyosh, momaqaldiroq xudosi kabi tasavvurlar turli-tuman bulsa-da, ular oliy va past tabaqalarga ajratilgan emas. Bunday ajratish jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida o'tilgandan so'ng yuz bera boshladi.

**O'RTA OSIYO XALQLARI TARIXIDA DIN.** Markaziy Osiyo xalqlari shakllanish tarixining murakkab va o'ziga xos tomonlari mavjuddir. Bu vaziyat ularning diniy e'tiqodlarida ham o'z aksini topgan. Bu tarixiy jarayonning mazmunini dinning qadimgi shakllari va elementlari, zardushtiylik monixeylik buddizm, xristianlik yahudiylik va islomdan tashkil topgan dinlarning tarixi tashkil qiladi. qayd qilingan bu dinlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixida oldinma-кетин o'rin olgan.

Bu hudud xalqlarining dastlabki manzilgohlari Farg'ona vodiysi tosh davrida, ya'ni eramizgacha bo'lgan 1 mln. – 500 minginchi yillarda vujudga kela boshlagan. Quyi paleolit davridayoq (eramizgacha bo'lgan 10 ming yillar) bu yerlarda Teshiktosh, Sherobod va boshqa makonlar) ma'naviy madaniyatini shakllanganligini ifoda etuvchi qoyalarga o'yib tasvirlangan rasmlarYU xaykaltaroshlikning eng oddiy turlari paydo bo'la boshlagandi. Ibtidoiy odamlar o'simlik va hayvonlarning ramziy ifodalarini xayoliy tarzda o'zaro biriktirgan, uyg'unlashtirgan; bu ilk badiiy asarlar voqelikni insonning real va hayoliy o'zlashtirishlarini o'zida ifoda etgan; shu bilan birga bular diniy qarashlarning ham vujudga kela boshlaganligini ham bildirgan. Keyinchaliq nealit davrida «muqaddas» hayvonlarga, ona-xudoga bag'ishlangan xaykallar, toat-ibodatlar, diniy urf-odatlar bilan bog'liq buyumlar paydo bula boshlagan.

Sharq xalqlarining qadimgi diniy qarashlarida samoviy jismlarga, hodisalarga itoat qilishlar ham keng o'rin olgan. Bu borada yulduzlar harakatiga keng o'rin berilgan. Markaziy Osiyo xalqlarining «Tangri»ga ishonishi, samoviy jism va hodisalarni muqaddaslashtirishlar bilan bog'liq qadimgi bir qancha diniy tasavvurlarning o'zaro uyg'unlashuvining natijasidir. Ko'pgina turkiy xalqlarda Tangri xudo sifatida osmonga, yerga, oyga nisbatan ham qo'llanilgan. Bu vaziyat osmon, yer, suv, tog' xudolarini u davrlarda bir-biridan ajratilmaganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlari orasida ajdodlar ruhlariga sig'inishlar, ulardan madadlar kutishlar, yer, inson salomatligi uchun foydali bo'lgan chashma va buloqlarni muqaddaslashtirishlar, ular bilan bog'liq qurbonliklar qilishlar hanuzgacha uchrab turadi. Tog' balandliklari, dovonlari, so'qmoqlari bilan bog'liq ruhlar eng kuchli va qudratli ruhlar hisoblangan. Ular sharafiga bag'ishlangan tosh buyumlari, muqaddas tepaliklar, sun'iy to'siqlar, ayrim hollarda esa xom g'ishtlardan qurilgan gumbaz tom bilan yopilgan maxsus inshootlar barpo qilingan. Odatda bular atrofiga tog' echki va quylarning shohlari terib qo'yilgan, uzun tayoqlarga bir tutam jun, latta, paxta va yovvoyi qo'toslarning dumlari osib qo'yilgan. Hozirgi davrda ham bunday «muqaddas joylar»da, garchi hech kim dafn qilinmagan bo'lsa ham, mozorlar deb atalaveradi. Bular islom bilan bog'liq marosimchilik toat-ibodatlarining tarkibiy qismiga aylanib qolgan. Dinning qadimiy shakllariga ona xudo (Onaxit) bilan bog'liq tasavvurlar ham kiradi. Ona xudo hosildorlikning, mo'l-ko'lchilikning ramziy ifodasi, oila o'chog'ini, yangi yosh avlodning homiysi ham xisoblangan. O'zbeklardagi Anbar ona, qirg'izlardagi Umoy enelar shular jumlasiga mansubdir. Dehqonlarga «Bobo dehqon» haqidagi tasavvur ham shular qatoriga kiradi.

O'rta Osiyo xalqlarining ilk qarashlari tarixi totemistik qarashlar bilan bog'liqdir. Bu qarashlar asosan yirtqichlarni muqaddaslashtirish orqali namoyon bo'ladi. Muayyan insonlar guruhlar hayvon turidan kelib chiqqan deb faraz qilish totemistik qarashlarning asosiy mazmunidir. Masalan, it, buri, kiyik yoki bug'u, burgutlar turkiy xalqlarning bosh totemlari hisoblangan. Ular muayyan urug'larning asoschisi va homiysi

deb bilingan. Markaziy Osiyo xalqlarining ilk diniy qarashlarida tuya va otlarni muqaddaslashtirish keng o'rin olgan. Bu jarayon eramizdan oldingi davrlarda kuchmanchilik turmush tarzi va u bilan bog'liq xujalik ishlarining shakllanishi tufayli yanada rivojlangan. Eramizning III-IV asrlaridan boshlab 300 yildan kuproq davr mobaynida qadimgi Buxoroda zarb etilgan tangalarda, garchi turli-tuman ko'rinishlarda bo'lsa ham, tuyaning tasvirlari chop etilgan. Markaziy Osiyo xalqlarining diniy qarashlarida bunday xayvon shakllaridagi muqaddaslashtirishlarning g'oldiqlari uzoq davrlar mobaynida saqlanib qolgan.

Fetishizm, animizm va boshqa shu kabilardan iborat bo'lgan qadimgi xalqlarning ilk diniy qarashlarni urug'chilik tuzumining yemirilishi va uning o'rnida sinfiy tabaqaviy jamiyat tashkil topishi jarayonida o'zgarib borgan. Ovchilik bilan bog'liq sehrgarlik afsungarlik va totemistik xislatlarga ega bo'lgan qarash va harakatlar, keyinchalik ruhlar yoki shaytonlar haqidagi tasavvurlarga, hamma narsa va hodisalarni, odamlarni ikkilantirishga, ya'ni bir-biriga nisbatan mustaqil moddiy va ruhiy tomonlari bor degan qarashlarni vujudga keltirgan.

Kishilik jamiyatining ilk bosqichlarida; toat-ibodatlar bilan bog'liq ijtimoiy hayotda jamoaning, urug'ining hamma a'zolari bir xil shakllarda qatnashganlar. Chunki bu bosqichlarda urug'dosh va qabiladoshlar orasida ijtimoiy tenglik hukm surgan. Keyinchalik urug'chilik-qabilachilik tuzumining yemirilish davrida, mas'ul kishilar uchun maxsus joylar, ruhoniylkni kasb-hunar qilib olgan kishilar toifasiga (kohinlar, sehrgarlar va boshqalar) vujudga kelgan.

Diniy tasavvurlarning ilk shakllari Markaziy Osiyo xalqlarining keyingi diniy qarashlarining tarkibiy qismlarida tarixiy sharoitlar ta'sirida o'zgargan xolda saqlangan: ularning san'ati, madaniyati va turmushiga ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan.

#### **Mustaqil ta'lim uchun adabiyotlar :**

1. Karimov I.A. Oллоh qalbimizda, yuragimizda.-T.: O'zbekiston, 1999.
2. Mustaqillik izohli lug'ati.-T.: «Fan», 1998, 53-54, 74-75, 155-157 betlar.
3. Islom. Spravochnik.-T.: 1989.
4. Dinshunoslik asoslari.-T.: O'zbekiston, 1995, 11-19 betlar.

### 3-Mavzu. MILLIY DINLAR.

#### Reja:

1. Milliy dinlar tushunchasi.
2. Hinduizm, jaynizm, sikkizm.
3. Konfusiychilik sinitizm.
4. Iudaizm.
5. Zardushtiylik.

**Milliy dinlar tushunchasi.** Kishilik jamiyati tarixida din shakllari turli-tuman bulgan. Ammo har qanday din muayyan, konkret tarixiy sharoit va ijtimoiy munosabatlarga muvofiq holda paydo bo'lgan, o'zgartirgan hamda rivojlangan.

Din shakllarini shartli ravishda uchta asosiy guruhga bulish mumkin: urug'-qabila dinlari, milliy dinlar va jahon dinlari.

Urug'-qabila dinlarida kishilarning tabiat bilan bo'lgan munosabatlari, ishlab chiqarishga oid faoliyatlari (ovlash, ovqat izlash va to'plash) bilan bir vaqtda ularning ibtidoiy tashkilotchilik xususiyatlari ham aks etgan. Urug'chilikning ilk davrlarida tabiat diniy e'tiqodning asosiy ob'yekti hisoblangan. O'sha davr kishilari qaysi geografik mintaqada yashashlari va qanday turdagi mehnat bilan shug'ullanishlariga bog'liq holda buyum va xodisalarning turli jihatlarini ilohiylashtirganlar. Masalan, ov bilan shug'ullanuvchi qabilalar uchun hayvonlarning turli zotlariga sig'inish, dehqonchilikning qoyat sodda shakllari bilan shug'ullanuvchi uchun esa o'simliklar va samoviy jismlarga sig'inganlar.

Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilgan va sinfiy tabaqalanish boshlangan davrda xudolar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi ular bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlarda ham muayyan o'zgarishlar bo'lishiga olib kelgan. Dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qadimiy xalqlarda halok bo'lib, qayta jonlanadigan mavjudot xudolariga sig'inish, yer, suv, samoviy jismlarni ilohiylashtirish, shular bilan bog'liq bo'lgan qurbonlik qilish marosimlari paydo bo'lgan.

Ammo ibtidoiy jamoa tuzumi davrida din jiddiy o'zgarishlarga uchragan bo'lsa ham, muayyan bir tizimga aylana olmagan. Urug'-qabila dinlariga xos diniy ibodat-marosimlar Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika va Okeaniyada yashovchi bir qancha xalqlarda hozirgacha mavjuddir. Shuningdek bu din shakllarining elementlari hozirgi zamon milliy va jahon dinlarida ham uchraydi.

Milliy dinlar deb, odatda bir millatga mansub xalqlar e'tiqod qiladigan dinlar tushuniladi. Bunday dinlar shakllanishining dastlabki va eng sunggi davrlarini bir-biridan farqlash lozim.. dastlabki milliy dinlar quldorlik jamiyatida vujudga kelgan bo'lib, odatda, politeistik ya'ni kup xudolik dinlari bo'lgan. Masalan, qadimgi grek dini ko'p xudolikning o'zginasidir. Zevs-pantion (qadimgi grek tilida – bosh xudo) hisoblanib, bir ukasi dengiz xudosi, ikkinchi ukasi - yer osti podsholigining xudosi hisoblanar edi. Shuningdek muhabbat va go'zallik ma'budasi, urush xudosi, quyosh xudosi va san'at homiysi va boshqa yana bir qancha xudolar bo'lgan. Xuddi shunga o'xshash qadimgi yaxudiyalar dinning xudosi – Yaxve ham ko'p xudolilikning yaqqol namunasi.

quldorlik jamiyatidagi dastlabki milliy dinlarning o'ziga xos yana bir xususiyati oxirat to'g'risidagi tasavvurning paydo bo'lishi va unga ishonishdir. Ammo bu davrda bunday tasavvurlar hali to'la shakllanmagan edi. Ular keyingi davrlarda rivojlangan. Bu davrda qurbonlik qilish keng rasm bo'lib hatto majburiy marosimlardan biri hisoblanar edi. Xudolar yo'lida meva-cheva, noz-ne'matlardan tortib, uy hayvonlarining barcha turlarigacha, qadim zamonlarda esa hatto odamlar ham qurbon qilinardi. Milliy dinlar rivojlanishining sunggi davrlariga kelib odamlar o'rniga hayvonlar qurbon qilina boshlangan. Shu bilan birga oxirat haqidagi tasavvurlar keng targ'ib qilinardi.

Milliy dinlar elat-millat dinlari deb ham yuritiladi. Chunki ular urug'-qabila dinlaridan farqli ravishda sinfiy jamiyat qaror topishi va shakllanishi davrida vujudga kelgan va rivojlangan. Binobarin, ular avvalo elatning, sungra millatning shakllanishini uzlarida aks ettirgan.

Milliy dinlarda tasavvur qilingan xudolar milliy xudolar hisoblanib, ibodat-marosimlar asosan muayyan elat yoki millatnikigagina mos tushar edi. Binobarin, bu xildagi qadimgi dinlar milliy davlat xarakterida bo'lishi bilan boshqa din shakllaridan ajralib turgan.

Eng sunggi davrning milliy dinlariga quyidagilar kiradi: hinduizm, sikkizm, daosizm, konfusiychilik, sintoizm va iudaizm (yahudiylilik).

**H I N D U I Z M** - hozirgi Hindistonda tarqalgan din shaklidir. U eramizdan oldingi dinlar – braxmanizm va vedizmning evolyusiyasi natijasida eramizning birinchi ming yilligi o'rtalariga kelib shakllangan. Shu davrdan boshlab hinduizm hukmron dinga aylangan. Xozirgi vaqtda Hindiston aholisining 80 dan ortiqroq foizi hinduizmga e'tiqod qiladi. Hinduizm sinkretik din bo'lib, turli e'tiqodlar, urf-odatlar va marosimlar, maxalliy diniy e'tiqod va qarashlarning murakkab kompleksi sifatida voqe bo'lib, urug'-qabila dinlari elementlarini, braxmanizm, buddizm va jaynizmning asosiy g'oyalarini qamrab olgan. Hinduizm o'zining yagona tashkilotiga ega emas.

Hinduizm insonning tug'ilganidan to vafot etishigacha bo'lgan huquq va vazifalarini belgilab va cheklab qo'yadi. Shuning uchun unda marosimchilikka keng o'rin berilgan. Hinduizm kishilarning ijtimoiy tengsizligini oqlaydi va abadiylashtiradi, ruhning o'lmasligi va ko'chib aylanib yurishi (sansara ta'limoti), qayta tug'ilishi (karma ta'limoti), gunoh ishlar uchun javob berishi, jannat va do'zax kabi aqidalarni o'z ichiga oladi.

Hinduizm politeistik din bo'lib, unda ko'p xudolilik elementlari saqlangan. Dindorlar tasavvurida bosh xudo Braxman Koinotning ijodkori va yaratuvchisidir. Bundan tashqari hindlar Vishnu va Shiva xudolariga ham e'tiqod qiladilar. Hinduizm ta'limotida xudoning uch xil ko'rinishida tasavvur etilishi (trimurti) eng oliy, ilohiy, yakka xudoning uch xususiyati, deb talqin qilinadi. Bu xristianlikdagi uch yuzli xudoga uxshaydi.

Hinduizm ta'limoticha, olam paydo bo'lib, yemirilib, yuq bo'lib turadi, ya'ni olamning yashashi progressiv emas, aksincha, regressiv xarakterga ega; har bir davr olamning yuksak rivojlangan cho'qqisidan boshlanib, uning inqirozga uchrashi bilan tugaydi, insonlar gunohga botib ketgach, olam yuqoladi.

Hinduizm jamiyatning tabaqalarga bo'linishini aks ettiruvchi savob va jazo (karma) g'oyasiga asosan, inson hayotida 4 ta asosiy maqsad bor, deb da'vo qilinadi: 1) dxarma – oila va jamiyatda diniy talablarni bajarish; 2) artxa – foydali ishlar qilish, zarur materiallarga ega bo'lish; 3) kama muhabbat tuyg'ulariga erishish, his-tuyg'ularni qondirish; 4) moksha – o'zgarish zanjiridan butunlay xalos bo'lish.

Vishnuizm va shivaizm oqimlarining vakillari o'z xudolariga bag'ishlab minglab katta-kichik ibodatxonalar qurganlar. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar «muqaddas joylar», daryolar va boshqa xar hil narsalarga sig'inadilar. Hind xalki orasida yovuz ruhlarga e'tiqod qiltsh keng tarqalgan. Ular turli hayvonlar – hukiz, sigir, maymun va ilon kabilarga ham sig'inadilar, ularni muqaddaslashtiradilar.

Hind xalqi uchun Gang daryosi muqaddas hisoblanadi. Hinduizm diniga e'tiqod qiluvchilar Banoras shahrini ham muqaddaslashtirishgan. Rivoyatlarga ko'ra, go'yo Gang daryosi qirg'og'ida kishi hayotdan ko'z yumsa, narigi dunyodagi hayoti ancha yengillashar, jannatga yul olar degan diniy fikr bor.

Hinduizmning xarakterli xususiyatlari, yuqorida qayd qilingandeq jamiyatdagi kishilarni tabaqalarga – kastalarga ajratishdir. Hozirgi paytda kishilarni tabaqalarga bo'lish ta'qiqlanadi. Hinduizmning «muqaddas» yozuvlariga Veda, Upanishadlar kiradi. Keyinchalik «Maxabxarata» va «Ramayana» dostoniga o'xshash, diniy marosimlar va urf-odatlar sig'dirilgan har xil afsona, rivoyat, hikmatli suzlar, epik dostonlar paydo bo'la boshladi.

Hozirgi vaqtda hinduizm Hindistondan tashqari Nepal, Shri Lanka, Bangladesh, Gavana va hindlar yashaydigan boshqa hududlarda tarqalgan.

**J A Y N I Z M** - dinning asoschisi sifatida e'tiqod qilinadigan yarim afsonaviy payg'ambar – Jina nomi bilan atalgan bo'lib, eramizdan oldingi VI asrda paydo bo'lgan. Jaynizm braxmanizmdagi kishilarni tabaqalarga ajratish sistemasiga qarshi paydo bo'lgan.

Uning ta'limotida 24 payg'ambarga, ayniqsa oxirgi payg'ambar – Vardxamana Maxavariga sig'inish talab etiladi. Jaynizmida jonning o'lmasligiga, uning bir moddiy shakldan ikkinchisiga ko'chib yurishiga ishonish markaziy o'rinni egallaydi.

Inson yer yuzida qiladigan har qanday xarakat va ish ana shu jon bilan tan birligida sodir bo'ladi deb qarash. Jonni gunohdan saqlash uchun hayotda to'g'ri yo'lni tutmoq, ya'ni din targ'ib qiladigan barcha ta'limotlarga, talablarga so'zsiz itoat etish va e'tiqod qilish zarur. Jaynizmida digambarlar va shvetambarlar nomli yo'nalishi ham mavjud.



**S I K X I Z M** - (sikx – o'quvchi demakdir) XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Shimoliy-G'arbiy Hindistonda hinduizmga qarshi yo'nalish sifatida paydo bo'lgan. U mayda xunarmand va savdogarlarningfeodal zulm va jamiyatning tabaqalanishiga qarshiligini o'zida aks ettirgan.

XVI asrga kelib sikxlar jamoasiga dehqonlar ham qo'shila boshlaganlar va bu antifeodal harakatni quvvatlaganlaryu sikxizm monoteistik din hisoblanib, jamoa bo'lib birgalikda ibodat qilishni inkor etadi, ruhoniylkni tan olmaydi. Moddiy olamdagi barcha hodisalar sikxizm ta'limoticha, yagona xudo – oliy kuchning ijodi, insonlar esa xudo oldida teng, deb hisoblanadi. Bu din ta'limoti «Grantx Sohib» (Janob Kitob) nomli kitobda izohlangan. Sikxizm ta'limotiga e'tiqod qiladiganlar hozirgi kunda kam uchraydi.

**D a o s i z m** - Eramizdan oldingi IV-III asrlarda Xitoyda paydo bo'lgan yarim falsafiy. Yarim diniy, sinkretik ta'limot. Uning tub g'oyasi moddiy olamdagi buyum va hodisalar turli-tumanligining mohiyatini ta'minlovchi, ularning mavjudlik sababi va manbaini tashkil etuvchi «dao» tug'risidagi tasavvurlardan iborat. Eramizning II asriga kelib bu ta'limot asosida diniy qarashlar ham shakllangan va u daosizm nomini olgan. Bu din qadimgi dunyo faylasufi Dao Szi nomi bilan bog'liq «Dao de szin» kitobidagi ta'limotga asoslangan.

Daosizm da moddiy olam haqida sodda dialektika elementlari ham mavjud. U dunyodagi barcha buyum va hodisalar o'zgarishda, harakatda, ba'zi narsalar tiklansa, boshqalari so'nadi, deb g'oyat to'g'ri ta'lim beradi.

Ammo kohinlar bu ta'limot asosiga diniy g'oyalarni qo'yib, g'oyat ko'p ruh va xudolarga ibodat qilishdan iborat diniy tizimni yaratdilar. Bu din kohinlari «daos» nomi bilan yuritilgan. Ular uchun rohiblik darveshlik qilishdan tashqariyayayaya. Oila qurish ham man etilmagan.

Shu tariqa daosizm da olamni boshqaruvchi uch xudolikdan iborat xudolar pantioni - qarorgohi (shan di, Dao szi, Pan gu) paydo bo'lgan.

Daosizm dastlab mulkdorlar hokimiyatiga qarshi bo'lib, kambag'allar manfaatini ifodalagan. Keyinchalik esa u hukmron sinflarning g'oyaviy quroliga aylangan. Man'chjurlar sulolasi Sin xukmronligi davrida (1644-1911) daosizm diniy ta'limoti inqirozga uchragan. Xozirgi vaqtda daosizm diniga e'tiqod qiluvchilar juda kamchilikni tashkil etadi.

**KONFUSIYCHILIK.** Bu oqim qadimgi Xitoyda eramizdan avvalgi IV-V asrlarda paydo bo'lgan. Keyinchalik diniy mazmun kasb etgan bu ta'limotga ma'rifatparvar Konfusiy (Kun-Szi, 551-479 yillar) asos solgan.

Konfusiychilik ta'limotida dunyoqarash masalalariga emas, balki, ijtimoiy axloq muammolariga kuprq o'rin berilgan. Unda «Axloqli kishi» bo'lish, donishmandlardan ta'lim olish haqidagi g'oyalar ilgari surilgan. Bu ta'limotga ko'ra jamiyatda hukm surgan «jen» insonparvarlikka rioya qilmog'i lozim. Bu esa kamtariq ongliliq vazminliq mehribonliq odilliq saxiylikdan iborat. Inson «jen» qonunini o'zlashtirish uchun jamiyatda tutgan o'rniga qarab «li» me'yorlarini bajarishi talab etiladi. An'analar, urf-odatlar shunga muvofiq belgilanadi. Past tabaqa xalqning «axloqiy ulug'» boshliqlarga itoat qilishi zarurligi shu bilan oqlangan.

Konfusiychilikda kishilarni yuqori va quyi tabaqalarga ajratishda ularning boyligi yoki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy rol uynamagan; bunda yuksak axloqiy fazilatning xizmati katta deb hisoblangan. Biroq bu xukmron va qaram tabaqalarga ajratish butunlay inkor etiladi, degan gap emas. Konfusiyning fikricha, tabaqalarga ajratish tartibi eski an'analarga asoslanishi va uni davlat boshqarishi lozim.

Eramizning boshida konfusiylikka diniy g'oyalar kiritilgan va u diniy ta'limot sifatida talqin qilina boshlangan. Konfusiyning qabri yoniga ko'plab ibodatxonalar qurilgan, unga qurbonliklar qilina boshlangan. Shu tariqa Konfusiy xudo darajasiga ko'tarila boshlangan. XX asr boshlariga kelib, Konfusiy sharafiga qurilgan ibodatxonalar soni tobora ko'paya bordi.

Konfusiylkda oliy ilohiy kuch osmon hisoblanib, Xitoy xukmroni esa xudolar bilan insonlar o'rtasidagi vositachi, «osmon o'g'li», deb talqin qilina boshlagan. Xitoy imperatorlarini hatto xudo darajasiga ko'tarishgacha borib yetilgan.

Konfusiylkda ajdodlarga va ruhlarga sig'inish muhim frin egallaydi. Shu boisdan qurbonlik qilish, tug'ilish, oila qurish, dafn va boshqa marosimlar tantanali bajariladi.

Konfusiylkda kohinlar bo'lmagan, dastlabki davrlarda hech qanday sistemali ta'limot ham bo'lmagan. Keyinchalik bu ta'limotlar yaratilib, u hamma klassik qonunlari 13 kitobda, sharhi esa 40 jildda bayon qilingan. Bularning eng ahamiyat li qismi 9 ta kitobdan iborat.

Bular: «Sishu» (To'rt kitob) va «Uszin» (Besh kitob) dir. Bu qonunlar ham diniy «muqaddas», ham dunyoviy donishmandlik manbai hisoblanadi.

**SINTOIZM** (Sinto-xudolar yo'li demakdir). Yaponiyada keng tarqalgan, an'anaviy milliy xarakterdagi dinlardan biri. Bu din ilk feodalizm davrida (VI-VII asrlar) rivojlangan va urug'chilik qabilachilikka xos animistik va shomonlik marosimlari yig'indisidan iborat holda vujudga kelgan. Sintoizm ta'limotida Yaponiyada joriy etilgan ijtimoiy-siyosiy tartibning mustahkamligi va o'zgartirilishiga, quyosh tangrisi-Amaterasuning naslidan deb hisoblangan yapon imperatori-Mikado hokimiyatining ilohiyligiga ishonish, imperator ajdodlarini muqaddas deb tan olish, ajdodlar sharafiga tayinlangan oila-urug' marosimlarini bajarish kabilar asosiy o'rin egallaydi. Sintoizmning puxta ishlangan aqidalari yo'q. Diniy marosimlarni kannushlar deb ataladigan alohida koinlar ijro etadi. Kannushlik vazifasi nasldan-naslga o'tadi. Hozirgi vaqtda yaponlarning yarmida ko'pi Sintoizm bilan Buddizmni teng ko'rib, har ikkalasiga e'tiqod qiladilar; Hayotiy marosimlar-tug'ilish, nikoh kabilar Sintoizm ibodatxonlarida bajarilsa, dafn 'tish va marhumni xotirlash marosimlari buddaviylik ibodatxonalarida o'tkaziladi.

Sintoizm bilan buddaviylikning bir-biriga ta'siri kuchli. Sintoistlar buddaviylik dini uchun ibodatxonalar qurish bilan cheklanmadilar, balki o'rta asrlarga kelib sinto-budda qo'shma ibodatxonalari vujudga kela boshlagan. Sintoizmning o'ziga xos xususiyati o'zi targ'ib qilgan xudoga sig'inish, boshqa millat kishilarining bu dinga sig'inishini man etishdan iborat. Sintoistlarning muqaddas kitobi bo'lmagan, ammo ibodatxonalarda yozilgan diniy afsonalar uchray turadi. VIII asrga kelib og'zaki diniy afsonalar asosida «Kodziki» (Qadimgi ishlar to'g'risida yozuvlar) nomli diniy kitob paydo bo'ldi. Unda asosan imperatorlar sulolasining kelib chiqishi ilohiyashtirilgan.

1886 yildan to XX asrning 40 yillarigacha Sintoizm yaponiyaning davlat dini hisoblanar edi. Natijada dinning strukturasi ham o'zgarib boshladi, ilohiy ruhlar o'rniga imperator shaxsi ulug'landi. Sintoizmda milliy ibodatxonalar ko'plab qurildi. XIX asrning oxirlariga kelib mohiyatini yo'qota boshlagan Sintoizm 1945 yilda davlatdan ajratib tashlandi. Hozirgi paytda Sintoizm tarafdorlari unchalik ko'p emas, ammo uni zamonga moslashtirishga urinishlar davom etmoqda.

**IUDAIZM**-Eng qadimgi dinlardan bo'lib, eramizdan oldingi XIII asrda yaxudiylarning milliy dini sifatida vujudga kelgan. Uning paydo bo'lishi va umstaqil monoteistik din din sifatida maydonga chiqishi markazlashgan yahudiy davlatining tashkil topishi bilan uzviy bog'liqdir.

Hozirgi Falastin hududida qadimgi zamonlarda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan ko'chmanchi yahudiy qabilalari yashagan. Bu qabilalarda din sifatida animizm, magiya, fetishizm, sehrgarlik va turli o'simlik hamda hayvonlarga sig'inish hukmronlik qilgan. Yahudiy qabilalari o'zlarini muayyan hayvonlarning nomalari bilan ataganlar. Iudaizmning «muqaddas» kitoblar to'plamida hayvonlarni va o'simliklarni, tabiatdagi dahshatli, stixiyali kuchlarni, arvohlarni va boshqalarni e'zozlash izlari bor. Ruhoniylar iudaizmning obro'sini ko'tarish maqsadida yahudiylar «mumtoz xalq», unga dinni xudoning o'zi ato etgan, degan fikrni ilgari surardilar; hozir ham qisman. Buning isboti sifatida ular asrlar davomida jamiyatda sodir bo'lgan ulkan ijtimoiy o'zgarishlar iudaizm ta'limotiga hech qanday ta'sir ko'rsatmadi, u yagona milliy dinligicha qoldi, shuning uchun uning ijtimoiy va gneseologik ildizlari ham yo'q, deb jar solmoqdalar. Aslida esa yahudiy xalqining ijtimoiy – iqtisodiy sharoitiga muvofiq iudaizm, boshqa dinlar kabi, shakl va maxzmunini bir necha bor o'zgartirgan.

Iudaizm politeizmdan monoteizmga o'tguncha bir qancha tarixiy jarayonni boshdan kechirgan. Bu jarayon ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik jamiyatiga o'tguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mana shu tarixiy davrda yahudiy qabilalari ko'p xudolarga e'tiqod qilganlar. Har bir qabilaning, har bir urug', hatto shaharning o'z xudosi bo'lgan; moddiy olam hodisalarining har bir guruhi alohida xudoning nomi bilan bog'langan. «Sening shaharlaring qancha bo'lsa, xudolarning shahri ham shunchadir», deyiladi Tavrot yozuvlarida. Iudaizm mahalliy avliyolar hisoblanmish Iso (Iisus), Navin, Ibrohim (Avraam), Ishoq (Isaak), E'qub (Iakov), Yusuf (Iosif) va boshqalar. Bular boshqa dinlarda, jumladan islomda payg'ambar deb tan olingan.

Falastindagi Ruvim, Simon, Levin va Iuda singari eng mashhur qabilalar obro'si ko'tarila boshlagan. Bularning orasida Iuda qabilasi kuchli hisoblanib, obro'si juda oshib ketgan, uning xudosi Yaxve esa barcha xudolardan yuqori turuvchi yakka hukmron xudo sifatida qabul qilingan.

Ilohiyotchilar fikriga binoan, Bibliyaning birinchi besh kitobi bo'lmish Tavrot (aynan tarjimasida Qonun, Musoning besh kitobi) yahudiylarga yetkazish uchun Muso payg'ambarga xudo Yaxveining shaxsan o'zi Sinion tepaligida bergan. Bibliyaning boshqa qismlari esa (Qadimgi ahdga taalluqlisi) xudoning bevosita pand-nasihatlari ta'siri natijasida yahudiylarining boshqa turli payg'ambarlariga yuborilgan deb tushuniladi. Shunda qilib, Bibliyani shakllanishi uzoq davrni o'z ichiga oladi.

Hozirgi zamon iudaizmida isloh qilingan iudaizm bilan bir qatorda ortodoksial iudaizm (sof) fundamental iudaizm ham mavjuddir. Ortodoksial iudaizm Isroilda alohida mavqega ega bo'lib, rasmiy davlat dini hisoblanadi. Bunga XX asrda vujudga kelgan muhofazakor yo'nalishdagi iudaizm, uning mafkurachilari iudaizm va sionizm ittifoqining tarafdorlaridir. Markaziy Osiyoda yashayotgan yahudiy dindorlari orasida asosan ortodoksial shakldagi iudaizm mavjud va ular shartli ravishda etnik ko'rinishlar tartibiga muvofiq to'rt xil; yevropaliq buxoro, gro'zin, tog'li yoki tat yahudiylariga bo'linadi.

Bu joylardagi yahudiylarning asosiy qismi, keyinchalik ular Buxoro yahudiylari nomini olgan, chamasi, sosoniylar davrida Mavr va Eron orqali kirib kelgan bo'lsalar kerak.

**Z a r d u s h t i y l i k.** Zardushtiylik eng qadimgi dinlardan bo'lib, bu din eramizdan avvalgi VII-VI Asrlarda dastavval O'rta Osiyoda-Xorazm vohasida paydo bo'lgan. Uning payg'ambari Zardusht tarixiy shaxs edi. U mazdakiylik dinini isloh qilib, uning asosida yangi Yakkaxudolik dinini ijod etgan.

Zardushtiylik – ilgari diniy tasavvurlar va kup xudochilikka asoslangan diniy e'tiqodlarni takror Zardusht isloh qilishi oqibatida yuzaga kelgan dindir. Bu qadimiy din haqida bir-birini istisno etuvchi fikrlar hanuz davom etib keladi. Ko'p tadqiqotchilar Zardusht tarixiy shaxs bo'lib, milodgacha 589-512 yillarda yashab ijod etgan birinchi ilohiyotchi, faylasuf, tabiyotshunos va shoir ekanini e'tirof etadilar. Bu haqiqatga yaqindir.

Zardushtiylik p paydo bo'lgan vaqt quldorlik tuzumi endigina paydo bo'layotgan davr edi. U urug'-qabilachilik qabilachilik tuzumi yemirilib aholi qullar va quldorlarga bo'linayotgan davr bo'lgan. Bu din eng avval O'rta Osiyo, so'ng Eron, Ozorbayjonda qaror topgan edi.

Zardusht yashagan davrda o'troqlik hayoti afzalligi yaqqol namoyon bo'lgan. O'z davrining kohinlari, sehrgarlari va mo'tabar qariyalari bilan keng munozaralar olib borgan Zardusht xalqlarga tinch mehnat bilan shug'ullanish imkonini yaratish uchun kupxudolik e'tiqodlariga va otashparastlikka barham berib, yakkaxudolikka sig'inishni targ'ib etish deb bilgan va shu vazifani bajargan.

Zardushtiylik eradan avvalni VII-VI asrlarga xos bo'lgan din sifatida undan oldingi urug'-qabilachilik dinlari negizida paydo bulgan yakkaxudolik dini. U eramizning to VII-IX asrlargacha turli shaklda davom etib, so'ngra uning o'rnini islom egallagan. U dastavval Xorazm vohasida shakllanib, Yaqin va O'rta Sharqgacha tarqalib, ayrim asoratlari haligacha saqlanib kelmoqda.

Avesto faqat diniy manbagina emas, balki dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar, o'zi tarqalgan o'lkalar, elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy va ma'naviy qarashlari, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar haqidagi manba hamdir. Unda bayon etilgan asosiy g'oyalar diniy e'tiqodning ilk sodda bilimlari Zardusht degan payg'ambar nomi bilan bog'langan. U «Avesto»ning eng qadimiy qismi «Gat» (xat nomi)ni ijod etgan. «Avesto» tarkibiga kirgan bilim, ma'lumotlar qariyb milloddan avval 3000-yillik oxirlari va 2000-yillik boshlaridan to milodning boshlarigacha o'tgan davrda yuzaga kelgan; avloddan-avlodga og'zaki o'tib olingan, uning buqa terisiga yozilgan ko'p qismi yo'qolgan, yettidan bir qismi saqlangan. U milloddan avvalgi III asrda ashrakiylar sulolasi davrida to'plangan.

Zardushtiylik dini ta'limotini quyidagi uch tarixiy qismga bo'lish mumkin; 1. Eng qadimiy qismi miloddan avvalgi 3-ming yillikda vujudga kelgan Yashtlardir; ularda urug'chilik tuzumidagi e'tiqodlar, ko'p xudolik tasavvurlari tasvirlangan; 2. Gatlar deb atalgan qismidir. Bunda Axuramazda nomli xudo haqida fikrlar yozilgan; 3. Qadimiy ko'pxudolilik va keyingi yakkaxudolilik g'oyalari orasidagi kurash sharoitlarida eramizdan avvalgi V asrda har ikkisini kelishtirgan mazdahiylik dini shakllangan. «Avesto» bu dinning oxirgi va asosiy qismini bayon etgan. Zardushtiylikning asosiy g'oyalari olimdagi barcha tartiblar, ezgulik (yaxshilik) va yomonlikdagi, ziyo va zulmat, hayot va o'lim o'rtasidagi kurashga bog'liq; dunyodagi barcha ezguliklarni Ahuramazda, yomonliklarni Ahriman ifodalaydi; bu kurashda odam asosiy kuch va rolni o'ynaydi, u tanlash erkinligiga ega, u o'z g'ayrati bilan bu dunyoda adolat topishiga ta'sir eta oladigan kurashdir.

«Avesto» ning mukaddas kitoblarida kadimgi dunyo falsafasining 4 asoslari (substansiyasi) – tuproq, suv, havo, olov muqaddaslashtirilgan. Tuproq, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga ko'shilgan. Hatto marhumlarning murdalari yerni, suvni, havoni zaharlab ko'ymasliklari uchun ularning jasadlarini maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan. Oxuramazda «yerga yaxshi, mustahkam urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q», degan. Xudoning bu aytganiga amal qilish, 10 ming marta ibodat etish yoki yuzlab jonivorni qurbonlikka so'yishdan afzal hisoblangan. Ekin ekish yerdagi yovo'zlikka barham berish, hisoblangan. «Odam go'zalligi dehqondan, dehqonchilikdan, - deyilgan bashoratlarda, - kimki yerga urug' qadabdi, u odamiylikka iymon keltiradi, shu yo'lgina yagona haqiqat bo'lib, qolgani sarobdir. Zardushtiylikning vazmin, musiqa bilan uyg'unlashib ketgan dono o'g'itlari ona zaminga,

dehqonchilik chorvachilik hunarmandchilikka va vatanga, xalqqa ulug' muhabbat ruhi bilan uyg'unlashib ketgan. Bu hol unda diniy mazmunga qaraganda dunyoviy elementlar ko'p bo'lganidan dalolat beradi.

Zardushtiylikning barcha marosimlari, jumladan, Navro'z, Mehrjon bayramlari tantanalarida bu ruh ayniqsa ulkan qudrat bilan namoyon bo'lgan. Boychechakning chiqishi, lolaqizg'aldoqning ochilishi, bodomning gullashi, umuman bahor bilan birga tabiatning go'zallashib borishi ezgulik ruhining tantanasi bo'lib, ularning har biri katta shodiyonalikka sabab bo'lgan. Odamlar tabiatning bu go'zalliklarini muqaddas bilib, ularni xalq bayramlari va sayillariga aylantirib yuborganlar.

Zardushtiylikda diniy dasturlar haqidagi g'oyalar bilan birga real, dunyoviy, hozir ham foydali nasihat, tavsiya, cheklash, ta'qiqlash, rag'batlantirishga doir o'git va da'vatlar ko'p bo'lgan. Ulardan hozirgi mustaqilligimiz davrida ham foydalanish mumkin va lozim.

#### **Mustaqil ta'lim uchun adabiyotlar:**

1. Avesto tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi.-T.: - Sharq, 2001.
2. Yuldoshev J. Xasanov S. Avestoda axloqiy ta'limiy qarashlar.-T.: O'qqituvchi, 1992.
3. Isxoqov M.M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari. Til va adabiyot ta'lim. 1993, 2-son.
4. Boys M., Zoroastriyso': verovaniya i obo'chai. Izdaniye 2-ye Sankt-Peterburg, 1998
5. I.Jabborov, G.Dresyanskaya. «Duxi, svyato'e, bogi Sredney Azii»-T.: 1993.

#### 4. – Mavzu. B U D D A V I Y L I K.

R e j a :

1. Buddaviylikning paydo bo'lishi va tarqalishi.
2. Buddaviylik ta'limoti va uning mazmuni.
3. Buddaviylikning parchalanib ketishi.

**Buddaviylikning paydo bo'lishi va tarqalishi.** Buddaviylikning asoschisi miloddan avvalgi 1-ming yillikda yashagan Buddha hisoblangan. U tarixiy shaxs bo'lib, 80 yil yashagan. Uning xususida turli rivoyatlar mavjud. Uning nomi hind tilida nurlangan, oliy haqiqatga erishgan degan ma'noni anglatadi. Rivoyatlarga qaraganda, keng ma'noda ko'p marta ilohiy tug'ilishlar tufayli mutlaq barkamolikka erishgan; boshqalarga ham diniy najot yo'lini ko'rsata oladigan odam bo'lgan.

Tarixiy manbalarning dalolat berishicha buddaviylikning asoschisi shahzoda Sidxartadir. U vafot etgandan so'ng Buddha – «haqiqatga erishgan» deb atalgan; u ushbu oliy maqsadga erishish uchun Gautama urug'idan bo'lgan eng obro'li Shakya qabilasini tanlagan; ana shundan bu diniy rivoyatda Buddha-Gautama nomi keng tarqalgan. Diniy rivoyatlarga ko'ru Gautama hind qabilasi xukmdorlaridan birining ug'li bo'lib, u befarzand bo'lgan; ammo uning xotini g'oyibdan xomilador bo'lib, 45 yoshida o'g'il tuqqan; bola tug'ilganda mo'jiza yuz bergan: tabiiy hodisalar – yer qimirlab, chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumbirlab turgan; uning ovozi Koinotdagi ilohiy kuchlardan tashqari barcha tirik mavjudodlar ham eshitib turganlar; chaqaloqqa Sidxartaxa (topshiriqni bajaruvchi) deb nom qo'yganlar; U 7 kundan keyin yurib ketgan va gapira boshlagan.

Sidxartaxaning otasi o'g'lini din yuliga bag'ishlashga rozi bo'lmay, unga yaxshi ma'lumot bergan hamda yaxshi sharoitlarda tarbiyalagan va u hech qanday qiyinchilik ko'rmay o'sgan; o'spirinligidayoq o'zining donoligi, kuchliligi va epchilligi bilan hammani hayratga solar ekan. U bir cholga duch kelgan, kasal yotgan kishini, o'likni ko'rgandan so'ng xayotning mohiyati, maqsadi, og'irliklari, kasallik va o'lim haqida o'ylay boshlagan. Binobarin, hayotning behudaligini anglab, tarki dunyo qilgan, darvesh yo'lga kirgan; bu bilan u kishilar boshiga tushadigan kulfatlar, azob-uqubatlar sabablarining mohiyatiga tezroq yetib, ulardan qutulish yo'lini topmoqchi bo'lgan. Nihoyat, 36 yoshida «haqiqiy bilim»ni topganligini e'lon qilgan. Shundan so'ng u Buddha deb nom olgan («budda» so'zi ilohiy haqiqatga erishgan, degan ma'noni anglatadi). Shu tariqa o'ta ulug'vor haqiqat siri ochilgan, ular buddaviylik ta'limotiga asos qilib olgan.

Har qanday dinlar kabi buddaviylikning ham kelib chiqishi sababini xalqlarning yashash sharoiti va hayotidan, muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlardan izlash va topish lozim.

qadimgi Hindistonda buddaviylik shakllangan qadar murakkab sinfiy munosabatlar mavjud edi. Kishilar oliy, o'rta va quyi tabaqalarga ajratilib, oliyga braxmanlar, xarbiylar, o'rta tabaqaga – dehqanlar, eng quyi tabaqaga oddiy xalq xizmatkor, cho'rilar kiritilar edi.

Buddaviylik quldorlik jamiyatida braxmanlik mazhablaridan biri sifatida paydo bo'lgan. U braxmanlikni jonning ko'chib yurishi, jannat va do'zax haqidagi aqidalarni saqlab qolgan. Braxmanlikning jamiyatning kasblarga bo'linishi to'g'risidagi ta'limotiga qarshi chiqib, barcha kishilar e'tiqodda teng huquqli deb e'tirof etilgan. Buddaviylikning diniy tenglik haqidagi g'oyasi odamlarning kasblarga bo'linib ketishiga qarshi kurashda ijobiy rol o'ynagan. Ayni paytda buddaviylik kishilar «azob-uqubat» chekishda va undan xalos bo'lishda ham tengdirlar deb hisoblangan.

Buddaviylik diniy ta'limotining asosiy manbai muqaddas kitob –«Tripitaka» (Uch savat donolik) deb atalgan. Bu ta'limotda Buddha uchta savatda ta'limot qoldirgan deyiladi: birinchi savat Vinoyapitana (pand – nasihatlar, axloqiy me'yorlar); ikkinchi savat –

Suttapitaka (duolar, dostonlar); uchinchi savat – Abxidhammapitaka (diniy falsafiy masalalar bayoni)lardan iborat

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi va madaniyatida buddaviylik muayyan o'rin egallagan. U zardushtiylik dini ta'sirida va u bilan yonma-yon shakllangan dinlardan biri bo'lgan buddaviylik miloddan avvalgi VI-V asrlarda Xindistonning shimolida vujudga kelgan; keyinchalik Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyo hamda Uzoq Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Uning vujudga kelishi hind jamoalarida ro'y



bergan muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar – urug'-qabilachilik aloqalari va tartiblarining yemirilishi, sinfiy jamiyatlarning vujudga kelishi va yirik quldorlik davlatining paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. III asrga kelib dunyoviy jamiyat (imperator Ashoka)ning faol qo'llab-quvvatlashi natijasida mulkchilik darajasida yagona bo'lgan budda tashkiloti (monaxlik jamoasi – singxa) va diniy aqidachilik shakllangan.

Buddaviylikning markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda tarqalishi miloddan avvalgi II asrlarda bu yerlardagi qabilalarning avlodlari tugatgan grek-baqtriya podshohligining o'rnida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan davriga to'g'ri keladi.

Kushon imperiyasi o'zining eng gullagan davrida (milodning I-III asrlarida) hozirgi Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston, ehtimol Uyg'uristonni ham o'z ichiga olgan. Kushon podshohligi davrida buddaviylik Hindistondan Markaziy Osiyoga, undan esa Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan.

Keyingi o'n yilliklar mobaynida olib borilgan arxeologik izlanishlarning natijalari va tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirgan holda tahmin qilish mumkinki, islomgacha bo'lgan davrda buddaviylik Markaziy Osiyo g'oyaviy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Buddaviylik faqat maxsus ibodatxonalarigagina emas, balki podsho saroylaridan boshlab, oddiy kambag'al dehqon va hunarmandlarning kulbasigacha kirib borgan dindir. Buddaviylikni qabul qilgan Markaziy Osiyo xalqlari diniy ibodatlar uchun har xil maxsus inshootlar qurganlar.

Buddaviylik bilan bog'liq obidalar, ibodatxonalar, haykallar, devorlarga olingan rasmlar Markaziy Osiyoda topilgan qadimgi tarixiy obidalar orasida muhim o'rin egallaydi. Buddaviylik bilan bog'liq imoratlar, qurilishlar hozirda ham Shimoliy Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmanistonning Janubiy tumanlarida, Tojikistonda va Qozog'iston janubida ma'lumdir.

Bular orasida eng yirik inshoot eski Termizdagi Qoratepa nomli g'or ibodatxonasidir. Bu ochiq sariq rangli katta tepalik bo'lib, unga qum toshli g'or binolar o'yib solingan; yer ustida binolar barpo etilgan; bularning hammasi bir butun uyg'un bo'lgan buddaning 20-25 ibodatxonasini tashkil qilib, Kushon podshohligida buddaviylikning muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi. Devorlarga solingan rasmlarni, haykallarni, toat-ibodat buyumlarini, tangalarga, sovg'a qilingan sopol idishlarga bitilgan har xil yozuvlarni o'rganishlar Qoratepaning milodning I asr oxiri va II asri boshlarida bunyod qilinganligidan, arablar O'rta Osiyoga kirib kelganlaridan keyin ular tugatilgan va keyinchalik vayronaga aylanganligidan dalolat beradi.

**Buddaviylik ta'limotiva uning mazmuni.** Buddaviylik ta'limotida har qanday borliq (moddiylik) barcha ko'rinish va shakllardagi har qanday hayot – hamma mavjudotlarga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob-uqubatlarning sababi – insonning va barcha tirik mavjudotlarning bu dunyoga qayta tug'ilib kelish dunyosi (sansara)ga bog'langanligi, unga ko'ngil qo'rganligidir. Uningcha har qanday insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatni chuqurlashtiradi; «borliq girdobi» dan chiqib olish uchun g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim; faqat shundagina «najot topish yo'li»ga kirish mumkin. Ilk buddaviylikda bunday najotdan faqat zohid yoki monaxgina umid qilishi mumkin edi.

Faqat yaxshiroq qayta tug'ilishni umid qilishi, buning uchun esa u monaxlarga mo'l-ko'l xayr-sadaqa berishi hamda quyidagi 5 axloqiy talab (panchashimla)ga amal qilishi kerak:

1. Har bir kishi yomonlik qilishdan o'zini tiyishi, tirik mavjudotni o'ldirmaslik;
2. O'g'rilik qilmaslik ya'ni birovning mulkini olmaslik;
3. His-tuyg'ularga ortiqcha barilmaslik begona ayollarga ko'z olaytirmaslik;
4. Yolg'on gapirmaslik rostgo'y bo'lishlik;
5. Ichkilik ichmaslik.

Buddaviylik hamma narsa bilib bo'lmaydigan ruh – nirvanaga asoslanadi, dunyo real mavjud emas, u faqat kishilarning xayolida, bilib bo'lmaydigan ruhning namoyon bo'lishida, deb noto'g'ri ta'lim bergan. Bu bilan u sub'yektiv idealizm botqog'iga botgan. Buddaviylikdagi ruh – nirvaning ta'limoti «muqaddas haqiqat» deb atalgan. Unga ko'ra, ijtimoiy xayot va shaxsiy turmush azob-uqubatlarning sababi – kishilarning istaklari va nafslarida. Azob-uqubatdan qutulish uchun kishilar o'zlarining istak va nafslarini tiyishlari, Budda kashf etgan a-idalarga amal qilishlari zarur. Buddaviylik azob-uqubat tushunchasini iutlaqlashtirgan, borliqning barcha shakllarini, uning mazmunini har qanda y turmush tarzini azob-uqubat deb noto'g'ri hisoblagan. Shuning uchun buddaviylik nirvanani borliqning intihosi, deb asossiz tushungan. Buddaviylik ta'limoticha, jonli mavjudotlarning o'lishi uni tashkil etgan dxarma (element, zarracha)larning ajralib ketish jarayonidir.

Bularning yangidan birikishi ilgari qilingan «savob va gunoh»lar bilan bog'liq deyiladi. Dxarma nirvana darajasiga yetgandagina qayta tug'ilishlarga barham berilib, azob-uqubatdan butunlay xalos etilar ekan.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, azob-uqubatlardan xalos bo'lishning eng maqbul yuli rohiblik (monaxlik) jamiyati (sangxa)ga o'tish hisoblanadi. Rohiblik boshqa dinlarga qaraganda buddaviylikda barvaqt vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda buddaviylik mazhablaridan bo'lmish xinayana tarqalgan mamlakatlar xalqlarining ijtimoiy hayotida g'oyat salbiy rol o'ynamoqda. Rohiblar buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar orasida noo'rin tarzda juda katta obro' va hurmatga sazovor bo'lib, ularga itoat etish va aytganini bajarish zarur, deb hisoblanadi.

Buddaviylik ta'limotida olam uch bosqichli deb tavsiflangan. Birinchisi eng yuqori olam bo'lib, unda mutlaq osoyishtalik hukmron. Unda faqat sof ruhgina mavjud. Bu olam ruhning makonidir. Buddaviylikning ta'rim berishicha, mutlaq ilohiy kuch – ruhni mutlaqo bilib bo'lmaydi. Birinchi olamda ruh moddiy olamdan tashqarida, u hech harakatsiz mutlaq osoyishta holatda yashadi. Ikkinchi olam, rivoyatlarga ko'ra, ruhiy mavjudotlar bilan to'la jannat – botisatvadir. Bu olamning hokimi Amitabadir. Uning olamida ruh o'z gunohidan xalos bo'lgan, lekin eng oliy olamga, nirvanaga, mutlaq bo'shliq va osoyishtalik olamiga ko'tarilmagan avliyolar yashar ekan. Buddalar kishilarga budda ta'limotini o'rganish, yaxshi yo'ldan boshlab borish uchun yerga yuborilar ekan. Uchinchi olam eng quyi olam bo'lib, unda odamlar va hayvonlar yashar ekan. Bu olamdagi ruh qafasda yashar ekan, u hayot davomida ozod bo'lish hamda yuqori olamga ko'tarilishiga harakat qiladi; ruhning yuqori olamga ko'tarilishi odamlar qiladigan savobli ishlarga bog'lik; agar odam buddaviylik ta'limotiga e'tiqod qilsa, yaxshilikka intilsa, uning joni qayta tug'ilishlardan so'ng jannatga va undan nirvanaga ko'tarilar ekan. Yomonlikka mansub gunohkor kishilarning ruhi esa quyi dunyoda azoblanib, qafas ichida yura berar, yuqori olamga hech ko'tarila olmas ekan. Agar insonning din ta'limotiga zid ishlari ko'payib ketsa, hirs yoki tovlamachilikka yerilib, undan qutila olmasa, bunday odamning ruhi bir necha qayta tug'ilishlardan keyin do'zaxga tushar va unda abadiy azoblanar ekan.

Buddaviylikda qayta tug'ilish deganda yangidan paydo bo'lish tushunilmaydi, balki ilgari o'lgan odamlarning yangi asosda birlashib, kelajak avlodga o'tishi tushuniladi. Shuning uchun buddaviylik inson o'z qilmishlari uchungina javobgar bo'lib qolmaydi, balki kelajak avlod uchun ham javobgar deb hisoblanadi. Agar odam yaxshi bo'lsa, budda ta'limotiga to'liq rioya qilsa, boy va e'tiborli bo'lsa, uning draxmalari asosida qayta tug'ilgan odam ham boy va badavlat, sofdil bo'ladi. Aksincha, odam yomon bo'lsa, kambag'alYU qashshoq bo'lsa, budda ta'limotiga rioya qilmasa, uning draxmalaridan paydo bo'lgan odam ham kambag'al, qashshoq bo'lar ekan. Buning sababi avvalgi avlodlar yomon hayot kechirgani uchun berilgan jazodir, deb hisoblangan. Buddaviylik o'zining bu ta'limoti bilan jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni tub mohiyatini yashirishga harakat qilgadi. Boshqa dinlar kabi buddaviylik ham xayotda passiv bo'lishni, taqdirga tan berishni targ'ib qiladi, zohidlikni e'qlab, ekspluatsiyani oqlaydi.

**BUDDAVIYLIKNING PARCHALANIB KETISHI.** Barcha jahon dinlari kabi buddaviylik ham ijtimoiy taraqqiyot natijasida va turli mamlakatlardagi ijtimoiy guruhlar tuzumlarining xususiyatlariga qarab, turli mazhablarga bo'linib ketgan.

Buddaviylikda bir necha mazhablar paydo bo'lgan. Bulardan eng yirigi I asrda undan ajralib chiqqan xinoyana («kichik arava», tor yo'l ma'nosida) Shri Lanka, Birma kabi mamlakatlarda keng tarqalgan; maxayana («katta arava», keng yo'l ma'nosida) Tibet, Xitoy, Yaponiya, Mongiliyada hamda Oltoy va Uzoq Sharqda yashovchi ba'zi xalqlar o'rtasida keng tarqalgan.

Buddaviylikka xos mazhablardan biri Tibet va Mongoliyada ham tarqalgan bo'lib, u lamaizm degan nom bilan yuritiladi. Buddaviylikning bu mazhabi maxalliy xalqlar o'rtasida qadimdan mavjud bo'lgan diniy tasavvur va urf-odatlarini o'zlashtirgan. Lamaizmda buddaviylikka xos tasavvurlar bilan bir qatorda, Buddaning yana qaytib kelishi va yer yuzida adolatli hokimiyat o'rnatishi to'g'risidagi rivoyatga keng o'rin berilgan. Lamaizmi ko'chmanchi, qaloq, savodsiz xalq hayotiga moslashtirishga urunish mavjud; undagi ibodat qilish tartibi ham ancha soddalashtirilgan.

Hindistonda quldorlik tartiblari barham topishi bilan buddaviylik braxmanizmga tobora yaqinlashib borgan; keyinchalik hinduizmga qo'shilib ketgan. XI-XII asrlarda buddaviylik Hindistonda o'z ta'sirin deyarli butunlay yo'qotgan.

Buddaviylik ta'limotini tartibga solish maqsadida 1871 yilda Birmada buddavistlarning maxsus ibodatxonasida Tripitakaning turli tarjimalari va variantlarini taqqoslash natijasida yagona teksti ishlab chiqilgan edi. Yangi tekst mazmuni 729 ta marmar plitaga tushirilgan edi. Bu yozuvlar saqlangan ibodatxona dunyo buddistlarining muqaddas joyiga aylantirilgan.

Buddaviylik ruhoniylari xalqaro miqyosda uning maqomini kuchaytirishga harakat qilmoqdalar. Shu maqsadda buddaviylikning turli tashkilotlarini birlashtirmoqdalar, buddistlarning xalqaro konferensiyalari, s'yezdlarini muntazam o'tkazmoqdalar.

Buddaviylikning bir necha xalqaro tashkilotlari mavjud. Shulardan eng yirigi Jahon buddistlari qardoshligidir. 1950 yili tuzilgan. 1956 yili otaxon buddistlarining bu din paydo bo'lganligining 2500 yilligi nishonlandi.

Markaziy Osiyoda bir necha yuz mingdan iborat koreys millatiga mansub kishilar yashaydi. Ularning oilaviy maishiy an'analari, milliy udumlarining ayrim tarkibiy qismlari mahayana (shimoliy) ko'rinishdagi buddaviylik ta'sirida shakllangan. Hozirgi vaqtda bu mintaqada, ayniqsa O'zbekistonda koreys buddistlarni xristianlik ta'siriga olishga qaratilgan harakatlar avj olmoqda.

### **Mustaq'il ta'lim uchun adabiyotlar:**

1. Buddizm. Spravochnik.-M.: Respublika, 1992.
2. Jabborov Iso. Jabborov Sanjar. Jahon dinlari tarixi.-T.: O'zbekiston,2002
3. Dervish R.A. Lavteva G., Musapayeva A. Pamyatniki istorii, religii i kultura v Uzbekistane.-T.: 1994.
4. Vasilyev L.S. Istoriya religii Vostoka. 3-izd.perevod i dop.-M.: Knijno'y dom. Universitet, 1998.

## 5-Mavzu. X R I S T I A N L I K .

### R e j a :

1. Xristianlikning paydo bo'lishi va tarqalishi.
2. Xristianlikning diniy ta'limoti.
3. Xristianlikdagi yunalishlar.
4. Xristianlikning Sharqqa tomon tarqalishi.

**XRISTIANLIKNING PAYDO BO'LISHI VA TARQALISHI.** Xristianlik jahon dinlaridan biri bo'lib, eramiz I asrining 2-yarmida Rim imperiyasining sharqiy viloyatlarida ko'p xudolik dinlari o'rniga qullar va mazlum elatlarning dini sifatida yakkaxudolik(monoteistik) shakldagi tarzda shakllangan. Demaq u dasavval demokratik xususiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun tez, oson tarqalgan. Davrlar o'tishi bilan uning bu xususiyati kamayib, undan hukmron mafkura (ideologiya) sifatida foydalanishga harakat qilingan.

Xristianlik Falastin va O'rta Yer dengizi yahudiylari dinlari doirasida vujudga kelgan; o'nlab yillardan keyin esa boshqa, asosan geografik jihatdan qaralganda Rim imperiyasi bilan bog'liq yoki uning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan xalqlar orasida tarqalgan. Yangi va eng yangi tarix davrlarida u mustamlakachilik siyosati va missionerlik natijasida Yevropadan tashqariga ham tarqalgan.

Xristianlikning vujudga kelishida sharq dinlarining ham ta'siri bo'lgan. Jumladan, misrliklarning Osiris va isida, eronliklarning Mitra, yahudiylikning Muso haqidagi rivoyatlari, oxirat to'g'risida hikoya qiluvchi har xil rivoyatlar ham xristianlik ta'limotiga kiritilgan.

Lekin shakllanayotgan xristian mafkurasi asosida birinchi galda iudaizm monoteizmining «Eski ahd» kitobiga kirgan barcha «muqaddas g'oyalar», ya'ni Yerni Xudo yaratganligi, o'simlik va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, insonning yaratilishi, uning tili, axloqi, huquqi, ohirat rohatlari haqtdagi g'oyalar katta rol o'ynagan. Xristos muso (Moisey) bilan tenglashtirilgan turli rivoyatlar ham aynan ifodasini topgan.

Shunday qilib, xristianlik Rim imperiyasida yashagan ko'pchilik elatlarning dinlari, rivoyatlari, arfodatlarini asosida tashkil topgan. Bu din dastlab qullar, ezilgan kambag'allarning talablarini, «xoloskorlik» g'oyalarini o'ziga singdirgan din sifatida vujudga kelgan. Keyinchalik uning ijtimoiy, diniy strukturasi o'zgarishi bilan hukmron tabaqalar qo'lida mazlum xalqlarni ekspluatasiya qilishning g'oyaviy quroliga aylangan.

O'sha davrda jamiyatda yuzaga kelgan hukmron doiralar bilan mazlum xalqlar o'rtasidagi ziddiyatni yumshatishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan xristianlikdagi diniy g'oyalarni hisobga olgan imperator Konstantin 324 yili bu dinni davlat dini deb e'lon qilgan. 325 yilda uning ko'rsatmasi bilan Nikey saborida xristianlarning 1 – yig'ini bo'lib o'tgan. Unda yepiskoplar va ilohiyotchilar xristianlikning asosiy aqidalarini tasdiqlab, cherkov tashkilotini takomillashgan xolga keltirganlar.

Shundan buyon, davrlar utishi bilan xristianlik butun Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, afrika, Avstraliya kit'alariga yoyilgan. Keyinchalik Markaziy Osiyo respublikalari hududlariga ham qisman yetib kelgan jahon dinidir.

**XRISTIANLIKNING DINIY TA'LIMOTI.** Xristianlikning muqaddas diniy yozuvi – Bibliyaning ikkinchi g'ismi – «Yangi ahd» bo'lib, u eramizning I-II asrlarda grek tilida yaratilgan.

Bibliyaning xristianlik paydo bo'lmasdan birmuncha oldin yaratilgan 1 - qismi «Eski ahd» deb atalib, u iudaizmining muqaddas yozuvi hisoblanadi. Bibliyaning ikkinchi qismi – «yangi ahd» deb atalib, u xristianlikning muqaddas yozuvi deb hisoblanadi.

«Yangi ahd» 27 kitob (bob) dan tashkil topgan. Uning tarkibiga 4 ta «Injil» (Yevangiliye, ya'ni Xushxabar), havoriylarning (Iso shogirdlari, xristianlikning dastlabki tartibotlari) amallari, 21 risola va Ioanning «Vahiynomasi» kiritilgan.

Xristianlikning ta'limoti boshqa jahon dinlari kabi mutlaq, abadiy, o'zgarmas karomatni, bilimni, benihoya qudratning egasi bo'lgan yakka xudo haqidagi g'oyani o'zlashtirgan. Lekin ulardan (islom va iudaizmdan) farqi shundaki, u uch ko'rinishdagi yakka xudoni o'zida mujassamlashtirganlik aqidasi yaratgan. Uch ko'rinishdagi xudo haqidagi ta'limotga binoan, xudoning ichki hayoti sababi o'z-o'zidan mavjud bulgan uchlikdagi uch asos yoki «muqaddas uchlik» bo'lgan – ota-xudo, o'g'il-xudo va

muqaddas ruhning o'zaro munosabatidir. O'g'il iso bayon qilingan tarjimai xoliga ko'ra ota-xudodan, muqaddas ruh ham ota-xudodan yaratilgan (pravoslav yunalishi ta'limoti), (katolisizm da esa ota-xudo va o'g'il-xudo ham xudodan tug'ilgan).

Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki mohiyati – odam mohiyati, xudo mohiyati haqida, «gunohni yuvish», ya'ni «Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi» haqidagi ta'limot bilan mustahkamlangan. Xristianlik muqaddas ruh – ota xudo bola xudo va muqaddas ruh – uch yuzli xudo to'g'risidagi ta'limoti, targ'iboti, tashkilotchiligi, jannat va do'zah oxirat ya'ni dunyoning oxiri borligi, Isoning qayta tirilishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga olgan. 381 yili xristianlarning Konstantinopolda bo'lib o'tgan 11 jahon yig'ilishida cho'qinish va tirilish haqidagi yangi aqida qabul qilingan.

Ota xudo tabiat, odam va farishtalarni yaratgan, deb hisoblanadi. Xudoning gavdalanishi aqidasi ko'ra, Iso xudoligicha qolgan xolda Mariya ismli qizdan tug'ilgan odam ham bo'lib qolgan. Butga parchinlangan xudo Iso tortgan azoblari va o'limi bilan o'zini odamlarning gunohlari uchun ota xudoga qurbon qilgan va shu bilan gunohini yuvgan. Ushbu aqidaga ko'ra, Iso odamzodga gunohlardan xalos bo'lish yulini ko'rsatib bergan. Isoning tirilishi ag'idasi kelgusida hamma odamlar tirilishining garovi, deb e'lon qilingan. U tirilgandan so'ng osmonga – ota xudo xuzuriga chiqqanligi, ya'ni osmonga chiqib tushishi (islomda me'roj) aqidasi bu dunyodagi hayot oxiratdagi mangulikka nisbatan hech narsaga arzimaydi, deb uqtiradi.

Xristianlikda iymon kaliamsi «yagona, muqaddas sobo va opostol cherkovi»ga ishonishni, cho'qintirish zarurligini tan olishni, qiyomatda o'liklarning tirilishiga, shundan so'ng savob egalari mangu rohat-farog'at ko'rish, gunohkorlarga doimiy azob-uqubat tortish davri kelishiga ishonishni buyuradi.

Diniy g'oyalar tarkib topishi bilan bir qatorda xristian ibodat marosimlari ham shakllanib borgan. Xristian marosimchilining eng muhim elementlari sirli ibodat (tainstvo) deb yuritiladi. Bular qatoriga cho'qintirish (suvga sho'ng'itib olish), miropomozaniye (cho'qintirilgan kimsaga xushbo'y qatron-miropa surtilgach, «muqaddas ruh»ning huzur-halovati unga o'tishi); yevxaristiya yoki prichisheniye (non va vinoni Isoning tanasi va qoni deb tasavvur etgan holda iste'mol qilish), tavba qilish (dindorning ruhoniy vositasida xudodan kechirim so'rashi va o'z gunohlarini unga aytib berishi), nikoh, ruhoniylikka fotixa berish, soborlashtirish, ya'ni bemoni muqaddaslashtirilgan zaytun moyi – yelega bo'yash kabilar kiradi.

Xristianlikning bosh ibodati liturgiya (obednya, messa) bo'lib, u har xil afsungarliklar, mo'zika chalish, ashula aytish, «muqaddas» yozuvlarni o'qish, qad bukib ta'zim bajo keltirish, sham va chiroqlarni yondirish, xushbo'y narsalarni chekish bilan qo'shib olib boriladigan diniy amallardan biri.

«Muqaddas uchlik»ning har birini, Bibi maryamni ulug'lash «xudoga xush kelgan avliyolarga», xudo yarlaqaganlarga ham sig'inishni keltirib chiqargan. Xristianlikda butga cho'qinish ham muhim o'rinni egallaydi. Unda pasxa (Isoning tirilishi), tariqa (yoki pyatidesyatnisa), rojdestvo (Isoning tug'ilishi) va boshqa bayramlarga katta o'rin berilgan.

**XRISTIANLIKDAGI YO'NALISHLAR.** Eng birinchi ajralish xristianlikda IV-V asrlarda ro'y bergan, ya'ni Iso masihni talqin qilishda farqlanadigan ikkita diniy-aqidaviy yo'nalishlar – monofizilar va nestorianlar yuzaga kelgan.

Hozirgi kunda monofizitlikka Yaqin sharqdagi Yakobitchilar, Janubiy Hindiston va Efiopiya xristian axolisining 96 foizi amal qiladi. Nestorianlar, eng avval, Ossuriylar orasida tarqalgan. Bularning diniy jamoalari hozirda ham Suriyada, Iroqda, Eronda, Hindistonda bor.

1054 yilga kelib xristianlikning pravoslav va katolik cherkoviga bo'linishi rasman tan olingan. Bu bo'linish Rim imperiyasining Sharqiy va G'arbiy qismlari orasidagi feodal munosabatlarning tafvutlarini o'zida aks ettirgan; Rim papasi ilan Konstantinopol patriarxi o'rtasidagi jami xristian cherkovlari ustidan yakka xokimlik o'rnatish uchun shiddatli kurashlar bilan bog'liq bo'lgan. Xristianlikning alohida va mustaqil g'arbiy tarmog'i Rim katolik cherkovi, ya'ni umumiy, jahon Rim cherkovi deb atala boshlagan. Dunyoviy xokimiyatga tobe bo'lgan Shprqiy xristianlik grek-kefilik (grekcha – butun dunyo) yoki izchil, sobitqadam (ortodoksal) xristianlik deb atala boshlangan. Pravoslaviye va katolisizm oralarida umumiylik ham, bir-biridan farqlanadigan jahatlari ham bor.

Katolisizmdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik xarakatlari vujudga kelgan. Buning doirasida lyuteranliq anabaptizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllangan. Har bir cherkovning asosiy marosimlari jihatidan o'zlariga xos bo'lgan



tomonlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, bular ham o'z navbatida bir necha yunalishlar, mazhablar va oqimlarga bo'lindi.

**KATOLISIZM** – bu xristianlikda eng ko'p tarqalgan yo'nalishdir. U Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo'lib, muxlislari taxminan 800 mln. kishini tashkil qiladi.

Katolisizm ta'limotida jannat va do'zaxlar oralig'idagi dunyo, gunohkorlarning ruhi, joni haqidagi, Iso Masihni benihoya hurmatlash, uning tanasi va jonini ko'klarga ko'tarish sohalaridagi diniy aqidalar mavjud.

Katolisizmda Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi; chunki ular uylanmaslik haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va sahnalashtirilgan ko'rinishga ega; diniy o'qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviyedagi kabi katolisizmda ham farishta, ilohiy kuch, chirimaydigan marhum jasadlariga sig'inish odatlari saqlanib qolgan.

Katolisizm boshqa yunalishlardan farqli o'laroq markazlashgan tizimga ega. Vatikan ana shunday markaz sifatida (maydoni 44 gektar) 1924 yildan boshlab Papa Piy XI ning Mussolini hukumati bilan tuzgan bitimiga muvofiq mustaqil teokratik davlat hisoblanadi. Rim Papasi cherkovning yakka rahbari bo'lib, u Iso Masihning yerdagi noibi hisoblanadi.

Son jihatdan unchalik katta bo'lmagan katolik jamoalari Markaziy Osiyoning yarim hududlarida ham mavjud. Toshkentda 1990 yilda katolik markazi to'zgilgan, uning qoshida jumhuriyatimizning boshqa hududlaridan ruyhatga o'tgan katolik diniy jamoalari ham o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

**PRAVOSLAVIYE.** Xristianlikning arqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviyening rivojlanishi jarayonida 15 mustaqil (avtokefal) cherkovlari: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Rus, Gro'ziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Albaniya, Polsha, Chexoslovakiya, amerika cherkovlari shakllangan.

O'zining ahamiyatiga ko'ra pravoslav dunyosida beshinchi bo'lgan, lekin muxlislari soni jihatidan birinchi bo'lgan rus pravoslav cherkovi X-XI asrlarda vujudga kelgan. Rusning xristianlashuvi darrov amalga oshgan ijtimoiy jarayon bo'lmay, bir necha asr davom etgan ziddiyatli tarixiy xodisa edi.

Pravoslaviyening Markaziy Osiyo axolisi orasiga kirib kelishi XVI-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Avval savdo-sotiq keyin bu mintaqa xalqlarini mustamlakaga aylantirishdan iborat bo'lgan harbiy harakatlar jarayonida u kirib kelgan. 1870 yili Pokrovsk monastiri qoshida missionerlik jamiyati tashkil qilingan. Jamiyat a'zolari maxalliy millatlarga mansub axoli orasida, garchi jiddiy natijalarga ega bo'lgan bo'lmasa ham, xristianlik bilan bog'liq katta targ'ibot ishlarini olib borganlar. Shu maqsadda 1844 yili «Karomat ko'rsatuvchi Nikolayning hayot yuli» nomli risolani qirg'iz tiliga tarjima qildilar va chop etdilar, maxsus diniy maktablar ochildi. 1872 yili Rus pravoslav cherkoviga qarashli Turkiston (keyinchalik Toshkent, Urta Osiyo, yeparxial g'boshqarmalari ochildi Toshkent va O'rta Osiyo yeparxial boshqarmasi (unga 22 diniy jamoa bo'ysunadi) ham mustaqil jumhuriyatlarda vijdon erkinligi talablariga rioya qiladigan tadbirlar o'tkazmoqda, xalqlar o'rtasida osoyishtalik qaror toptirish uchun harakat qilmoqda.

Pravoslaviyening ijtimoiy, siyosiy qarashlarini va dindorlarning diniy onglari bilan bog'liq hamma o'zgarishlar ularning dunyoqarash mavqelarini majburan o'zgartirishlariga olib bormaydi. Zero, rusga xristianlik kirib kelishining ming yilligini tantanali tarzda bayram qilinishining o'zi jamoatchilikni keng doiralari orasida muayyan taassurot qoldirdi.

**PROTESTANTLIK** – bu ham xristianlikdagi yana bir yunalish bo'lib, katolisizm va pravoslaviyedan farqli o'laroq, diniy qarashlar jihatidan ham, cherkovlar orasidagi munosabatlar jihatidan ham bir xil bo'lmagan yo'nalishlarni faqatgina kelib chiqishi jihatidan bir-birlari bilan, XVI asrdagi yangilanish harakati bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina diniy jamoalar, cherkovlar, mazhablarni yuzaga keltirgan. Protestantlik xudojo'ylikning asosiy talabini dinda odamning tashqi ko'rinishidan ichki hayotiga olib utdi va uni ixtiyoriy diniy ishonch bilan bog'ladi. Protestantchilik Bibliyaga sig'inishning o'ziga xos shaklini qaror toptirdi. Bu bilan protestant islohotchilari dastlabki xristianlikning oliy maqsadlarini, yuksak orzularini qayta tiklash, uni keyingi davr cherkovlari «bo'zishlaridan» xalos qilishga intildilar.

Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiligini bekor qilgan. O'lganlarga bag'ishlab duo o'qish, aziz-avliyolarga sig'inish, ular sharafiga turli-tuman bayramlar o'tkazish, mukaddas murdalarga, sanamlarga topinishlar bekor qilingan. ibodat uylari ortiqcha bezaklardan, mehrob, sanam, haykallardan xoli qilingan; monostirlar va monaxlikdan ham voz kechilgan, ruhoniylarning uylanmaslik sharti bekor qilingan. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo'yning eng muhim burcha bo'lib qoldi.

Lyuteranliq anabaptizm, anglikanliq kalvinizm, svingchilik protestantlikning ilk shakllari bo'lgan. Keyinchalik «sunggi protestantlik» umumiy nomi bilan ma'lum bo'lgan bir qancha diniy oqimlar, tashkilotlar pay bo'lgan.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi protestantlik birlashmalari yangi mustaqil respublikalarda demokratik o'zgarishlarga muvofiqlashishga intilyaptilar; islohot jarayonlarining rivojlanish to'lqinlarida targ'ibot ishlarini faollashtirmoqdalar; dindorlarning ijtimoiy jarayonlardagi faol ishtirokchilarining o'zlariga ma'qul bo'lgan shakllarini belgilamoqdalar.

### **Xristianlikning sharqqa tomon tarqalishi, O'zbekistonda xristian cherkovining tutgan o'rni.**

XI asrning oxirida xristianlikning Sharqqa tomon harakati va tarqalishi ommaviy tus oldi. Bu dini mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Sharqning ayrim viloyatlariga ilgariroq kirib borganlar. 280 yildayoq Talos (merke) da xristian cherkovlari qurilgan bo'lib, Samarqandda (301 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda, Marida va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskopliq kafedra, missiyalar, keyinchalik Samarkandda, Marvda (430 yillar), Hirotda (558 yillar) 6-12 yepiskoplikdan iborat diniy xududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. Xurosonliklar va so'g'diyonaliklar buddistlar, zardushtiylar, moniylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qaram yerlarda ta'qib qilinganlar.

O'rta Osiyo hududida islom tarqatilgan davrlarda bu din bilan xristianlik o'rtasidagi kelishmovchiliklar keskinlasha boshlagan. Biroq, X asrgacha samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo'lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1050) Marvda pravoslav mitropoliyasi bo'lgan.

Ana shu davrlarda xristianlik Kavkazda ham tarqala boshlagan; Armaniston (301 yil) va Gro'ziyada (318 yili) davlat diniga aylangan. Kavkaz Albaniyasi hududida esa (hozirgi Ozarbayjon va Janubiy Dog'iston hududi) IV-VIII asrlarda hukmron din hisoblangan.

O'sha davrdagi ko'pdan-ko'p va bir-biriga qarshi kurashayotgan dinlar orasidagi Sharqning hukmronlari tomonidan eng ko'p homiylik ko'rsatilgan din xristianlikning sharqiy yo'nalishi bo'lmish nastorianlik bo'lgan. Xalif saroylarida nestorianlik patriarxlariga butun sharq xristianligining homiysi sifatida qaralgan, patriarxning qarorgohi esa Konstantinopoldan Bag'dodga ko'chirilgan. Nestorianlar xristianlikni Turkistonda, amurgacha bo'lgan Shimoliy va G'arbiy Xitoyda targ'ib qilganlar. Nestorianlikning Markaziy Osiyodagi tayanchi va islomga qarshi kurashdagi markazi 1257 yildan so'nggina o'z faoliyatini to'xtatgan Samarqand mitropoliyasi bo'lgan.

Hozirgi mustaqil O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat yashaydi. Bular orasidagi dindorlar 16 konfessiyaga, ya'ni diniy uyushmaga e'tiqod qiladi. Bular doirasida islomdan so'ng 2-o'rinni xristianlikning pravoslaviye oqimi egallaydi. Uning bir necha cherkovi va markaziy uyushmasi, chunonchi baptist, iyegovist, adventist kabi sektalari bor.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va unga asoslanib ishlab chiqilgan vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagim yangi tahrirdagi e'lon qilingan qonunga asosan respublikadagi barcha diniy uyushmalar erkin, oshkora, teng huquqli tarzda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu huquq va erkinliklar qonun bo'yicha kafolatlangan.

Respublikamizdagi barcha konfessiyalar orasida totuvliq hamjixatlilik mavjud bo'lib, xalqimizni tarbiyalashga, tinch va xavfsizlikni saqlashga xristianlik jamoalari ham salmoqli hissa qo'shmoqdalar.

### **Mustaqil taqlim uchun adabiyotlar:**

1. Iz istorii drevnix kultur Sredney Azii. Xristianstvo.-T.: 1994.
2. Iso Jabborov, Ruhiiy olam: jaholat va kamolot.-T.:O'zbekiston, 1998.
3. Dervish R.A., Lavteva G., Musapayeva A. Pamyatniki istorii, religii i kulturo' v Uzbekistane.-T.: 1994.
4. Osnovo' religovedeniya.Pod redaksiyey I.N.Yablokova.Izd. vtoroye.-M.: 1998.
5. Frezer D.D. Zolotaya Vetv.-M.: Politizdat, 1986.

## 6-Mavzu. ISLOM – JAHON DINI.

R e j a :

1. Islom dinining paydo bo'lishi.
2. Muhammad ibn Abdulloh – islom dini da'vatchisi va asoschisi.
3. Islom ta'limoti va qadriyatlar.
4. Islomdagi oqimlar va mazhablar.
5. Islomni e'tiqodga aylantirish davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati.

**ISLOM DINING PAYDO BO'LISHI.** Islom – dunyoda keng tarqalgan jahon dinlaridan biridir. Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Afqoniston, Pokiston, Afrika kit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr Respublikasi Somali singari mamlakatlar xalqlari, Efiopiya, G'arbiy Sudanda yashovchilarning bir qismi, Malayziya, Indoneziya xalqlari, Livan, Hindiston, Xitoy hamda Filippin axolisining ma'lum bir qismi. Yevropa kit'asida esa Bolqon yarimorolida yashovchi xalqlarning bir bo'lagi islomga e'tiqod qiladi. Islom O'rta Osiyo, Zakavkazye va Shimoliy Kavkaz, Volgabo'yi, G'arbiy Sibir va boshqa ayrim hududlarda yashovchi aholining bir qismi ongi va turmushida mavjuddir. Bu xalqlarning turmush tarziga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Yer yuzida islomga e'tiqod qiluvchilar, ya'ni musulmonlar bir milliard 300 mln.dan oshdi.

Yevropa, Amerika va Rossiyada islom, uning tarixi va manbalarini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Lekin islom tarixi, ta'limoti, muqaddas yozuvlarini tahlil, tatqiq qilish Rossiyada ayniqsa O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Shimoliy Kavkazda keng ko'lamda ancha oldin amalga oshirilgan. Bu ish endi yanada kengroq miqyoslarda olib borilmoqda.

Arab xalqi hayotni VI asr oxiri VII asr boshlarida yuz bergan jiddiy tarixiy voqealar arab qabilalarining ijtimoiy hayot taqozasi bilan vujudga kelgan markazlashishga intilishga undagan. Islom ayni shu intilishni o'zida aks ettirgan g'oya, mafkura sifatida yuzaga kelgan, markazlashgan arab davlatining vujudga kelishi, qo'shni mamlakatlarga yurish qilib, yangi din Islomni targ'ib qilish arab xalifaligining kengayishi muhim ijtimoiy yo'nalish edi.

Markaziy va Sharqiy Arabiston yarim oroli sahrolarida yashagan arab badaviylari o'rtasida ibtidoiy tuzumga xos bo'lgan politeistik majusiylilik diniy tasavvurlari shukron edi.

Yahudiylik va xristianlik hamda ularning ayrim sektalari islom paydo bo'lishi arafasida arab qabilalari orasida muayyan darajada tarqalgan edi.

V-VI asrlarda arab qabilalari urug'-qabilachilik tuzumi yemirila boshlagan, ibtidoiy diniy tasavvurlar tanazzulga yuz tutgan edi. qabilalar o'rtasida markazlashishga bo'lgan intilishning g'oyaviy in'ikosi sifatida yakka xudolikka xos diniy aqidalarning kurtaklari shakllana boshlagan. Yakka xudolik to'g'risidagi bunday diniy ta'limot islomdagina emas, balki u paydo bo'lmasdan birmuncha vaqt ilgari Arabistonning ayrim joylarida targ'ib qilina boshlagan edi. Islom esa ana shu targ'ibotlarning galdagi shakllanishi va tarkib topishining natijasi sifatida vujudga kelgan.

Islomdagi ilgari arab qabilalari orasida yakka xudolilik to'g'risida targ'ibot yuritgan, o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan shaxslar manbalarda «xaniflar», ya'ni haq-haqiqat izlovchilar nomi bilan ma'lumdir. Islomning paydo bo'lishi arab qabilalari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muayyan bosqichi bilan bog'liq bo'lgan.

Islom monoteistik din sifatida. Ya'ni yakka xudoga e'tiqod qiluvchi ta'limotni yaratib, barcha ko'rinishlarini shirk deb atab, ularni ta'qiqlagan.

Islomda, shunday qilib, yagona – xudoga Allohga e'tiqod qilish bu diniy ta'limotning asosini tashkil etgan. Alloh – arabcha so'z bo'lib, o'zbekchaga tarjima g'ilsaq Tangri degan ma'noni bildiradi. Forsiyda Xudo deyiladi. Alloh, Tangri, Xudo so'zlariga odatda sifat qo'shib, Alloh taolo, Xudoi Taolo shaklida ham ishlatiladi. Taolo – ulug', oliy degan ma'noni anglatadi. Alloh taoloning Qur'onda va Hadislarda qayd etilgan ismlari 99 tadir. Bulardan tilimizda eng ko'p qullaniladiganlar: Rahim – juda rahimli; Rahmon – o'ta mehribon; Mo'min – omon va omonlik beruvchi; Karim karamli, saxovatli, kechirimli, Sattor, Akbar buyuk kabi sifatlar qo'shib aytiladi.

Allohning mazkur ismlariga abd-qul so'zi olddan qo'shilib kishi ismlari yasaladi: Abdurahmon – o'ta mehribon Allohning quli; Abdulkarim – karamli, sahovatlining quli; Abdug'agi, Allohning ehtiyajsiz quli va boshqalar.

Islom ta'limoti bo'yicha, Alloh hamma joyda xoziru nozirdir, ammo o'zi lomakan, ya'ni bemakondir; unga vaqt, zamon ham daxlsizdir. Tug'ilish, o'lim barcha jonzotlarga, shu jumladan odamlargagina xosdir; Alloh bundan mustasnodir.

**MUHAMMAD IBN ABDULLOH – ISLOM DINI DA'VATCHI VA ASOSCHISI.** Payg'ambar forscha so'z bo'lib, xabarchi, darakchi demakdir. Arabcha nabiiy deyiladi. Rasul so'zi ham arabcha bo'lib, ma'nosi elchidir. Binobarin, payg'ambarlar ilohiy ta'limot va din aqidalarini o'z ummatlariga yetkazuvchi xabarchidir, Allohning elchisidir. Payg'ambarlarning Hadisda soni 124 ming deyiladi. Qur'oni Karimda 25 nafar payg'ambarning nomi tilga olingan. Ular Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Ishoq, Yaqub, Yusuf, Lut, Ayyub, Zi-l-Kifl, Yunus, Muso, Horun, Shuayb, Ilyos, al-Yasa', Dovud, Sulaymon, Zakariyo, Yahyo, Iso va Muhammaddir. Islom ta'limotiga ko'ra barcha payg'ambarlarga barobar imon keltiriladi.

Tarixiy manbalardagi va Qur'on oyatlaridagi ayrim ishoralariga ko'ra, Muhammad payg'g'ambar 570-71 yilda Makkada tug'ilgan, yoshligida yetim qolgan, avval bobosi qo'lida, u vafot etgach, amakisi qo'lida tarbiyalangan, balog'atga yetgach, savdogarlar qo'lida xizmat qilgan. 25 yoshida beva boy xotin Xadichaga uylangan va uning mablag'lari bilan mustaqil savdogarlik qila boshlagan. Savdo karvonlari bilan Suriya, Falastin va Mesopotamiyaning ayrim shaharlarida bulgan; u yerlardagi diniy e'tiqodlar bilan tanishgan, ruhoniylar bilan suhbat qilgan. U zot taxminan 39-40 yoshlarga kirganlarida Makkada yakka xudo – Allohga e'tiqod qilish to'g'risidagi targ'ibotni boshlagan.

Diniy nazariyada Islom Allox yuborgan sunggi mujassam din ekanligi Qur'on Allox nozil qilgan kalomi bo'lib Muxammad payg'ambarga vaxiy tarzida tushgan tilovati ibodat xisoblangan. Ilk vaxiy-diniy ta'limotga kura ramazon oyining yigirma yettinchi kuniga utar kechasi milodiy xisob bilan 610 yilning 31 iyulidan 1- avgustiga utar kechasi boshlangan va 23 yil davom etgan.

Vaxiy tusha boshlagan tun «LAYLATUL QADR»deb atala boshlagan.

Bu xodisa Qur'onning 97-«al Qadr»surasida ifodalangan. Muxammad

(s. a.v) payg'ambar targ'ibotlarini boshlagan dastlabki yillarda juda oz kishi u zotning izidan borgan. Shu bilan birga qurayshiylarning ummaviylar xonadoniga mansub bo'lgan va Makkada siyosiy xokimiyat tepasida turgan zodagonlar o'sha davrdayok uning targ'ibotiga qarshilik kursata boshlaganlar. Badaviylar xam uni avval boshda qo'llab- quvvatlamaganlar. Makkada axvol jiddiylashgach Muxammad Makka xukmdorlari bilan rakobatlashib kelgan kabilalarning vakillari bilan muzokaralar olib borgan va 622 yili ularning yordamida Madinaga xijrat qilingan.

Musulmonlarning hijriy yili hisobi shu ko'chish arabcha «hijra»dan boshlangan. Makkadan ko'chib borganlar islom tarixida «muhojir» (ko'chib kelgan)lar, madinalik qabilalardan islomni qqabul qilganlar esa «ansor» (yordamchi) lar deb nom olganlar. Oradan bir necha yil o'tgach xaj qilishga u zotning o'zlari ham Makkaga kelgan.

Makka zodagonlari manfaatiga zid targ'ibot olib borgan Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ni ta'qib etish kuchaygan. Ayniqsa, o'zi majusiy bo'lsada, unga homiylik qilgan amakisi Abu Tolibning vafotidan keyin Muhammad payg'ambarning hayoti xavf ostida qolgan. U o'ziga sodiq barcha kishilar bilan Hijozning shimolida joylashgan, uning davrida «madina», ya'ni shahhar deb qayta nomlangan Yasrib shahriga ko'chib ketishga majbur bo'lgan. qur'on oyatlarining mazmuniga qaraganda, bu ko'chish ancha vaqt davom etgan. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) rqasaidan odamlar birmuncha vaqt davomida guruh-guruh bo'lib kelib turganlar. Makkadan ko'chib kelganlarning ko'pchiligi - muhojirlar deb tavsiflangan kambag'allar va nochor kishilar edi. Shuning uchun ham dastlabki davrlarda ansorlar ularga yordam ko'rsatganlar.

630 yil bahorida Madina qqo'shinlari Makkaga yaqinlashganlar va hech qanday qarshiliksiz shaharga kirib borganlar. Zodagonlar Muhammad payg'ambarni peshvoz chiqib kutib olganlar. Shu vaqtdan boshlab u bilan Makka hukmronlari o'rtasidagi raqobat va qarama-qarshiliklar tugagan. Ular Muhammad payg'ambarning yaqin yordamchilariga aylanib, musulmrlar davlatida yuksak lavozimlarni egallay boshlaganlar.

Muhammad payg'ambar hijriy 11-yilning rabi-al-avval (632 yil iyun) oyida Madinada 63 yoshda vafot etgan. Bu davrda anchagina mustahkam musulmon davlati vujudga kelgan; u Yamandan Sino yarimoroligacha, Qizildengiz sohillaridan Markaziy qum sahrolari-Sahroi Kabrgacha cho'zilag katta hududni o'z ichiga olgan edi. Muhammad vafotidan keyin o'rinbosarlari-xalifalar davlatni boshqara



boshlaganlar. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati o'zining bundan keyingi tarixida «Arab xalifaligi» deb nom olgan. Muhammad vafot etgan birinchi kunlardanroq musulmonlar jamoasining yo'l boshchilari o'rtasida hokimiyat uchun kurash va o'zaro ixtiloflar boshlangan. Bu kurashda muhojirlar guruhi g'olib chiqqan va Muhammadning ilk safdoshlaridan biri Abu Bakr xalifa deb e'lon qilingan.

**Islom ta'limoti va qadriyatlari.** O'rta Osiyo xalqlari hayotiga islomning kirib kelishi bilan kalom, ya'ni islom falsafasini va diniy talablarini bajarishda arab tili ustuvorligi o'rnatilgan. So'ngra fan, adabiyot, falsafa va madaniyatning turlariga ham arab tilining ta'siri kuchli bo'lgan. Ammo mahalliy xalqlar islomdan ancha oldinroq o'z ona tillarida yozuvni, ma'rifatu-madaniyatni, ilm-fanni rivojlantirishga muvaffaq bo'lganlar. Bu jarayon keyinchaolik islomning ta'sirida yanada rivojlantirilgan. Masalan, kishilarning turmush tarzi islom talabiga moslasha borgan, urf-odat va marosimlar diniy tus olgan, yoshlarga bilim berish uchun maktablar ochilgan, ruhoniylar tayyorlash uchun ko'plab madrasalar, qiroatxonalar tashkil etilgan.

Islomda, eng avvalo, din asoslari-«arkon-ad-din» hisoblanuvchi besh asosiy amaliy va marosimchilik rukn talablarini bajarishni talab etilgan. Hozir ham shunday. Bular, birinchidan, kalimai shahodatni bilish; ikkinchidan, har kuni besh vaqt namoz o'qish, uchinchidan, har yili ramazon oyida bir oy ro'za tutish; to'rtinchidan, yiliga bir marta shaxsiy molidan zakot berish; beshinchidan, imkon bo'lsa, umrida bir marta haj qilishdan iborat. Islomga xos marosimlar va odatlar mana besh rukn bilan chambarchas bog'liqdir. Islomning bu amaliy va marosimchilik talablari xalqlar turmush tarziga kiritilib, o'ziga xos ma'naviy madaniyatning turiga, an'anaga aylantirilgan.

Diniy qadriyatlar, marosimlar diniy tasavvur e'tiqodlar yuzaga kelishi bilan paydo bo'la boshlaydi. Bularning yuzaga kelishi ibtidoiy odamlar, keyinchalik urug' va qabalalar hayotidagi muhim voqealar-farzand tug'ilishi, balog'atga yetish, yakka nikohli oilalar yuzaga kelgach esa, oila qurish bilan bog'liq bo'lgan.

Islom yoyilgan joylarda qurbon hayit keng bayram qilinadi. Musulmon mamlakatlarida bu hayitga tayyorgarlik katta bo'ladi; masjidida maxsus ibodat bo'ladi, va'zxonlik - amri ma'ruf qilinadi. Hayit uch kun davom etadi.

Qurbon hayiti kunlari musulmonlar o'z ota-onalari, qariyalar va bemorlarni borib ko'radilar, ularga qo'llaridan kelgan yordamlarini ayamay hurmatini o'z o'rniga qo'yadilar, qurbonlik uchun so'yilgan mollarning go'shtlaridan bir qismini o'z urug'-aymoqlariga, xususan kam ta'minlangan oilalarga, beva – bechorlarga tarqatadilar. Qurbonlik marosimining yana bir tartibi so'yilgan mollar go'shtidan taom tayyorlab, xudoyi shaklida yig'inlar o'tkazadilar.

Islomda muqaddas kunlardan biri juma kunidir. Islom keng tarqalgan mamlakatlarda juma dam olish kuni deb e'lon qilingan. Shu kuni taqvodor musulmonlar o'z kunlarini toat-ibodat bilan o'tkazadilar. Uning muqaddas kun deb hisoblanishining sababini ruhoniylar quyidagicha izohlaydilar: Alloh olamni yaratishni juma kuni boshlagan. Muhammad ham, Ali ham juma kuni tug'ilganlar. Muhammad 622 yilda Makkadan Madinaga juma kuni hijrat qilgan. Islomning «shu'lasini» ham olamga ayni juma kuni tushgan. Shu sababli musulmonlar juma kunini ulug'laganlar.

Bu kunlarda masjidlarda Qur'on o'qiladi, va'zxonlik qilinadi, dindorlar bo'lgan xonadonlarda xudoyi o'tkaziladi. Shu kunlari payg'ambarning qilgan ishlari to'g'risida hikoya qilish savob hisoblanadi.

**Islomdagi oqimlar va mazhablar.** **Sunniylik**-bu islomda izchil, sobitqadam yo'nalish hisoblanadi. Musulmonlarning juda ko'pchilik qismi – 92,5 foizi sunniylikka e'tiqod qiladi. Qolgan 7,5 foizi shialikka e'tiqod qiluvchilardir. Sunna arabcha odat, an'ana, hatti-harakat tarzi degan ma'nolarni bildiradi. Sunniylik degan so'z arabcha «Sunna»-«muqaddas rivoyat», ya'ni Muhammad to'g'risida rivoyatlar va uning hadislarini to'plami degan tushunchadan olingan. Yana Sunna farzdan farqli ravishda bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan ko'rsatmalar, amallardir.

Sunniylik qisman Eron, Janubiy Iroq, Yaman, Markaziy Osiy, Kavkaz, Volga bo'yi, Sibir, Ural, Kichik Osiyo, Misr va Shimoliy Afrika, Indoneziya, Malayziyada keng tarqalgan. Uning muqaddas shaharlari Makka va Madinadir. Unda to'rtta shariat maktabi-hanafiylar, malikiylar, shofi'iyalar, xanbaliylar mazhablari bor.

**Shialik.** Guruh, partiya, tarafdorlar degan ma'nolarni beradigan arabcha «shia» so'zidan kelib chiqqan. Shialik o'z ahamiyat va tarafdorlari soniga ko'ra islomdagi ikkinchi yo'nalishdir. U VII asrning ikkinchi yarmida musulmonlarning maxsus va siyosiy guruhi sifatida yuzaga kelgan. U choryorlarning to'rtinchisi Ali tarafdorlarini birlashtirgan. U ko'p sektalarga bo'linib ketgan. Ular orasida ismoiliylar hozir



35 millionga yaqin tarafdorga ega bo'lib ogaxonlar boshchiligidagi hozir ham islom doirasida katta rol o'ynamoqda.

Shialar Arabistonda paydo bo'lgan teokratik davlat – xalifalik dagi oliy hokimiyat uchun oldib borilgan keskin kurash jarayonida kelib chiqqan. Xalifalikning barcha bosh lavozimlari 644 yildan boshlab Quraysh qabilasiga mansub bo'lgan xalifa Usmon boshliq Makkalik oqsuyaklar-muhajirlar qo'lga o'tgan.

Shialar Alidan boshqa barcha sunniy xalifalarni uzurpatorlar, ya'ni siyosiy hokimiyatni zo'ravonlik bilan qo'lga olgan kishilar deb hisoblaydilar. Bular Alining avlodi bo'lgan 12 imomdan iborat o'z sulolalarini ularga qarshi qo'yganlar. Ular Alini, uning o'g'illari-Hasan va Husaynni hamda ularning avlodlarini shahid, deb hisoblashgan.

**Horijiyalar.** (Al-xavorij) Bu oqimning nomi «chiqish», «qarshi bo'lish», «isyonchilar» ma'nolarini anglatuvchi arabcha «xaraja» so'zidan olingan. Bu oqim islomdagi ilk sektalardan hisoblanadi. U Ali bilan Muoviya o'rtasida xalifalikning oliy lavozimini qo'lga kiritish uchun olib borilgan keskin kurash jarayonida paydo bo'lgan.

Xorijiyalar 661 yili Alini o'ldirishgan. Muoviya xukmronligi yillarida (661-680) va undan keyin xorijiyalarning yirik qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan. Ular X asr Shimoliy Afrikada hatto o'z davlatlarini – rustamiylar sulolasini ham o'rgatishga muvaffaq bo'lishgan. Xorijiyalar o'z davrida birmuncha demokratik shiorlarni ilgari surishgan. Bu oqim tarafdorlari hozirgi paytda avvalgi siyosiy faolligini yo'qotganyu ular Jazoir, Umon, Tanzaniya, Livan kabi mamlakatlarda uchraydi.

**Sufizm** – islomdagi yirik oqimlardan biridir. uni sufiylik yoki tasavvuf ham deyiladi. Bu islomdagi diniy-mistik falsafiy oqim bo'lib, ta'limotning asosiy ma'nosi islom va xudoga munosabatdir. Zohidlik va mistik asosga qurilgan bu oqim ruhiy kamolotga erishishning asosiy yullari 4 bosqichdan iborat deb hisoblangan. Bular shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqatdan iborat bo'lib, har bir bosqichning murakkab talablari musulmonlar umrini tamoman qamrab olgan

Sufiylik iqimi tariqatlari o'rta asrlarda har xil joylarda turli ko'rinishda bo'lgan. Masalan, O'rta Osiyoda naqshbandiylik yassaviylik kubroviylik Kavkazda - muridizm, Tataristonda – voisovchilar va boshqa tarlari tarqalgan.

**Zaydiylar.** Feodal nizolar zaminida VIII asr o'rtalarida shia musulmonlari safidan yana bir guruh ajralib chiqib, mustaqil zaydiylar sektasini tashkil etgan. Bu sekta – Alining evarasi, Husaynning nabirasi 740 yili Kufada ummaviylar sulolasidan bo'lgan xalifa Xishomga qarshi xalq qo'zg'oloniga boshchilik qilgan Zayd ibn Ali nomi bilan atalgan va shialarning uchinchi imomi Zayd xalifa qo'shinlari bilan bo'lgan jangda o'z tarafdorlari bilan birga halok bo'lgan.

Zaydiylar 864 yili Eronning shimolida o'z davlatlarini to'zishgan. 901 yili esa ular Yamanda davlat xokimiyatini qo'lga olishgan. Bu davlat 300 yilgacha yashagan. Zaydiylar diniy ta'limotning shakllanishiga ishonishni, Qur'on «azaldan» mavjudligini, iroda erkinligi mavjudligini, diniy e'tiqodni amaliy harakat bilan mustahkamlash zarurligini tan olganlar. Ular ko'pgina shia marosimlariga amal qilishgan, biroq o'z turmush tarziga ko'ra sunniylarga ham yaqin turgan.

**Ismoiliylar.** Bu sekta tarafdorlari shialar orasida eng ko'pchilikni tashkil etgan. Sekta VIII asrning 2-yarmida Bog'dod xalifaligida paydo bo'lgan va imom Ja'farning o'g'li Ismoil nomi bilan atalgan. Ismoiliylar diniy ta'limotida go'yo butun olamni yaratgan «dunyoviy aql» va «dunyoviy ruh» ga e'tiqod etish asosiy o'rinni egallagan. Ularning ta'limotida neoplatonchilar falsafasi va buddaviylikning katta ta'siri sezilardi. Ismoiliylar turli davrlarda xalqlarga turli payg'ambarlarning yuborilishi – «dunyoviy aql» ning yerda namoyon bo'lishidir deb hisoblashardi. Ular yettita payg'ambarni – Odam Ato, Nuh Ibrohim, Ismoil, Muso, Iso va Muhammad (s.a.v.)ni tan olishadi. Ularning fikricha, imomlar payg'ambarlarning vorislari hisoblanadi.

XI asrdan boshlab ismoiliylar sinfiy ziddiyatlarning kuchayishi natijasida turli qismlarga bo'linib ketgan. Hozirgi paytda ismoiliylar O'rta Sharq mamlakatlarida, Hindiston, Uganda Keniya, Tanzaniya, Tojikistonning tog'li Badaxshon viloyatida mavjud.

**Druzlar.** O'z ta'limotiga ko'ra, bu sekta ismoiliylardan kelib chiqqan. Druzlar vahdoniyatga – Allohning yagonaligiga e'tiqod etadilar va 998-1021 yillarda xukmronlik qilgan fotimiylar xalifasi Hakimni xaloskor sifatida yerga ikkinchi marta keladi deb hisoblaydilar. Ular o'zlarining «muqaddas» yozuvlariga ega. Ularda diniy marosimlar unchalik rivoj topmagan, shu sababli masjidi ham yo'q. Barcha sektalar kabi, druzlar ham shariatni, shia imomlarini tan oladilar.

**Islomni e'tiqodga aylantirish davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati.** Islom g'oyalari yoyilishi arafasida O'rta Osiyo xalqlari arablardagiga nisbatan rivojlangan madaniyatga ega bo'lganlar. VIII-IX asrlar

bo'sag'asida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida yashagan xalqlarni ilmiy adabiyotlarga saq massaget, xorazmiy, sug'd, baqtriyaliq uyoshon, tohir, qo'ng'ir, eftalit (oq xun)lar deb kelingan. Hozirgi O'zbekiston hududida, hususan Toshkent vohasida miloddan avvalgi 1 min yillikning o'rtalaridayoq turk elati va madaniyatini o'zida ifodalagan qabilalar vujudga kelgan. Ko'chmanchm turkiy qabilalarning ko'pchiligi miloddan oldingi X-U! Arlardayoq o'troqlangan, shaharlarda hunarmandchilik savdo-sotiq, qishloq joylarda, tog' etaklarida chorvachilik rivojlangan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy yaqinlashuv ham amalga osha boshlagan.

O'rta Osiyoda boshqa joylardagi kabi sof quldorlikka asoslangan munosabatlar bo'lmagan. Feodal munosabatlari ham demokratik elementlari bilan ajralib turgan. Chunki sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchiliqerkin hunarmandchilik an'analari u munosabatlarga alohida mazmun kiritganki, bu xolat chuqur ilmiy tadqiqotga muhtojdir. Eron, Hindiston va Xitoy mamlakatlari bilan savdo-sotiq olib borilgan. Yunon, hind va O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining aralashib ketishi tufayli Sharqda o'ziga xos juda yuksak ellinistik madaniyat vujudga kelgan. O'rta Osiyo «Ipak yo'li» orqali Sharq bilan G'arbni bir-biriga bog'lovchi, tajribalarni yoyuvchi maskan bo'lgan. Natijada Gresiya va Hindiston madaniyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu yerda pul-tovar munosabatlari ham rivojlangan. Tarixiy asarlarda Baqtriya «2000 shaharli mamlakat» sifatida tilga olingani bejiz emas. 1932 yilda Amudaryo bo'yida eski Termiz yaqinidagi Ayritom xarobasidan ikkita toshtaxta topilgan. Ularda kuy chalayotgan uch ayol obrazi tasvirlangan. Bu faqat monumental san'at bo'libgina qolmay, balki o'tmishda O'rta Osiyoda musiqa madaniyati ham rivojlanganligidan dalolatdir. 1965 yilda Qadimiy Afrosiyob shaharchasi xarobalaridan topilgan tasviriy san'at obidalari VII asrga oid bo'lib, go'zalligi jihatidan shu vaqtgacha jahonda topilgan yodgorliklardan ustun turadi.

Markaziy Osiyo xududida ibtidoiy djamo'a tuzumining yemirilishi bilan miloddan avvalgi 2-ming yillikning oxiri, 1-ming yillikning boshlarida Baqtriya, So'g'd, Xorazm, Parfiya kabi davlatlar vujudga kelgan.

Miloddan avvalgi VI asrda O'rta Osiyoning katta qismini Eron shohi Kir P bosib olib, uni ahmoniylar davlati tarkibiga kiritgan, so'ngra Iskandar Zulqarnayn bu yerlarni ishqol qilib, juda katta boyliklarni, madaniy obidalarni, jumladan, 12 ming xo'kiz teriga tilla suvi bilan yozilgan «Avesto»ning yagona kitobini ham olib ketgan.

VII asr oxirlari va VIII asr boshlaridan boshlab arablar O'rta Osiyo yerlarini istilo qilishga kirisha boshlaganlar va VIII asrning birinchi yarmida uni o'zlariga to'la bo'ysundirishga muvaffaq bo'lganlar.

O'lkada arab istilochilariga qarshi qattiq qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan. Muqanna boshliq qo'zg'olonchilarni arablar faqat mahalliy aholining orasini bo'zish vositasi bilan bostirishga muvaffaq bo'lganlar. Ammo bir yomon ishning yaxshi tomoni ham bo'lar ekan. Arablar O'rta Osiyoda VII-VIII asrda avj olib ketgan va xalqni holdan toydirgan qabilalar o'rtasidagi urushlarga barham berdilar. Natijada arab xalifaligiga qaram bo'lgan yirik davlat vujudga keldi. Bunda Somoniylarning alohida o'rni bor.ular islomni keng yoyishda katta rol o'ynaganlar. Ayni chog'da dehqonchilik hunarmandchilikni rivojlantirish uchun ilm-fanga yo'l ochganlar. «davlati Somoniyon» asarining muallifi .Ne'matovning yozishicha, o'sha zamonda Movarounnahr va Xurosonda qishloq ho'jaligi, hunarmandchilik va chorvachilik yuksak darajada rivojlangan. Chunonchi, Buxoro viloyatida, Zarafshon vodiysida, Shohrud, Karmish, Shopurkon, Varaxsha kanallarida suv limmo-lim oqib, butun atrofni yashnatib turgan. Samarqand, So'g'd, Afg'oniston, Shimoliy Eron, Xorazm yerlaridan iborat juda katta xududda turkiy qabilalar jamoasining o'zaro birikishidan iborat Qorahoniylar saltanati vujudga kelgan. Bular davrida ilm-ma'rifat, madaniyat ancha rivoj topib, qator yuksak ilmiy, ijtimoiy-falsafiy asarlar asosan turkiy tilda yaratilgan. Bu asarlar sirasiga birinchi navbatda eslatib o'tilgan Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Baxt-saodatga eltuvchi bilim» asarlari bilan bir qatorda Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul-haqoyiq», Tavsif, Rabg'o'ziyning «Qissai Rag'bo'ziy» kabi asarlari kiradi.

Ma'naviy va moddiy hayotning turli sohalarida islom nuri ila yo'g'rilgan qadriyatlar izchillik bilan saqlanib, davom etib kelmoqda. To'ylaru ma'rakalarda, turli taomillarda, turmushning turli onlarida xayrli an'analari ko'pincha Qur'on suralari, oyatlari, hadis namunalari orqali odamlar qalbidan o'rin olmoqda. Bunday ehtirom o'tmish avlodlar urf-odatlariga sadoqat ramzi sifatida qabul qilinmoqda va ardoqlanmoqda. Oddiy xalq - ziyoli ham, ishchi ham, dehqon ham faqat tinchlik va hayot farovonligini orzu qiladi. Buni amalga oshirishda esa asriy ezgu aqidalar, qadriyatlar timsoli bo'lgan islom an'analari ham ma'naviy va amaliy yordam beradi.

### **Mustaqil ta'lim uchun adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Xushyorlikka da'vat. O'zbekiston axborot agentligining savollariga javoblar. «O'zbekiston ovozi», 1999, 25 iyun soni.
2. Yo'ldoxo'jayev H. Rahimjonov B., Komilov M., «Dinshunoslik».-T.: 2001.
3. Jabborov Iso, Jabborov Sanjar. Jaxon dinlari tarixa.- T.: «O'zbekiston» 2002.
4. Dinshunoslik asaolari.-T.: «O'zbekiston», 1995.
5. Xusnitdinov Z. Islom va mazhablar. – T.: 2000.
6. Karimov Ibrohim. Ma'naviyat, falsafa va hayot.-T.: fan, 2001.
7. Xujamurodov I., Sa'dullayev N., Ma'naviy barkamollik – ziynatdir.-T.: Mehnat, 2001.

## 7.-Mavzu. ISLOMNING ASOSIY MANBALARI.

### R e j a :

1. Qur'oni Karim suralarining to'planishi va mushaf qilinishi.
2. Qur'oni Karimning ichki to'zilishi.
3. Hadisi Sharif.
4. Shariat (manbalari, xuquqiy mazhablar, qonan-qoidalari).

**Qur'oni Karim islom dinining muqaddas yozuvi.** Qur'oni Karim Yer yuzi musulmonlarining muqaddas kitobi, dasturulamani, diniy ahkomlar manbaidir.

Qur'on so'zi arabcha, «qiroat qilish», ya'ni o'qish fe'lidan olingan bo'lib, «o'quv» yoki «o'qish» ma'nosini bildiradi. Ko'p dinlarda, ular vujudga kelgan davr tushunchasiga xos ravishda bularni «yozuv» yoki «yozuvlar» (masalan: xristian dinida «pisanie» yoki «svyashennoye pisanie») deb atash odat bo'lgan. Bunga o'xshash nomlar islomda ham Qur'onga nisbatan keng qullanilgan. Masalan, «Kalomi Alloh» (Alloh so'zi), «Kalom ash-sharif» (Muqaddas so'z), «Mushaf ash-sharif» (Muqaddas yozuv bu yerda «mushaf» yozuv ma'nosida) va h.k.

Qur'oni Karimning oyat va suralari Muhammad payg'ambar davrlarida og'zaki qabul g'ilinib, yoddan talaffuz qilinar edi. Uning Qur'on shaklida matnini to'plash va kitob shakliga keltirish Muhammad payg'ambardan so'ng amalga oshirilgan.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) nozil bo'lgan oyatlarni kelgusida bir mukammal mushabi sharif sifatida keltirish uchun sahobai kiromlardan to'rt kishini – Ali ibn Abu Tolib, Muoviya ibn Abu sufyon, Ubay ibn Ka'ab, Zayd ibn Sobitni o'zlariga kotib qilib olgan ekanlar. Sahifalarni jam qilish va to'liq bir kitob shakliga keltirish harakati janobi payg'ambarimiz alayhissalom vafotlaridan keyin Abu Bakr Siddiq xalifaligi davridan boshlangan. Bu harakat ikkinchi xalifa hazrati Umar davrlarida davom etib, hazrati Usmon ibn Affon xalifalik zamonlarida tugallangan. Qur'on sura va oyatlarini to'plash, tartibga solish Zayd ibn Sobitga topshirilgan. U o'zi va payg'ambarga yaqin bo'lgan ishonchli kishilar yoddan bilgan matnlarni to'plab ko'chirgan. 651 yili to'zilgan bu to'plam «mashaf», ko'pincha «Usmon mushafi» nomi bilan yuritilgan. Yangi tuplamning asl nusxasi Madinada qoldirilgan undan uch nusxa ko'chirilib, Kufa, Basra, Damashq shaharlariga yuborilgan. Usmon mushafi muqaddas yozuv sifatida tasdiqlanib, rasmiy ravishda e'tirof etilgan. Bulardan bittasi O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda.

Qur'on – islomning asosi, diniy marosimlar dasturi bo'lishi bilan birga axloqiy da'vat, huquqiy me'yorlarni, marosim va an'analarni, millionlab inson hayoti va yashash tarzining eng muhim jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan yozuvdir. Uning oyatlari ommaviy va xususiy marosimlarda, namoz, davlat va oila bayramlarida, kundalik hayotga aloqador turli anjumanlarda o'qilgan. Bu yozuvdagi juda ko'p so'z va iboralar, tilidan va millatidan qat'i nazar, islomni qabul qilgan xalqlarning adabiy tiliga, kundalik muomala tiliga asrlar davomida singib ketgan.

Qur'on jahon adabiyotining o'ziga xos bir yodgorligidir. U Sharq xalqlarining ijtimoiy va ma'naviy rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan butun bashariyatning madaniy merosi qatoriga kiradi.

**Qur'oni Karim suralarining to'planishi va mushaf qilinishi.** Qur'on islomning muqaddas kitobi sifatida «Allohning mo'jizali kalomi bo'lib, Muhammadga vahiy orqali tushgan, Tilovoti ibodat hisoblanuvchi kitob» deb tavsiflanadi.

Rivoyatlarga ko'ra, Qur'on sura va oyatlari Muhammadga parcha-parcha tarzida vahiy qilib borilgan; bu vahiyning birinchi bayoni «Laylatul qadr» kechasi boshlanib, uning vafotigacha, ya'ni 23 yil davom etgan deb hisoblanadi. Keyinchalik islomda diniy an'ana buyicha hijradan 12 yil oldin ramazon oyining 27-kuniga o'tar kechasi melodiy hisob bilan 610 yilning 31 iyulidan 1 avgustiga o'tar kechasi deb hisoblanadi. Qur'onni vahiy qilishning boshlanishi to'g'risidagi tasavvur uning 97- «al-Qadr» surasida ifodalangan.

Qur'on matnlarining to'planishi, tahrir qilinishi va muqaddas yozuv sifatida e'tirof etilishi Muhammad vafotidan keyin 20-25 yil davomida, dastlabki choriyorlar davrida amalga oshirilgan.

Qur'onning hozirgi nushasidagi 114 ta sura taqqoslab ko'rilsa, Suhufda hammasi 109 ta sura bo'lganligi va birmuncha suralar bo'lmaganligi aniqlangan. Shundan ham ma'lum bo'ladiki, Suhuf tarkibi to'la bo'lmagan.

Hozirgi kunda Islom olamida 4 ta qadimiy Mushaf nusxalarining borligi ma'lum. Ulardan biri madinada saqlanayotgan asl nusxa bo'lib, islom manbalarida u «Imom» nomi bilan tilga olinadi. Ikkinchi nusxa Ka'bada, uchinchi nusxa Qohiradagi Misr milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Turtinchisi, Toshkentda O'zbekistonda xalqlari tarixi muzeyida saqlanib, 1989 yil boshlarida O'zbekiston musulmonlari diniy idorasiga topshirilgan.

Ayrim tadqiqotlarda Qur'onning oxirgi tahriri Umaviylar xonadonidan bo'lgan xalifa Abd al-Malik xukmronlik qilgan davrda (685-705) amalga oshirilgan, degan fikr ham uchraydi. Lekin aslida bu tahrir emas. Shu davrgacha Kur'on matnida arab yozuviga xos bo'lgan qisqa unilarning belgilarigina emas, balki harflarning ustiga va ostiga qo'yiladigan kalta chiziqcha ham amalda bo'lmagan. Bu hol yozuvning o'qilishida qiyinchilik va talaffo'zida nomuvofiqlik tug'dirar edi. Shuning uchun bu davrda Iroq xokimi bo'lgan al-Hajjoj Qur'on matnlarining o'qilishidagi chalkashliklarga xotima berish maqsadida shunday nuqtalar va belgilar qo'yib chiqishni buyurgan. Demaq bu aslida faqat unli harf belgilarini qo'yish bilan bog'liq ish bo'lgan va bu vaqtda Qur'on matniga o'zgartirishlar kiritish imkoniyati bo'lmagan.

Yuqorida ilk manbalar asosida bayon etilgan Qur'on suralarining o'qilish davrlari, ular bilan bog'liq bo'lgan tarixiy voqealar, Muhammad vafotidan keyin suralarning to'planishi va musxaf qilinish, yagona kitob shakliga keltirilishi tafsilotlari bilan tanishgan har bir kitobxon islomshunoslik va qur'onshunoslikning qanday mashshaqatli yullarini bosib o'tganini o'zi tasavvur qilishi va zarur xulosalarni chiqarib olishi mumkin.

**Qur'oni Karimning ichki to'zilishi.** Qur'onda 114 ta sura, 6226 ta oyat borligi ma'lum.

Arabcha «sura» atamasining Qur'on vujulga kelgan davrdagi lug'aviy ma'nosi devor tiklashda teriladigan g'isht yoki toshning har bir qatorini anglatgan. Binobarin, uni «tizma» ma'nosida tushunish mumkin. Qur'on matnlarida esa «sura» so'zi muayyan ravishda «oyatlar to'plami» (oyatlar tizmasi) ma'nosini beradigan joylar ko'p uchragani sababli, bu atama asosan «oyatlar yig'indisi» ma'nosida tushuniladi.

Suralar Qur'onda o'z mazmuniy izchilligiga yoki o'qilgan vaqtiga, ya'ni xronologik tartibiga qarab emas, balki xajmiga qarab joylashtirilgan. Suralarning xajmi ham har xil: eng katta hajmga ega bo'lgan 2-surada 286 oyat bor, eng kichik suralar faqat 3 oyatdangina iborat.

Tarixiy voqealar aniqroq ko'zda tutilgan holda Madina davriga oid 24 surani 5 davrga ajratish mumkin.

1 – Madina davri (622 yil oktabrdan 624 yil martigacha), Muhammad Madinaga ko'chib kelgandan makkaliklar bilan birinchi yirik to'qnashuv – Badr jangigacha o'qilgan 4 sura (2, 98, 64, 62) bu davrga kiradi. Bu suralarning o'qilgan davriga mos tartibda joy olganligi shubha uyg'otmaydi.

11 Madina davri (624 yil martidan 625 yil martigacha), Badr jangidan keyin Uhud jangigacha o'tgan bir yil ichida o'qilgan 3 ta surani (8, 47, 3) o'z ichiga oladi.

111 Madina davri (625 yil martidan 627 yil martigacha). Uhud jangidagi mag'lubiyatdan keyin Handaq jangigacha o'tgan 2 yil ichida beshta sura (61, 57, 4, 65, 59) o'qilgan.

1U Madina davri ( 627 aprelidan 630 yil yanvarigacha). Hangg'daq jangidan so'ng Makkaning olinishigacha o'tgan salkam uch yil ichida o'qilgan 8 ta sura (33, 24, 63, 58, 22, 48, 66, 60) shu davrga kiradi.

U Madina davri (630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka olingandan keyin Muhammad payg'ambarning vafotigacha utgan 2 yildan ortiqroq davr ichida o'qilgan 4 ta sura (110, 49, 9, 5) shu davrga kiradi.

«Oyat» so'zi faqat Qur'onning o'ziga xos ibora bo'lib, «mo'jiza», «hikmat», «ilohiy alomat, belgi» ma'nolarini anglatadi.

Oyatlarining ihajmi ham har xil: ayrim oyatlar bir necha tugal fikrni bildiradigan katta bir jumladan (masalan, 2, 256-oyat-al-kursiy) iborat bo'lgani holda, ayrim oyatlar faqat ikki so'zdan (gapning bir qismidan) gina iborat. Masalan:

Osmon yorilganida.

Yulduzlar (har tomonga) sochilganida.

Dengizlar qo'shilib, to'siqlar ochilganida.

Qabrlar ag'darilganda (Qiyomat qoyim bo'lganida).

(Har bir) jon o'zi (dunyoda) qilib o'tgan va qoldirgan (barcha) narsalarni (amallarni) bilur! (82,1-5).

Qur'on matni sura va oyatlardan tashqari yana 30 ta «juz» (o'zbekcha «pora»)larga bo'lingan. Shuni aytish kerakki, pora sura va oyatlarga o'xshab Qur'onning ilk to'zilishi bilan bog'liq emas, balki o'qishda



qulaylik tug'dirish uchun keyinchalik Qur'on matnini hajm jihatdan teng bo'liklarga bo'lishdan iborat bo'lgan. Shu sababli eng uzun 2-sura poradan ko'proq bo'lgani holda, oxirgi qisqa suralardan 37 tasi bir porani tashkil etadi.

Qur'on jahondagi ko'p tillarga tarjima qilingan. Uni G'arbiy Yevropa tillariga tarjima qilish IX asrdan, rus tiliga ag'darish XVIII asrdagi Pyotr I ning tashabbusi bilan boshlangan. 1790 yilda nashr etilgan M.N.Verovkin tarjimasini e'tiborli rus olimlarining fikriga ko'ra, A.S.Pushkinning mashhur «Podrajaniya Koranu» (Qur'onga tatabbu'lar) asariga manba bo'lgan. G.S.Soblukovning arabchadan dastlabki ruscha tarjimasini Qozondan uch marta (1878,1894,1907) nashr qilingan. Qur'onning akademik I.YU.Krachkovskiy rus tiliga qilgan tarjima nusxasi uning vafotidan keyin (1963,1986 yillarda) nashr qilingan.

**Hadisi sharif.** Arabcha sunna (as-sunna, ko'plikda sunan)-yo'l, yo'nalish, ya'ni «rivoyat», «naql», «xotira», «odat», «an'ana», «hatti-harakat» ma'nolarini anglatadi.

Sunna islomda Qur'ondan keyingi, uni to'ldiruvchi manba, islom islohiyoti va shariatining ikkinchi asosi sifatida e'tirof etilgan. U VII asr o'rtalaridan e'tiboran yig'ila boshlagan. Unda arab xalifaligidagi sinfiy munosabat, ijtimoiy ziddiyatlar, islom mafkurasi doirasidagi ichki kurashlar o'z ifodasini topgan. Islomgacha davrdagi Arabistonda bu nom bilan odat tusini olgan ahloqiy-huquqiy yo'l-yo'riqlar majmuasi – Shimoliy Arabistondagi eski jamoaning oddiy huquqlari atalgan. Sinfiy jamiyat va islom vujudga kelgandan so'ng bu eski arab majusiy sunnasi rad etilib, asta – sekin yangisi, musulmon sunnasi bilan almashtiroila boshlangan.

Musulmon sunnalari ko'plab hadislardan tashkil topgan. Hadis so'zining dastlabki ma'nosi (ar. Ko'plikda «ahadis» so'zidan) – «xabar», «hikoya», «bildirish», tor ma'noda - «parcha»(sitata). Rasmiy ma'noda hadis – Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) so'zlari va amaliy ishlari haqidagi rivoyatlardir. Bu ma'noda hadis faqat Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) so'zlariga nisbatangina ishlatiladi.

Hadis-Islomda Qur'ondan keyingi muqaddas manba hisoblangan. Bunda Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) ning hayoti, faoliyati va ko'rsatmalari, uning diniy, ahloqiy dasturlari ham o'z ifodasini topgan. Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) biror gap aytgan yoki ma'lum ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yohud boshqalarning qilayotgan ishini ko'rib, uni man etmagan bo'lsa, shu uch holatning har biri hadis deb atalavergan. Ma'lumki, hadislarda islom ahkomlari, ya'ni farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabi amal turlaridan tashqari ahloq-odobga doir dasturlar talqin etiladi. Unda xalq orasida keng tarqalgan ahloq-odobga oid maqol, qimmatli hikmatli gaplar ham qamrab olingan.

Hadislarda ibodatning tartib qoidalari va ularni astoidil bajarishga da'vat etish bilan birga insoniy fazilatlar keng tashviq qilingan, insoniylik sha'niga dog' tushiradigan razil hatti-harakatlar keskin qoralangan. Shuning uchun ham islomning ilk tarqalish davridanoq musulmonlar orasida hadislarda juda katta ahamiyat berilgan. Eshitgan har bir hadisni yanglishmay, asl holicha boshqalarga yetkazishga qat'iy rioya qilingan. Bu to'g'rida Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) o'zi musulmonlarni tez-tez ogohlantirib turgan. Hadis mazmuni va iborasini bo'zib yoki o'ziga yangi hadis to'qib tarqatuvchilar qattiq qoralangan. Bunday talabchanlik Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan ancha keyingacha ham hadislarning sof holda saqlanib turishida imkon bergan.

Hadislar asosan Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan keyin yozila boshlagan. Islomda Muhammad (s.a.v.)ga Payqambarlik uning 40 (qirq) yoshida nasib bo'lgan, deb hisoblanadi. Shunga ko'ra, Qur'on oyatlari payg'ambar umrlarining oxirigacha, ya'ni 23 yil davomida turli munosabatlar bilan nozil bo'lib turgan. Payg'ambar safdoshlari – sahobalar bu oyatlarni maxsus sahifalarga yozib borganlar, ularning ba'zilari payg'ambarning aytgan so'zi va hatti-harakatlarini ham yoza boshlaganda payg'ambar bu ishni davom 'tirishni taqiqlagan va bunga ular Qur'on bilan Sunnani ajratolmay qolishlaridan cho'chishligini sabab qilib ko'rsatgan.

Ilk yozilgan hadislar qatoriga Muhammad Payg'ambar (s.a.v.)ning horijiy o'likalarga – Vizantiya imperatoriga, Eron shohiga, Misr ham Habashiston hukmdorlariga yo'llagan maktublari ham kiradi. Undan tashqari ko'plab vasiqa va hujjatlar ham bo'lganki, ular ham ilk bor yozilgan hadislardan hisoblanib, ularda islomga da'vat etish, muayyan vazifalarga tayinlash, yer va undan olinadigan soliqlar, imon va tavsiya maktublari, payg'ambarga kelgan xatlarga javoblar o'rin olgan.

Hadislarni saqlab, kelajakka yetkazuvchilar birinchi navbatda sahobalar-payg'ambarning qarindoshlari, do'stlari, yordamchilar va shogirdlari, ularning vafotidan keyin asosan Madinada yashab kelganlar hisoblanganlar.

Umuman «sahoba» so'zi arabcha bo'lib, «suhbat» so'zidan olingandir. Hadislardan biriga ko'ra payg'ambarni ko'rgan, u bilan muloqotda bo'lgan har bir musulmonni «sahobiy» deyilgan. Imom Bo'xoriy

ham shu fikrni tasdiqlagan. Ibn Hambal ta'biricha, Payg'ambar bilan bir yil, yo bir oy, yo bir kun va yoki hatto bir soat suhbat etgan, yo bo'lmasa hayotida bir marta bo'lsa hamki uni ko'rgan musulmon kishi sahobalardan hisoblanaveradi.

Shakllangan an'anaga ko'ra hadis ikki qismdan iborat bo'lishi kerak edi:

1. Isnod (ar. Aynan-«tayanch»), ya'ni shu hadisni yetkazgan kishilarni sanab o'tish;
2. Matn, ya'ni hadisning mazmuni.

Ishonchliligiga qarab hadislar uch guruhga ajratilar edi. Hikoya qiluvchilar ro'yxati hech qanday shubha tug'dirmasa, bunday hadis sahih (ar. Ishonchli, to'g'ri) deyilgan. Agar hikoya qiluvchilar ro'yxatida ayrim nuqsonlar bo'lsa, masalan, isnodda aytilgan biror shaxs kam tanilgan bo'lsa yoki hamma muhaddislar uni benuqson deb topmagan bo'lsa, yoki ro'yxatda biror xalqa, bo'lim o'zilib qolgan bo'lsa, hadis to'la qimmatga ega deb tan olinmasa-da baribir, qabul qilingan; bunday hadis hasan (ar. yaxshi, marhamatli) deb nomlangan. Nihoyat, agar hikoya qiluvchilar ro'yxatida taqvodorli yoki ahloqiy obru-e'tibori nuqtai-nazaridan muvofiq kelmaydigan kishilar bo'lsa, hadis ishonchsiz hisoblangan va a'if (ar. zaif) deb nomlangan.

Hikoya qiluvchilar ro'yxati muntazam bayon etilgan bo'lsa, bu hadis mutassil deyilgan. Birorta nom, ayniqsa ikkinchi nom ya'ni sahoba shogirdi nomi tushirib qoldirilgan bo'lsa, munqati (o'zilgan) deyilgan. Hadis isnodida shogird-tabi' ko'rsatilgan bo'lib, hadis qaysi sahobadan eshitilganligi noma'lum bo'lsa, unda mursal-«tushirib qoldirilgan» deb nomlangan.

Hadislar VII asr ikkinchi yarmi IX asr oxirlarida yaratilgan hadislarining ko'p qismi xalifalik mamlakatlarida ijtimoiy munosabatlar, tarixiy siljishlar va o'sha davrda shakllangan huquqiy qarashlarni o'zida aks ettirgan. Hadislar ilk o'rta asr davrida xalifalik mamlakatlari ijtimoiy va davlat taraqqiyoti tarixi uchun manba ahamiyatiga egadir.

**Shariat manbalari.** Fikh ilohiyotning bir sohasi sifatida musulmon huquqshunosligida, shariat qonun - qoidalarini ishlab chiqishda, islom tarixida juda muhim o'rin egallagan. Faqihlarning g'ayrati bilan birin-ketin shariat manbalari ishlab chiqilgan, shariat qonunlari rasmiylashtirilib, uning anchagina tuplamlari to'zilgan. Shariat jamiyatdagi moddiy va ma'naviy hayotning barcha tomonlarini o'z nazorati ostiga olgan edi.

Islom ilohiyoti – kalomning asoschilaridan biri Al-Ash'ariy (873-935) fiqhni «Musulmonlarning muqaddas huquqi» deb atagan edi. Fiqh shariatning g'oyaviy va amaliy qarashlari, tavsifi sifatida taqvodor musulmonning turmush qoidalari bo'lib, islomdagi ijtimoiy qarashlarning asosiga aylanib qolgan.

Mujtahid (arab. – intiluvchi, g'ayrat, harakat qiluvchi) – urta asrlarda islomda ijthod huquqiga ega bo'lgan, ya'ni mustaqil hukm chiqara oladigan shaxsdir. Sunniylarda diniy huquq mazhablarining asoschilari, shialarda yuqori martabali ruhoniylar va diniy huquqshunoslar mujtahidlar uch darajaga – oliy, o'rta, quyi darajalarga bo'linganlar.

Ijmo' – (arab.- birdamliq yakdillik bilan qabul qilingan qaror, diniy jamoaning yagona fikri). Qur'on, hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan huquqiy masalalarni hal etishda faqih va mujtahidlarning to'planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishi (fatvo berishi). Ijmo' 3-manbai sifatida muayyan masalalarni hal qilishda oyat o'jizlik qila boshlasa, biror hadis sharxlangan. Shu asosda turli-tuman qo'shimcha, og'zaki talqinlar paydo bo'lgan. Buni mashhur ulamolar to'planib, yakdillik chiqargan hukmi deb tushunish kerak. Bu guruh ulamolarning hukmiga asoslanib chiqarilgan fatvolar ilohiy deb ham hisoblanadigan bo'lgan. Ijmo'ning talqiniga quyidagi hadis ham misol bo'la oladi: «Qaysi bir xaqda qirq kishi va undan ziyod odamlar biror ishga guvohlik bersalar, tangri ularning guvohliklarini qabul etadi».

**Diniy-huquqiy mazhablar.** Hanafiya (Imomi A'zam) mazhabi. Bunga Abu Hanifa (taxallusi Imomi A'zam – buyuk imom – 699-767) asos solgan. U eng yirik huquqshunoslardan biri bo'lib, shariat huquqini tartibga solgan, qiyosan tatbiq etgan, istihson tartib usulini (manbalar asosida chiqarish mumkin bo'lgan xulosa yoki hukmlardan musulmonlar jamoasi uchun maqbulrog'ini qabul qilib) ishlab chiqqan, mahalliy xalq huquq-qoidalarini – odatni shariat bilan kelishtirib qullanishni joriy etgan huquqshunoslikdan oqilona foydalanish unsurlarini kiritgan.

Hanafiya mazhabi sunniylik yo'nalishiga mansub bo'lgan musulmonlarning 47 foizini o'z ichiga oladi. Hozir ham Respublika tuprog'idagi sunniylarning oila, nikoh, taloq va boshqa masalalarda shu mazhabga tayanadilar.

Molikiya mazhabi asoschisi Molik ibn Onas (713-795) «Ashob al-Hadis» (Hadis tarafdorlari) oqimining yirik namoyondasi bo'lib, Muhammad davridagi diniy huquq tartibini ëqlab chiqqan. O'zining «Al-Muvatto'» (Ommaviy, Barchaga tushunarli) asarida Qur'on va Sunnani aqlga asoslangan holda talqin qilishga qarshi chiqqan. U muhofazakor ilohiyotchi faqihlardan biri edi. Bu mazhab tarafdorlari o'zlarining nomo'tadilligi bilan ajralib turardi. Ular hanafiylarga nisbatan qiyosiy qo'llashda ancha chek qo'yishardi. Ammo o'zlarining istisloh qoidalari bilan hanafiyaning istihsoniga yaqin turardilar. Hozirgi davrda Molikiya mazhabi Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan bo'lib, sunniylikdagi musulmonlarning 27 foizini tashkil etadi.

Shofi'iy mazhabi. Uning asoschisi imom ash-Shofi'iy (767-820) kuchli ilohiyotchi faqihlardan biri bo'lgan; Makkada yashagan, Yamanda qozilik qilgan. Ali avlodlari bilan yaqinlashganligi uchun 803 yilda qamoqqa olingan. Avf etilganidan so'ng Misrga kelib, Molikning shogirdi sifatida faoliyat boshlagan. 810 yildan Bog'dodda o'z ta'limotini targ'ib qilgan. Uning «Kitob al-umm» tuplami islom huquqini an'anaviy tartib-qoidalar bilan bog'lashga qaratilgan, fiqh asoslariga to'la tavsif berib, ijmo'dan foydalanishga alohida e'tibor qilingan.

Suriya va Misrda shakllangan bu mazhab hozirgi vaqtda IndoneziyaYU Sharqiy Afrikaning ba'zi mamlakatlarida, janubiy arab sultonliklari musulmonlari orasida tarqalgan bo'lib, sunniylikdagi musulmonlarning 17 foizini tashkil etadi.

Hanbaliya mazhabi. Uning asoschisi imom Ahmad Hanbal ibn Xilol ibn Asad az-Zuxayliy al-shayboniy 780 yili Bog'dodda tug'ilib, shu yerda 855 yil vafot etgan. Hadis to'plash niyatida Suriya, Hijoz Yaman, Kufa va Basraga ko'a sayohat qilgan va 40 mingdan ortiq hadisni jam etgan oyati jildlik «Musiad al-Imom Ahmad» (imom Ahmadni tayanchi) asarini yaratgan. U mustahkam e'tiqodli sunniylik nuqtai nazaridan xalifa Ma'mun davrida davlat dini bo'lmish mu'taziylikka qarshi kurashgani uchun bir necha bor qamalangan va jazolangan. Uning huquq tartiboti o'ta torligi, diniy masalalarda Qur'on va Sunnaga qattiq rioya qilishligi, erkin fikr yuritish va talqin etishga, har qanday yangilikka qarshiligi, shariat tartib-qoidalari rioya etishda qat'iy mutaassibliyi bilan ajralib turardi.

X asrda Eronda, XI-XV asrlarda Suriya va Falastinda Hanbaliyaning izdoshlari bo'lgan. XVIII asrga kelib, ibn Hanbal ta'limoti hozirgi saudiya Arabistonidagi vahobiylarning shakllanishiga asos solgan. U yerda Hanbaliyaning ilk islomga xos qonunlari hozir ham amalda.

**Shariat joriy etgan tartib va qoidalar.**1. Farz (arab.-majburiyat) diniy-huquqiy kategoriya bo'lib, bevosita Qur'onda qayd etilgan, har bir musulmon qanday bo'lmasin bajarishi majbur shart bo'lgan qat'iy talab, tartib-qoidalardir.

2.Mandub (arab.- tavsiya etilgan) – diniy-huquqiy kategoriya sifatida bajarsa lozim va savob deb tavsiya etiladigan, lekin majbur va gunoh bo'lmagan harakatlar (masalan, qurbonliq mavlud, majburiy bo'lmagan namozlarni o'qish va e'tiqof, xayr-ehson va hokazolar). Bular diniy nuqtai nazaridan yaxshi va maqtovgga sazovor, oxirtda taqdirlanadi, ammo ijro etmagan taqdirda mas'uliyat talab etilmaydi.

3.Muboh. (arab. – umumiy, hech kimga taaluqli bo'lmagan)- shariat kategoriyasi bo'lib, tor ma'noda ijozat beriladigan barcha hatti-harakatlar. Ijrosi rag'batga yoki mukofotga sazovor bo'lmasa ham, gunoh hisoblanmaydigan, u dunyoda taqdirlanmaydigan, inson hayoti va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan oddiy xatti-harakatlar (ovqatlanish, uxlash, o'yin-kulgu, uylanish, dam olish va h.k.). bu kategoriya joiz kategoriyasi kabi majburiy deb ham hisoblanmagan, ularni bajarish ham taqiqlanmagan.

4.Makruh (arab. – rad etilgan, qoralangan, nomaqbul) - qat'iy taqiqlanmagan, ammo nomaqbul hisoblangan va rad etilgan xatti-harakatlarni ifodalovchi shariat kategoriyasidir. Diniy e'tiqod nuqtai nazaridan nokeraq nomaqbul, ammo qat'iy rad etilmagan. Bu taqiqlarni buzganlik uchun jinoyat yoki gunoh hisobida jazolanmaydi, imonni saqlash uchun jinoyat, makruh ishlarni qilmaslik lozim, ammo bu dunyoda ham, u dunyoda ham jazoga tortilmaydi.

5.Mazhura – yoki harom (arab.- man etilgan, saqlanadigan narsa) musulmonlar uchun qat'iy taqiqlangan xatti-harakat, muomala, qiliq, fikr, xayol, e'tiqod, narsalar, yeyish man etilgan oziq-ovqat va boshqalar.

Musulmonlar xulq-atvori, muomala va yurish-turishini chegaraga oluvchi shariatning 5 kategoriyasida diniy-huquqiy mazmun mujassamlashgan. Uning amri, ahloqiy-marosimiy taqiqlari jinoiy va fuqarolik huquqi qonunlar bilan aynan ma'nolarda ishlatilgan, ya'ni diniy gunoh jinoiy va huquqiy gunohlardan farq qilmaydi.

Islom ta'limotida nimaiki halol deb hukm qilingan bo'lsa, bu narsa inson uchun foydali ekanligi, agar xarom deyilgan bo'lsa zararli ekanligi musulmon xalqlarining tarixiy tajribasi, turmush tarzida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

### **Mustaqil ta'lim uchun adabiyotlar :**

1. Qur'oni Karim. Abdulaziz Mansur tarjimasini. Mas'ul muxarrir Hamidulla Karomatov.-T.: 2001.
2. Al-Buxoriy. Hadis 1-4 jaldlar.-T.: 1991-1997.
3. Abu Iso at-Temuriy. Sahihi Termiziy.-T.: 1993.
4. Muhammad payg'ambar tarixi.-T.:1993.
5. Muxtasar. Shariat qoidalariga qisqacha sharh.-T.: Cho'lpon, 1994.
6. Abdurahmon Qoya. Islom axloqi.-T.: 1997.
7. O'zbekistonda islom dini. Mustaqillik izohli lug'ati.-T.:1998.
8. Abdulvahob Xollof. Usuli fiqh.-T.: 1999.

## **8.-Mavzu. O'RTA OSIYODA ISLOM.**

### **R e j a :**

1. Islomni O'rta Osiyoga kiritilishi, uning o'ziga xos rivojlanish yullari.
2. Tasavvuf.
3. Islomiy qadriyatlar va hozirgi zamon.

**Islomning O'rta Osiyoga kiritilishi, uning o'ziga xos rivojlanish yullari.**O'rta Osiyo arab istilochilari tomonidan zabt etilishi VII-asr oxiri va VIII-asr boshlarida ummaviylar sulolasi hukmron bo'lgan 661-750-yillarda arablar harbiy yurishining ikkinchi bosqichiga to'g'ri keladi. O'rta osiyo xalqlari hayotiga islom ta'limotining kiritilishi muayyan darajada ijobiy rol o'ynadi. Jumladan, arablar hukmronlik qilgan dastlabki asrlarda ilohiyot, fan, falsafada arab tili hukmron bo'lgan. Ammo keyinchalik mahalliy xalqlarning o'z tillarida ham madaniyat rivojlanib, unga islomning ta'siri kuchli bo'lgan.

O'rta Osiyo xalqlari madaniyati, ilohiyot va fanlarning rivojlanishiga islomning ta'siri kuchli bo'lgan. IX-XII Va XIV-XV asrlardagi uyg'onish davrida undan keyingi hayotda jahonga mashhur olim, mutafakkirlar, ilohiyot sohasining yirik namoyondalari yetishib chiqqanlar.

XIX asrning 70-yillarida Turkiston boshqa taraqqiy etgan mamlakatlarga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish darajasidan ancha orqada edi. Yagona markazlashgan davlat emas edi. Turkiston 3 ta xonlikka: Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklariga bo'lingan edi. Ular o'rtasidagi nizolar mamlakatning iqtisodiy-madaniy hayotning rivojlanishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Bu hham o'z navbatida mehnatkashlar ommasining ongining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonni chor Rossiya zabt etgan. Chorizmning Turkistonni ishg'ol etishi qisqi muddatli harbiy siyosiy harakat bo'lmay, qariyb chorak asrni o'z ichiga olgan va Turkiston xalqlari hayotida muayyan iz qoldirgan ziddiyatli tarixiy hodisadir. Istilo Qo'qon xonligining g'arbiy chegarasi hisoblangan. Oqmachit qal'asi (Qizil O'rda)ning 1853 yilda bosib olinishi bilan boshlangan. Chorizmning Turkistondagi istilochilik harakati 1876 yilda shu xonlik markazi - Qo'qonning taslim bo'lishi bilan tugallangan.

1900 yili Turkiston aholisining 4,15 foizi ko'chib kelganlar edi. Ular eng yaxshi yerlarning 2659 ming desyatinasini o'z qo'llariga olganlar. Ushbu o'zgarishlar natijasida o'lkani siyosiy hayotida ham o'zgarishlar yuz bergan, jamiyatning sosial tabaqalanishi keng tus olgan.

O'lkada tarix arxeologiya, etnografiyaga oid muzeylar ochilgan. Ilmiy jamiyatlar to'zilgan. 1870 yilda Toshkentda kutubxona (hozirgi A.Navoiy nomidagi kutubxona) ochilgan. Yirik shaharlar – Farg'ona, Xiva, Andijon, Samarqand, Toshkentda bir qancha bosmaxona va litografiyalar ochilgan.



Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Muqimiy, Furqat kabi shoirlarning she'riy to'plamlari nashr qilina boshlagan. O'zbek tilida gazeta chiqa boshlagan.

O'lkada bu paytga kelib mahalliy, diniy maktablar soni ham ortib borgan. 3 ta viloyatda (Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand) jami masjidlar 11964, imomlar 11680, maktablar 4632, undagi o'quvchilar 44783, madrasalar 277, undagi o'quvchilar 7935, eshonlar – 391 ta bo'lgan. Bu shuni ko'rsatadiki, Chorizmning zulmiga qaramasdan islomga, uning qadriyatlariga munosabat xalqda so'nmagan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda g'oyaviy-siyosiy kurash yanada kuchayib, uchta yo'nalish vujudga kelgan:

- a) feodal-klerikal,
- b) jadidlik
- v) demokratik yo'nalish.

Mamlakatda islom mafkurasi hukmronlik qilib turgan paytda ular o'lkaning iqtisodiy, ma'naviy, madaniy jihatdan qoloqligini tugatish, xalq ommasini iqtisodiy va ma'naviy zulmdan ozod etish, uni ma'rifatli qilish yullarini axtardilar. Ma'lumki, ular o'zlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini, ilg'or g'oyalarini badiiy adabiyotda, poeziya janrida ifodaladilar. Bu ma'rifatparvarlar mehnatkashlar ahvolini yaxshilash, ilm-ma'rifat, adolatli tuzum o'rnatish, xalqlar do'stligi g'oyalarini targ'ib etish kabi masalalarga katta e'tibor berganlar.

**Tasavvuf tariqati.** Tasavvuf (arab.), uni sufiylik sufizm deb ham yuritiladi. Tasavvuf – islomdagi diniy-falsafiy oqim bo'lib, u VIII-asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Tasavvuf musulmon mamlakatlari ijtimoiy taqqiyotining xususiyatlari bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan.

Tasavvuf ta'limotining asosiy mazmuni inson va uning xudoga munosabatidir. Yangi odamlarni xalolikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka, barcha musulmonlarni teng bo'lib yashashga chorlagan. Ayniqsa bu ta'limot boshqalarning kuchidan foydalanmasdan o'z halol mehnati evaziga yashashni talab qiladi.

Tasavvuf ta'limotining yuzaga kelishining yana muhim sabablaridan biri ko'p mamlakatlarni birlashtirgan arab imperiyasida fanlarni rivojlantirish, diniy ta'limotni hayotga tatbiq qilish borasida turli xil yondoshuvlar bo'ldi.

Tasavvuf vaxdat-ul mavjud va vaxdat-ul vujud diniy-falsafiy g'oyalar hamda Arastu qarashlaridan oziq olib rivojlangan Sharq falsafasi ta'sirida islomning alohida oqimi sifatida vujudga keldi. U murakkab diniy-falsafiy oqim bo'lib, xilma-xil shakllarga, mazmun va yo'nalishga ega. Tadqiqotchilarning fikricha, uning 17 ta asosiy suluki (yo'nalishi) mavjud.

Tasavvufda ikkita asosiy g'oyaviy yo'nalish ko'zga yaqqol tashlanadi: bu o'tkinchi dunyo, mol-mulq mansabga ixlos qo'yish Allohni unutishga, imonsizlikka olib keladi, degan g'oyaga tayanganlar tarkidunyochilikni targ'ib etganlar; azro'i azalda peshonaga yozilgan taqdir borligiga, odam undan qochib qutula olmasligiga ishontirishga intilganlar. Ikkinchi yo'nalish bu dunyo Alloh-taolo tomonidan odamlar, ularning insonlardek yashashi uchun yaratilgani, odam shu dunyodagi ezgu ishlari bilan u dunyoda visoliga musharraf bo'la olishiga, binobarin, undan qo'rqish asosida emas, Allohni sevish, uning visoliga yetish uchun og'ir, mashaqqatli poklanish yo'lidan borishni tashviq etganlar.

Tasavvufning so'l qanoti diniy-falsafiy ta'limot sifatida aqidaparastlik islomga nisbatan muxolifiyat bo'lib, Yaqin va O'rta Shprqda, ayniqsa O'rta Osiyoda tabiiy va falsafiy fanlar rivojida o'z o'rnini va mavqeiga egadir. O'rta Osiyo mutafakkirlarini sho'rolar davrida o'sha davrdagi islom aqidalariga qarshi qo'yildi. Ijtimoiy hodisa, ma'naviyatga sinfiy(partiyaviy) munosabat tarixiy jarayonlarga shunday g'ayriilmiy yondoshuvni, ularni mafkura va siyosat talablariga bo'yosundirishni taqozo etardi.

Shu yo'sinda rivojlangan tasavvuf Sharqda, shu jumladan Turkiston musulmonlari orasida tafakkur tarzi va axloq me'yorini belgilaydigan ijtimoiy hodisaga aylangan.

**Islomiy qadriyatlar va hozirgi davr.** Kishilarni o'tmishga, undagi qadriyatlarga, ma'naviy madaniyatga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash ularga shaxsiy va ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topishda yordam beradi. Bunday yo'l topa olmagan kishilar o'zlarini qiyn ahvolga solib qo'yadilar. Haddan tashqari chetga chiqishlar esa ko'pincha haqiqatning ayon bo'lmay qolishiga olib keladi.

Dinda umuminsoniy qadriyatlar juda ko'p. Hozirgi zamon ruhoniylari ham dahriylar kabi unutgan bu qadriyatlarni tiklamoqdalar; zamona ehtiyoji va manfaatlariga xizmat qiladiganlarni qayta tilga kirgizmoqdalar. Biz ularga bu xayrli ishda ittifoqchi va xayrixohmiz.



Hozirgi diniy uyushmalar rahbariyatining xalq ommasi, jumladan oddiy dindorlar orasida hurmat va obro'ga tobora ko'proq ena bo'lib borayotganligining o'z sabablari bor. Bularidan biri, ular dunyoviy bilim, ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat, e'tiqod va imonni tan olib, e'tirof etmoqdalar.

Hozir oliy islom o'quv yurtlarida 19-20 turdagi fanlardan dars o'tilib, imtihon olinadi. Bu o'quv predmetlarining yarmidan ko'pi dunyoviy bilimlar ekanligi hammamizga ma'lum. Bu hol hozirgi zamon ruhoniylarining ilm-fandan iborat qadriyatlarga har qachongidan ham katta e'tibor berayotganliklarining ishonchli, diqqatga sazovor dalilidir. Yana bu – Muhammad (s.a.v.)ning «Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo'lmanglar», «Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir», «Shahid qonidan ko'ra olimning siyohi muqaddasdir», «Ilm ibodatdan afzaldir» - degan da'vatu hikmatlariga hozirgi zamon din ahllari sobitqadamlik bilan amal qilmoqdalar. Biz ham ularni targ'ib qilamiz.

Islomning muhim talablaridan biri har bir inson imonli, e'tiqodli bo'lishi lozimligidir.

Biz xalqimizning diniy e'tiqodini endi g'oyat hurmat qilamiz, uni umuminsoniy ma'naviy madaniyatning uzviy qismi, deb qadrlaymiz. Chunki hozirgi diniy ta'limotda birinchi navbatda insoniy elementlar ustun turadi.

Hadislardagi da'vat, pand-nasihatlarining hozirgi zamon bilan hamohang bo'lgani, ayniqsa mamlakatimizdagi turli millatlar orasida noxush voqealar yuz berib turgan davr taqozosiga muvofiq keladigan odamlarni do'stliq hamkorlikka chaqiriqlardir. Hadislarning birida «Salomlashib yuringlar, odamlarga taom yediringlar... uzaro birodar bo'linglar» deyilgan. Ularning yana birida, «Mo'minlar uzaro do'stlashishda, rahm-shafqatda va mehru-oqibatda go'yoki bir tananing a'zolaridir. Uning biror a'zosi og'risa, unga qo'shilib qolgan a'zolari ham bedorlik va og'riq bilan alam chekadi».

Hadislarda xayriya, ya'ni saxovat, muruvvat, shafqat, hadya, xayru sadaqa kabi masalalarga juda ko'p o'rin va e'tibor berilgan. Ularning birida «sadaqa va xayru ehson qiltsh yuli bilan rizqu nasibalarigizga baraka tilanglar», deyilsa, ikkinchisida, «Tangri g'am-tashvishli odamlarga yordam beradiganlarni do'st tutadi» deb ta'kidlanadi; uchinchisida «ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandning hojatini chiqaring» deyiladi. Yana birida «bir-biringizga ehson qilinglar, chunki ehson muhabbatni oshiradi va dildagi g'amliklarni yo'qotadi», degan da'vatlar, hikmatlar olg'a suriladi.

Shuni e'tirof etishimiz kerakki, dingina emas, balki ilm-fanning birgina o'ziyoq insonni yuksak fazilatli qilishga qodir emas. Buning uchun ijtimoiy tuzum, moddiy omil, iqtisodiy zamin, ahloqiy tarbiya, boy ma'naviy hayot va hokazolar mavjud bo'lishi kerak. Bunda dinning real qadriyatlari ishtirok etishi mumkin.

### **Mustaqil ta'lim uchun adabiyotlar:**

1. Saidboyev T.S. slam i obshestvo.-M.: Nauka, 1984.
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson. 1-kitob.-T.:Yozuvchi,1996.
3. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob.-T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hamda «O'zbekiston» nashriyotlari. 1999.
4. Mustaqillik izohli lug'at.-T.: Fan, 1998. Najmiddin Kubro (170-172); Sufiylik (202-204); Yassaviy (252-253); qadriyatlar (279-280).
5. Poklik iymondandir. Tuplam.-T.: 1993.
6. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1997.

## **9-Mavzu. VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR.**

### **R e j a :**

1. Vijdon erkinligi tushunchasi.
2. Sho'rolar davrida vijdon erkinligida yo'l qo'yilgan xatolar.
3. Mustaqil O'zbekistonda vijdon erkinligining konstitusion kafolatlari.
4. Din, e'tiqod erkinligi va ilmiy dunyoqarash.

**Vijdon erkinligi tushunchasi.** Vijdon erkinligi kishining biror dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. Shuning uchun bu muammo ijtimoiy hayotda tarixan muhim va murakkab masala bo'lib kelgan. Vijdon erkinligi huquqi kishilarning dinga bo'lgan munosabatidan tashqari shaxsning demokratiq adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalarni ham qamrab oladi.

Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhimdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavidan tortib, barcha xalqlar hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi o'z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, o'z dini yoki e'tiqodiga o'zicha, shuningdek boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

Vijdon erkinligi qandaydir bir mavhum tushuncha emas, u albatta ma'lum ijtimoiy vaziyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun uni konkret tarixiy, ijtimoiy sharoitsiz, ob'yektiv va sub'yektiv omillarsiz tasavvur qilish qiyin. Bundan tashqari «vijdon erkinligi» tushunchasini ilmiy talqin qilishda albatta milliy, mafkuraviy, madaniy va sinfiy omillarni ham nazarda tutish kerak.

Vijdon erkinligi dinga ishonuvchilarni majburan o'z e'tiqodlaridan qaytarib, dinni ma'muriy tarzda taqiqlab qo'yishning har qanday nazariy va amaliy ko'rinishlariga chek qo'yadi. Shuningdek u jamiyatdagi barcha konfessiyalar, ya'ni dinlar, cherkov va diniy birlashmalar, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilarni teng huquqli deb biladi, biron bir dinni imtiyozli, boshqa dinlardan ustun qilib qo'ymaydi. Shu bilan birga jamiyatda ilmiy dunyoqarashning qaror topishini vijdon erkinligining amalda namoyon bo'lish belgilaridan biri deb hisoblaydi.

**Sho'rolar davrida vijdon erkinligida o'yl ko'yilgan xatolar.** Oktabr to'ntarishidan keyin dastlabki davrlarda vijdon erkinligi masalasini, ya'ni davlat va din o'rtasidagi yangi munosabatni izchillik bilan amalga oshirishga harakat qilindi. Bu sohada 1918 yil 23 yanvarda RSFSR Xalq Komissarlari Kengashi tomonidan e'lon qilingan «Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida»gi dekret dastlabki qadam bo'ldi. Bu dekretda davlat organlari yoki diniy tashkilotlar tomonidan fuqarolarning vijdon erkinligiga zo'rlik va tazyiq ko'rsatishning har qanday ko'rinishlariga chek qo'yish; ularga dinga bo'lgan munosabatlarini amalga oshirishda to'la erkinlik berish; dinga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsning huquqlarini ilgarigidek cheklab ko'yishlarni bekor qilish; hamma rasmiy aktlarda dinga bo'lgan mansublik shartlarini olib tashlash asosiy maqsad ekanligi qayd qilingan edi. Diniy tashkilotlarga o'z funksiyalarini to'la amalga oshirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi lozimligi alohida uqtirib o'tilgan. Shunday qilib, dekret asosida har bir kishiga xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmaslik huquqi berilgan. Dekret Sovet davlatining dinga nisbatan munosabati negizi bo'lib, uning asosiy g'oya va prinsiplari ittifoqdosh respublikalar Konstitutsiyalari va shu sohadagi qonunlarida o'z ifodasini topgan va keyinchalik ularni rivojlantirishga xarakat qilingan. Jamiyatda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar. Millionlab mehnatkashlarning bundan buyong'i turmush tarzida ularning dunyoqarashlariga, ma'naviy hayotiga ham sezilarli ta'sir etgan.

Hayotni qayta qurish, madaniy inqilobni amalga oshirish, odamlarni eskilik sarqitlaridan xalos qilish va shu kabi shiorlar ostida va ko'pincha ma'muriy va o'zboshimchalik yullari bilan minglab cherkov, masjid, ibodatxonalar, madrasa, seminariya, akademiya yopib qo'yildi, din peshvolari, ruhoniylar va ko'pgina dinga ishonuvchilar qatag'on qilindi.

Bunday muhim jarayonlar ayniqsa chekka o'lkalarda, shu jumladan O'rta Osiyoda g'oyat keskin va dahshatli tus oldi. Birgina O'zbekiston hududida 24 mingdan ortiq masjid yopildi, ularning binolari bo'zilib tashlandi. Mahalliy aholi musulmonlari uchun aziz, muqaddas bo'lgan xalqning tarixiy va madaniy merosi hisoblangan yuzlab obidalar, maqbaralar, masjid, madrasalar xarobalarga aylantirildi. Toshkent shahridagi 26 madrasadan 1930 yilda 23 tasi bo'zib tashlandi. Dindorlik uchun odamlar quvg'in qilindilar, ularning molu mulklari ayovsiz musodara etildi. Bunday qonunsizliklarga chidolmay YU shahar va qishloq aholisidan anchagina qismi qo'shni mamlakatlar – Afg'oniston va Sharqiy Turkiston (Uyg'uristonga) qochib ketishga majbur bo'ldi. Aholini «tezroq savodxon va ma'rifatli qilish» bayrog'i ostida asrlar bo'yi xalqning madaniy boyligi, ma'rifat quroli, milliy g'ururi bo'lib kelgan

arab alifbosiga asoslangan yozuv bekor qilinish, 11 yil ichida (1929-1940 yillarda) avval lotin, so'ng rus alifbolari majburiy joriy etildi. Bu katta ma'naviy falokat edi. Albatta, chunki mahalliy xalqlar bu bilan o'z o'tmishidan, boy tarixiy va madaniy merosidan, ajdodu avlodlari yaratgan boyliklardan mahrum bo'lishga mahkum etildi. qadimiy madaniyat va ma'rifat o'chog'i bo'lgan zamin, dunyoga mashhur olimu mutafakkirlar yetishtirib bergan xalqlar endi «savodsiz», «qoloq», «madaniyatsiz» ga chiqarib qo'yildi.

Agar 1984 yilda mamlakat bo'yicha hammasi bo'lib 7 ta musulmon uyushmasi ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa. Keyingi to'rt yil mobaynida jami bo'lib butun mamlakat bo'yicha 18 masjid ochildi, xolos. Ammo buning natijasida dindorlik kamaygani yo'q. Din mahalla, xonadonlar, kishilar qalbiga, ichki dunyosiga yanada chuqurroq kirib boraverdi. Ruxsat etilmagan ibodatxonalar, masjidlar, «maxvfiy» diniy maktablar soni ko'payaverdi. Shunday qilib, dinga nisbatan qo'llanilgan ko'p yillik ma'muriy-zo'ravonlik siyosati vijdon erkinligi tamoyillarini qo'pol ravishda buzdi, butun jamiyatga, shu jumladan O'zbekistonga juda katta zarar keltirdi. Faqat mustaqillik sharofati bilan yuqorida qisqacha tavsiflangan ma'muriy ateizmga va qonunbuzarliklarga barxam berildi.

**Mustaqil O'zbekistonda vijdon erkinligining Konstitusion kafolatlanishi.** 1991 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi yangi Qonunni qabul qilgan edi. Qonun loyihasini tayyorlashda keng jamoatchilik vakillari, xalq deputatlari, olimlar, mutaxassislar, turli millat va din vakillari faol ishtirok etishdi. Bu qonun o'z mazmuni bilan ilgari qonunlardan katta farq qilardi.

Qonunda O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi qayd etilgan. Buning ma'nosi davlat diniy masalalar bilan shug'ullanmaydi, diniy tashkilot va uyushmalar esa davlat ishlariga aralashmaydi, ya'ni din va diniy tashkilotlar davlat ajratilgan.

1998 yil 1 mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n birinchi sessiyasida vijdon erkinligi qonunining yangi tahriri qabul qilindi.

**Yangi tahrirdagi vijdon erkinligi qonuniga kiritilgan yangiliklar asosan quyidagilardan iborat:**

*birinchidan*, yoshlarga diniy ta'lim berish xususidagi huquqlarni muhofaza qilishga e'tibor qaratilgan. Qonunning 3-moddasidagi, 2-qismida bunday deyilgan: «Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi». Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 145-moddasida voyaga yetmagan bolalarni shunday qonunga zid tarzda dinga o'qitish – eng kam ish haqining ellik baravaridan yetmish baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yohud uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanishi ko'zda tutilgan.

- *Ikkinchidan*, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgan. Uning tizimining o'quv dasturiga diniy predmetlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi degan dastur qonunning 7-moddasiga qo'shib qo'yilgan.
- *Uchinchidan*, diniy ta'lim maxsus o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Diniy tashkilotlarning Markaziy boshqaruv organlari, ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tashkil etishga haqlidir;
- *Turtinchidan*, dindan saboq beruvchilar, murabbiylar tegishli puxta bilimga va uni o'qitish haqidagi maxsus ruxsatnomaga ega bo'lishi shart;
- *Beshinchidan*, qonun xususiy tartibda ta'lim berishni man etadi (9-modda). Bu qonunni buzganlar uchun O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 241- moddasida muayyan jazo belgilangan.
- *Oltinchidan*, vijdon erkinligi to'g'risidagi 1991 yildagi qonunning 13-moddasida diniy tashkilot yuridik shaxs huquqiga ega bo'lishi uchun uni tuzgan, kamida un kishidan iborat 18 yoshga to'lgan fuqarolar Adliya Vazirligining shu diniy tashkilot faoliyat ko'rsatish nazarda tutilgan hududdagi idorasiga Nizomni ilova qilib ariza topshiradilar, deb ko'rsatilgan edi.

Yangi tahrirdagi qonunga binoan esa diniy tashkilot O'zR ning 18 yoshga to'lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'lmagan fuqarolar tashabbusi bilangina to'zilatadi.

- *yettinchidan*, diniy tashkilotlar O'zR si Adliya Vazirligida yoki uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'z faoliyatini amalga oshiradi (8-moddaning 5-qismi).

Diniy tashkilot Nizomi davlat qonunlariga zid bo'lmasligi kerak. Agar diniy tashkilot Nizomi qonuniy hujjatlariga zid bolsa, diniy tashkilotning ushbu Nizomi ro'yxatga olinmaydi va o'zining faoliyati ta'kidlanib, tarqatiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov «biz bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, ahloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz»,- deb ta'kidladi.

Yurtboshimizning bu ulug'vor fikrlari barcha fuqarolar uchun dasturulamal bo'lishi lozim. Mustaqil O'zbekistonda din va e'tiqod erkinligi konstitusion kafolatlanganligini doimo yodda tutishimiz kerak.

**Din, e'tiqod erkinligi va ilmiy dunyoqarash.** Yangi tahrirdagi Qonun vijdoniy e'tiqodga, uning dunyoviy va diniy shakllariga erk beradi, ularni mustaqil, teng mavjudligini va nizosiz ish olib borishlarini ta'minlaydi; ularni qullab-quvvatladi; g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qiladi. Bundayn tashqari har qanday ekstremistik harakatlar qoralanadi va bu ishlarning tashkilotchilari qonunning tegishli moddasi bilan jazolanadilar.

Mamlakatimizda din va e'tiqod erkinligining ta'minlanishini ahamiyati shundaki, u xalqimizning ma'naviyati va psixikasiga hayotbaxsh ta'sir etib, insonning poklanishi, jamiyatni ma'naviy-ahloqiy jihatlardan sog'lomlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 16 diniy konfessiya faoliyat ko'rsatmoqda. Ular bilan davlat idoralari o'rtasida deiokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy munosabatlar shakllandi. Din va e'tiqod erkinligini ta'minlash asosida mamlakatda fuqarolar hamjihatligi va milliy totuvliq tinchlik va barqarorlik vujudga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari milliy Markazi o'tkazgan sosiologik tadqiqotlar natijasida barcha so'ralgan aholidan 79,2 foizi dinga ishonishini aytgan.

Shulardan, o'zbeklar – 87,2 foiz, boshqa millat vakillari – 71,3 foizni tashkil etgan. Shunisi diqqatga molikki, o'zlarini dindor hisoblagan aholining aksariyat ko'pchiligi dinga bo'lgan munosabatini belgilashda besh vaqt namoz o'qishni, masjid-madrasaga yoki cherkovga borishni shart deb bilmaydi. Inson uchun xos bulgan dunyoqarashlar turlicha (ilmiy, diniy, falsafiy, g'ayriilmiy va b.) bo'ladi. Biz, diniy dunyoqarash haqida yuqorida bayon etganmiz.

Ilmiy haqiqatlar atrofida shakllangan ilmiy dunyoqarashga ega bulgan shaxslarning asosiy ideali (yuksak orzusi), hayotning ma'nosi shu ob'yektiv olamda chinakam insoniy munosabatlar, umumiy farovonlik va adolatni qaror toptirish uchun kurashda baxtiyorlikka, el-yurtning izzat-ikromiga sazovor bo'lib, hayotida o'zidan yaxshi nom qoldirib, avlodlar qalbida umrini davom ettirish, ya'ni ijtimoiy abadiylikka musharraf bo'lishdir.

Bunday dunyoqarashga erishish uchun yoshlar maktablardan boshlab fan asoslarini puxta o'rganishlari tabiat, jamiyat va insoniyat haqidagi ob'yektiv qonuniyatlarini ilmiy asosda tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Ayni vaqtda ilm-fan, madaniyat va ma'rifat bilan chambarchasligi doimo yodda tutiladi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, o'zligimizni anglashimizning o'rni beqiyosdir.

Respublikamiz mustaqilligi sharofati bilan din va e'tiqod erkinligining ta'minlanishi O'zbekiston fuqarolari uchun o'z tarixi, tajribasi, ma'naviy merosi, dini, qadriyatlarini o'rganish va tiklash uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Endilikda ular ma'naviyatimizning yuksalishiga salmoqli hissa qushmoqda. Yoshlar ana shu ma'naviy merosdan bahramand bo'lib, o'z-o'zini anglay boshlasa, hozirgi zamon fan-texnika yutuqlarini chuqur o'zlashtirsa, uning fikrlash doirasi kengayadi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi.

Ilmiy dunyoqarash maqsadlarini amalga oshirishda islomiy ta'limotdagi ezgulik da'vatlaridan foydalanish mumkin. Har bir inson muayyan dunyoqarashga ega bo'ladi va ana shu orqali o'zining jamiyatga, tabiatga, tashqi olamga munosabatini belgilaydi.

### **Mustaqil ta'lim uchun adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.-T.: 1998.
2. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi, xalq e'tiqodi buyuk kelajakka ishonchdir. 8-tom,-T.: O'zbekiston, 2000.



3. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (Yangi tahriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. Tuplam. 19-son,-T.: «Adolat». 1998. 224-234 betlar.
4. Bobamurodov M. Islom odobi va madaniyati.-T.: Cho'lpon., 1995.
5. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrab (Arab durdonalari).-T.: 1991.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha tamoyillar.-T.:O'zbekiston, 2000.

## **10-mavzu. Diniy ekstremizm va fundamentalizm. (1 soat).**

### **Reja:**

1. Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaasib (fanatik) unsurlarning faoliyati mafkurasi.
2. Fundamentalizmning mohiyati.
3. Markaziy Osiyo mintaqasida ekstremistik guruxlar faoliyati.

Tayanch iboralar: din, ekstremizm, fanatizm, fundamentalizm, terrorism, panislomizm, gurux, noqonuniy, vaxxobiylik, “xizbut-taxrir”, akromiyalar.

1. Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaasib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Fanatizm o'z aqidasiining shak-shubxasiz to'g'riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan xolda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorismga zamin tayyorlaydi.

Diniy ekstremizm va uning g'oyaviy asosi fundamentalizmning mazmuni, zararlari. I.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asari 1-bobining shu masalaga bag'ishlangan qismida bayon etilgan. Unda ta'kidlanganidek, XX asr oxirida jaxon xamjamiyati xayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog'i ostida sodir bo'layotgan xodisalar g'oyat xilma-xil, ko'p qirrali, goxo ziddiyatli, xatto qarama-qarshi qutblarga bo'linganligi; jaxon, jumladan O'zbekiston jamoatchiligi bu jarayonlarga katta qiziqish bilan qaramoqda. «Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin xodisalar munosabati bilan bezovtalanayotgani, ba'zan esa xatto xavfsirayotgani xam ko'zga tashlanmoqda».

Ilmiy bashorat, ya'ni kelajakni ilmiy asosda oldindan ko'rish saloxiyotiga ega bo'lgan akad. I.A.Karimov 1997 yilda nashr etilgan kitobidayoq islomda XX asr oxirida paydo bo'layotgan diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi o'taketgan keskin, buzg'unchi oqimlar munosabati bilan obezvtalanayotganini, ba'zan esa xatto xavfsizlanayotganini, binobarin, ular xavfsizlikka taxdid solishi extimolligini oldindan izxor etgan edi. 16 fevral voqealari, O'sh viloyatida, Dog'istonda sodir bo'lgan voqealar bu bashoratni ortig'i bilan tasdiqlagan edi.

2. Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini xal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo'nalishi. Diniy fundamentalizm – aqidaning o'zgarimasligini ximoya qiladigan, vaxy va mo'jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining xarfiy talqini tarafdori, ularning xar qanday majoziy talqiniga murosasiz, so'zma-so'z talqinga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladigan istiloxdir.

Fundamentalizm iborasi ilk bor I Jaxon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmning ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaq mukammalligiga ishonishni mustaxkamlashni, uni so'zma-so'z sharxlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib, 1919 yili Filadelfiyada Jaxon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.



Diniy fundamentalizm deb qachonlardir vujudga kelgan aqidalarni o'zgarmas deb xisoblaydigan, vaxiy va mo'jizalarning muqaddas yozuvlardagi bayonining xarfiy talqini tarafdori bo'lgan, bularning xar qanday zamonaviy talqiniga qarshi turadigan, so'zma-so'z talqiniga asoslangan ishonchni aqlga tayangan mantiqiy fikrlardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqodni shakllantirishning ilk davrlarida olg'a surilgan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy, og'ishmay bajarilaverishini talab etadigan diniy oqimlarni tavsiflashda qo'llaniladigan atamani aytiladi.

Asrimizning 70-yillaridan boshlab esa bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshlandi. Islom fundamentalizmi zamonaviy islomdagi uch yo'nalishdan biridir (qolgan ikkitasi – traditsionalizm va modernizm). Islom fundamentalizmining asosiy g'oyasi – «sof islom» printsiplariga qaytish, maqsadi «islomiy taraqqiyot» yo'lini joriy etishdir.

XX asrning 80-90-yillarida butun dunyoda diniy omilning faollashuvi sobiq sovetlardan keyingi makonda xam o'z aksini topdi. Bu davr jamiyat taraqqiyotida, bir jixatdan, diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy xayotdagi tabiiy mavqei tiklanayotgan, ikkinchi tomondan, mazkur asosda ayrim mafkuraviy ziddiyatlar tug'ilishi vaqti bo'ldi.

Asosiy qonunimizda yana shu narsa qat'iy qilib belgilab qo'yilganki, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy xuquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, xarbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruxdagi siyosiy partiyalarning xamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi (57-modda).

O'rta Osiyodagi respublikalar o'z mustaqilligiga erishishi va uning mustaxkamlanishi davrida «islom omili», «islom uyg'onishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» kabi iboralar tobora ko'proq ishlatilib, bu xol ularning beqiyos faollashuvini o'zida aks ettirdi. Bunga sabab sobiq sovet davlatining mafkuraviy tasavvurlari va qadriyatlarining emirilib, muayyan vaqt davomida xosil bo'lgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish extiyoji bo'ldi. Kommunistik mafkuraning ma'naviy jixatdan qashshoq bo'lib, o'ziga xos mutaassibliigi va muayyan millatlar manfaatlariga qarshi qaratilganligi sho'ro xokimiyatidan keyin bu xududda diniy fundamentalizm uchun qulay sharoit tug'dirdi.

Sobiq Ittifoqdagi xukmron partiyaning namoyandalari diniy jamoalarni xalqlarning aql-idrokini egallash uchun kurashda o'zlarining raqibi deb xisoblashi dinning chekinishi va xatto uning muayyan ma'nodagi muxolif kuchga aylanishiga olib keldi. Dinning doimiy ta'qib ostida bo'lib kelgani, islom dinining eng saloxiyatli ulamolarning qatag'on qilinishi, minglab masjid va madrasalarning buzib tashlanishi diniy taassubni yo'qotishga emas, balki uning ildizlarini oziqlantiruvchi xatarli omillarning kuchayishiga olib keldi. Millatlar orasida o'zlikni anglash tuyg'usi, etnik jixatdan nasl-nasabini izlashga intilish kuchaydi.

O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmining taxdidi aqidaparastlikni yoyish, bu yo'l bilan musulmonlarni isloxotchi davlatga ishonchini yo'qotishga urinishda o'zini namoyon etmoqda. Bunday guruxlar mustaxkamlanib borayotgan umummilliy birdamlik va xamjixatlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikka raxna solishga xarakat qilmoqdalar. Demokratiya va dunyoviy davlat tushunchalarini, e'tiqod erkinligiga asoslangan ko'p konfessiyali dunyoviy jamiyatni obro'sizlantirishga yo'naltirilgan sa'y-xarakatlarni amalga oshirmoqdalar.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «eng avvalo, jamiyat, gurux, aloxida shaxs ma'naviy xayotining muayyan soxasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, xamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan.

Binobarin din odamlarda ishonch xissini mustaxkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Xayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish xamda avloddan avlodga etkazishga yordamga kelgan.

Dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'lmaganligini xam ta'kidlash mumkin. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi xam u bilan yonma-yon, u bilan teng yashash xuquqiga ega bo'lgan xolda rivojlanib kelgan».

Keyingi yillarda milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishiga katta e'tibor berilishi bu narsa xukumatimizning ustuvor siyosatga aylandi. Ko'plab diniy bayramlar ommaviy nishonlanmoqda, televidenie va matbuot tomonidan xalq extiyojida bo'lgan diniy masalalar tez-tez yoritila boshlandi. Fuqarolar o'rtasida diniy ilm va an'analarga o'rganish qiziqish kuchaydi. Biroq bundan foydalangan ba'zi shaxslar o'z manfaatlarini yo'lida chet ellik yurtimizga suqulib kirmoqchi bo'lgan ekstremistik oqimlar «da'vatchi»lariga aylandilar. Ular

xorijliklar tomonidan istaganlaricha mablag' va diniy adabiyotlar bilan ta'minlandilar. Bu xarakterlar tezda o'z natijasini berdi. Farg'ona vodiysi va Toshkent shahrida avj olgan «vaxxobiychilik» xarakati, jumhuriyatimizning deyarli barcha shahar va qishloqlariga etib borishga ulgurgan «Xizb at-taxrir al-islomiy» kabi guruxlarning keyingi yillarda Vatanimizning turli joylarida uyushtirgan fitna-fasod xarakterlari shundan darak beradi.

Modomiki, biz yoshlarimizni, Prezidentiz aytganidek Imom Buxoriylar, Naqshbandiylar va Yasaviylar ta'limoti asosida tarbiyalar ekanmiz, biz ularni turli islom niqobi ostidagi g'arazli guruxlar bilan buyuk ajdodlarimiz amal qilgan va bizlarga xam tavsiya etgan musaffo islom o'rtasini ajrata oladigan darajada bilimni qilishimiz zarur bo'ladi.

3. Markaziy Osiyo xududiga diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar faoliyatining kirib kelishi 90-yillarning boshlariga to'g'ri kelib, islom dinini siyosiyashtirib, xokimiyatni egallab olishga xarakter qilgan bu yaramas, mash'um oqimlar yaxlit jamiyat a'zolarini, ayniqsa musulmonlarni bir-biriga zid turli xil guruxlarga bo'lib, parchalab tashlashga, jamiyatdagi barqarorlik, osoyishtalikka qarshi qaratilgan yovuz, mudxish, terroristik, talonchilik xarakterlarini olib borishga urindilar.

Diniy ekstremizmning eng ashaddiy, urushqoq, birodarkush jangarilari vaxxobiylardir. Ular Qur'onga sodiqmiz, xadislarning ximoyachilarimiz deb og'izda da'vo qilib, amalda ularni niqobga aylantirib, tinchlikka taxdid solib, osuda musulmonlar orasida qonuniy xokimiyatdan norozilik uyg'otib, uni ag'darib tepasiga chiqib olib, siyosiy islomga asoslanadigan feodal teokratik xalifalashtirilgan davlat o'rnatishdan iborat.

Fundamentalist ekstremistlar, ularga xayrixoxlik qiladigan vaxxobiylar yoshlar orasidagi bilimni sayoz, ongi past, ma'naviyati qashshoq, barqaror, muxim mavqeiga ega bo'lmagan, tarixiy xotiradan maxrum bo'lgan laqma yigitlarni yo'ldan ozdirayotirlar. Ularga qop-qop va'dalar berib, ta'bir joiz bo'lsa, qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib, to'g'ri yo'ldan ozdirganlar. Afsuski bunday nusxalar orasida ayrim Oliy o'quv yurtlarining talabalari xam bo'lgan.

Noan'anaviy sinkretik, ya'ni qurama, omuxta diniy guruxlar - «Musulmon birodarlari», xizbullox, taxriri islomiy, vaxxobiylar v.x. o'zlari xuruj qilgan o'lkalarda odamlarning sog'ligiga, xavfsizligiga taxdid solganlar. Ular Namanganda, Toshkentda, Botkentda, Dog'istonda qaytd zarbalarga uchradilar. Biroq ularning dumlari xali xam bor. Prezidentimizning xushyorlikka da'vati xamma uchun, jumladan talabalar uchun xam dastur bo'lishi kerak.

Vaxxobiylar. Vaxxobiylar XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan diniy-siyosiy oqimdir. Uning asoschisi Muxammad ibn Abd al-Vaxxob 1703 yili Arabiston yarim oroli Najd o'lkasining al-Uyayna degan joyida tavallud topgan. Bu davrda uning otasi Abd al-Vaxxob ibn Sulaymon mustaqil maxalliy amir xokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilar edi. Muxammad yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi raxbarligida o'rgana boshladi. U an'anaga ko'ra Qur'onni yod oldi, tafsir va xadis ilmlari bilan tanisha boshladi. Bir necha bor Misr, Suriya, Kurdiston, Iroq, Eron mamlakatlarida bo'lib, ko'pincha ulamolar suxbatida o'zining janjalkashligi va mutaassibliги bilan ajralib turgan. U o'z targ'ibotchilik faoliyatini 1730 yillarda boshlab, birinchi maqsadi o'ziga munosib xomiy topish bo'ldi.

1745 yili Muxammad ibn Abd al-Vaxxob ad-Dir'iya vodiysiga uning amiri Muxammad ibn Sa'ud taklifiga binoan ko'chib o'tdi. Bu bilan Muxammad ibn Sa'ud o'z xokimiyatini kuchaytirishda vaxxobiylardek mafkuraviy qurolga ega bo'ldi. Vaxxobiylar o'zlari xoxlagan jamoani kufirda yoki shirkda ayblashlari va unga qarshi jixod e'lon qilishlari mumkin edi. Ibn Sa'ud esa bu jixodni amalga oshirib, o'z xokimiyati chegaralarini kengaytirishni boshladi. Muxammad ibn Abd al-Vaxxob 1792 yili vafot etdi. Ibn Saud va uning sulolasi vaxxobiylar bayrog'i ostida olib borgan urushlari 1932 yilda Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vaxxobiylar ta'limoti diniy masalalarda din fundamenti, ya'ni Payg'ambar davri voqeiyliklariga qaytishni talab etdi. Ular barcha muxoliflarini bid'atchilikda, ya'ni dinga yangilik kiritganlikda aybladilar, o'zlarining siyosiy dushmanlarini esa mushriklikda ayblab, ularga qarshi jixod olib borishga fatvo berdilar. Axloqiy masalalarda nazariy jixatdan, garchi shaxsiy kamtarlik, mol-mulkka xirs qo'ymaslik, dunyoviy xayotda toat-ibodatga aksariyat vaqtni sarflashni targ'ib qilsalar-da, lekin amalda saroy axlining bosqinchilik urushlari qo'shni qabilalar mol-mulklarini talash oqibatida gap bilan amal o'rtasida ziddiyat paydo bo'ldi.

Shuningdek, vaxxobiylar xarakati mafkurasining markazida avvaliga Arabiston erlarini birlashtirish orqali, keyinchalik butun islom dunyosida islom davlatini shakllantirish g'oyasi xam mavjud edi. Ular bu maqsad yo'lida xar qanday qurbonliklarga tayyor edilar.

Vaxxobiylarning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular faol xarakter olib boradilar. Ularning ko'pchiligi yashirin siyosiy faoliyat olib boradi. Ish uslublari – diniy xisssiyotlari kuchli bo'lgan fuqarolarni jamiyatlarga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik xarakterlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, xayot tarzidan norozi bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruxlarga, etim-esirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib boradilar. Kishilarga fanatizm, murosasizlik, o'zgal fikrlari va manfaatlariga xurmatsizlik ruxini singdirishga urinadilar.

Al-Ixvon al-muslimun. XIX asr dastlabki yillaridan islom dini tarqalgan mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy xayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarayotgan yangi sharoitlarga diniy-falsafiy, xuquqiy normalarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda «islomiy isloxotlar» nomini oldi. Lekin bu jarayon xaddan tashqari cho'zilib ketdi va ko'p soxalarda ziddiyatli xollarni keltirib chiqardi. Ular orasida panislomizm va musulmon jamoalarining boshqa konfessiyalardan ajratish g'oyasini aytishimiz mumkin. Panislomizm g'oyasini birinchi bo'lib ilgari surgan Jamoliddin al-Afg'oni (1839-1897) xisoblanadi. U diniy-siyosiy arbob bo'lib, 1884 yili Parijda Muxammad Abdux (1849-1905) bilan birgalikda «al-Urvat al-vusqo» jurnalini nashr etdi va unda panislamizm g'oyalarini targ'ib qila boshladi. Al-Afg'oniyning g'oyalarini keyinchalik «Musulmon birodarlar» (al-Ixvon al-muslimun) radikal shakllarida rivojlantirildi.

Al-Ixvon al-muslimun o'z tarixida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. 1928-1936 yillardagi davrni xayriya va ma'rifatchilik bosqichi deb atasa bo'ladi. Keyinchalik u kurash uslubi sifatida terrorni qo'llash darajasiga etgan siyosiy tashkilot sifatida maydonga chiqdi. Ko'plab davlatlarda uning faoliyati taqiqlandi. Keyingi davrda al-Ixvon al-muslimun orasida bo'linish yuz berib, ular 3 yo'nalishga ajralib ketdi:

«mo'tadillar» – Xasan al-Banno va Sayyid Qutb tarafdorlari;

«islom demokratlari» – «islom sotsializmi» ta'limoti tarafdorlari;

«at-Takfir va-l-xijra», «al-Jixod», «Xizb at-taxrir al-islomiy» kabi terror uslubini qo'llovchi tashkilotlar.

Xizb at-taxrir. Xizb at-taxrir 1952 yili Quddus shaxrida falastinlik iloxiyotchi Taqiy ad-din an-Nabaxoni (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Xayfada tug'ilib o'sgan, Qoxiradagi «al-Azhar» universitetida ta'lim olgan.

Partiyaning asosiy maqsadi – avval arab davlatlari miqyosida, keyin islom dunyosi miqyosida va nixoyat jaxon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy da'vosi – Mustafu Kamol Otaturk tomonidan 1924 yili usmoniy xalifa ikkinchi Abd al-Majid (1922-1924) xalifalikdan g'ayriqonuniy chetlatilgani bo'ldi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Partiya dasturi 187 banddan iborat bo'lib, asosiy maqsadi – xokimiyatga erishish. Bunday asosiy yo'l – islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy ta'lim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom ta'limotini o'rgatish yo'lida madaniy-ma'rifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Maqsadga erishish uchun kurash uch bosqichdan iborat:

a) G'oyaviy-fikriy kurash;

b) jamiyatda g'oyaviy inqilobni amalga oshirish;

v) xokimiyatga faqatgina umma-jamoaning to'liq roziligidan so'ng kelish.

Xizb at-taxrir tarafdorlari ko'pgina musulmon davlatlari, jumladan, Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqalarda o'z faoliyatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning xozirgi kundagi raxbari Abd al-Qadim az-Zallumdir.

Xizb at-taxrir tuzilish jixatidan piramida shaklidir. Xar bir gurux (xalqa) aloxida-aloxida bo'lib, 5-6 kishidan iborat. Guruxlarning o'quv ishiga mushrif raxbarlik qiladi. Undan tashqari guruxda yana bir raxbar – amir bo'lib, u mushrifga mashg'ulotlarni o'tkazishda bevosita yordam ko'rsatadi. Mushrif bir vaqtning o'zida bir necha guruxda ta'lim ishlarini olib borishi mumkin. O'qish davomida tinglovchilar diniy mavzudagi mashg'ulotlar bilan birga siyosiy, jumladan, musulmon davlatlarida sodir bo'layotgan voqealarni diqqat bilan o'rganadilar.

Xozirgi zamon islom ulamolari – Yusuf Qarzoviy, Sayyid Muxammad at-Tantoviy, Nosir ad-din al-Alboniyar Xizb at-taxrini oxod xadislarga, qabr azobiga, sirot ko'prigiga ishonmasliklari uchun ularni Axl as-sunna va-l-jamo'a safidan chiqqan deb xisoblaydilar.

Akromiyar. Respublikamiz xududida tashkil topib, xozirda faoliyati deyarli to'xtatilgan noan'anaviy, xam islom ta'limotiga, xam konstitutsiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo'lgan gurux «Akromiyar»dir.

Akromiyar 1996-1997 yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi gurux asoschisi – 1963 yilda tug'ilgan Yo'ldoshev Akrom nomi bilan bog'liq. A. Yo'ldoshev Xizb at-taxrirning etakchisi an-Nabaxoni g'oyalari

asosida 12 darsga mo'ljallangan «Imonga yo'l» risolasini yozgan. Shu sababdan akromiylarni «Imonchilar» deb xam yuritiladi.

Akromiylar xam davlat tepasiga chiqish kabi g'arazli maqsadlarni ko'zlaydilar. Biroq ular taxrirlardan farqli o'laroq, xalifalik davlatini maxalliy sharoitdan kelib chiqib, avvalo, Andijonda, so'ng Farg'ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Akromiylar siyosiy xokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar – «sirli», «moddiy», «uzviy», «maydon» va «oxirat». To'rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq xokimiyat uchun kurash bosqichlari bo'lmog'i lozim edi.

Bu gurux a'zolari, asosan, xunarmandlardan iborat bo'lib, ular rasmiy ishxonalardan bo'shab, jamoa ma'qullagan mexnat faoliyati bilan shug'ullanganlar. Zarurat tug'ilganda «birodarlari»ga «jamoabanki»dan moddiy yordam berganlar. Undan tashqari jamoa a'zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat mollari tarqatib turilgan. Quda-andachilik faqat «birodarlar» o'rtasida amalga oshirilgan.

#### **Mustaqil ta'lim uchun adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: - xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., O'zbekiston, 1997 y.
2. Karimov. I. A. Xushyorlikka da'vat. – T., O'zbekiston. 1999 y.
3. Karimov I.A. Ollox qalbimizda, yuragiizda. T., O'zbekiston, 1999 y
4. Karimov I.A.O'zbek xalqi xech kinga qaram bo'lmaydi. – T., O'zbekiston 2005 y.
5. Azimov A. Islom va xozirgi zamon. – T., 1992 y.
6. Zalolatga ketmang. Xizbut-taxrir fitnasidan ogox bo'ling. – T., Movorounnaxr, 2003
7. Komilov N. Islom-ma'rifat dini. – T., Ma'naviyat, 200 y.
8. Obidov R., Abdullaev S., Azimov A. Xidoyat va zalolat. – T., 2004 y.
9. Radjapova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik. T., 2003 y.
10. Ekstremizm va terrorism, guruxiy jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari. (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) – T., 1999 y.
11. Yo'ldoshxo'jaev X., Raximjanov D., Komilov M. Dinshunoslik Ma'ruzalar matni. – T., 2000 y.
12. Mo'minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. – T. Mexnat, 2004 y.





48,1,46,3,44,5,42,7,40,9,38,11,36,13,34,15,32,17,30,19,28,21,26,23  
24,25,22,27,20,29,18,31,16,33,14,35,12,37,10,39,8,41,6,43,4,45,2,47